



USAID
AMERIKA XALQIDAN



EAST • WEST
MANAGEMENT
INSTITUTE

GENDER TENGLIGI VA GENDER ZO‘RAVONLIGI SAVOL VA JAVOBLARDA



ВОПРОСОВ И ОТВЕТОВ ПО ГЕНДЕРНОМУ РАВЕНСТВУ И ГЕНДЕРНОМУ НАСИЛИЮ



USAID
AMERIKA XALQIDAN



EAST • WEST
MANAGEMENT
INSTITUTE

**GENDER TENGLIGI VA GENDER
ZO‘RAVONLIGI
SAVOL VA JAVOBLARDA**

Toshkent 2024

UDC 316.346.2:34(08)

BBK 60.54+67ya43

N 52

Ne'matov, J.A. Gender tengligi va gender zo'raonligi savol va javoblarda [Matn]: to'plam / J.A. Ne'matov, Sh. Po'latova .-Toshkent: Credo Print Group, 2024.-338 b.

O'zbekistonning huquqiy demokratik rivojlanishi jarayonida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, inson qadr-qimmatini ulug'lash islohotlarning bosh mezoniga aylandi. Ayniqsa, bu jamoatchilikning xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi muammolariga qiziqishi ortishida yaqqol namoyon bo'lib, mazkur jarayon faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, gender tengligini ta'minlashga oid milliy qonunchilik normalarini va bu boradagi xalqaro hujjatlar qoidalarini tushunmasdan turib masalaning tub mohiyatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Mualliflar ushbu to'plamda jamoatchilikni qiziqtirgan gender tenglik masalalariga doir savollarni umumlashtirishga va ularga imkon qadar qisqa, asosli va mazmunli javob berishga harakat qilishgan. Kitob huquqshunoslar, ekspertlar, shuningdek, gender tengligini ta'minlash sohasidagi faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda boshqa manfaatdor shaxslar uchun mo'ljallangan.

Mazkur nashrni chop etish AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) va uning amalga oshiruvchi hamkori East West Management Institute (EWMI) orqali Amerika xalqining qo'llab-quvvatlashi yordamida amalga oshirildi. Mazkur nashr mazmuni faqat "O'zbekistonda sud tizimini mustahkamlash loyihasi"ning javobgarligi bo'lib, USAID, AQSh hukumati yoki EWMI nuqtayi nazarini aks ettirishi shart emas.

Mualliflar: Ne'matov J.A. – 1-50 savollarga javoblar

Po'latova Sh. – 51-100 savollarga javoblar

Inakova M.M. – gender masalalari bo'yicha mutaxassis

Ushbu kitob rus tilida mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan bo'lib, o'zbek tilidagi tarjimasini hamda lotin alifbosida shakllantirilgan matnini mazmuniga mas'ul Saida Tursunova va Dilfuza Achilova hisoblanadi. Shu bois mualliflar tarjima tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan mazkur kitob matnidagi noaniqliklarga javobgar emas.

© USAID

© EWMI O'zbekistondagi filiali

© Credo print group

ISBN: 978-9943-8322-5-1

MUNDARIJA

1. Gender va gender tengligi nima?
2. O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlarni ta’minlovchi maxsus qonun bormi?
3. Gender masalalari bo‘yicha barcha xalqaro shartnomalar O‘zbekiston Respublikasida amal qiladimi?
4. Gender tengligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari milliy urf-odat va an‘analarni buzadimi?
5. Gender tengligi inson huquqlari bilan qanday bog‘liq?
6. Gender tengligi va ayollar huquqlari tushunchalari bir xilmi?
7. Gender stereotiplari nimani anglatadi?
8. Gender stereotiplari jamiyat va shaxslarga qanday ta’sir qiladi?
9. Milliy qonunchilikni takomillashtirish orqali gender stereotiplarini yengish mumkinmi?
10. Gender tengligini ta’minlash orqali nimaga erishish mumkin?
11. Me’yoriy-huquqiy hujjatlarning gender-huquqiy ekspertizasi kim tomonidan amalga oshiriladi?
12. Gender statistikasi nima uchun zarur va u qanday shakllantiriladi?
13. Gender indikatorlari qanday maqsadlarda qo‘llaniladi va O‘zbekistonda tegishli axborot resursi mavjudmi?
14. Davlat tomonidan gender tengligiga erishish uchun vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlarning qabul qilinishi nimani anglatadi?
15. Diskriminatsiya nima?
16. Jins bo‘yicha bevosita va bilvosita gender kamsitish nimani anglatadi?
17. Jins bo‘yicha kamsitishga nimalar kirmaydi?
18. Gender tengligining kafili kim?
19. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasini boshqarish qaysi davlat organi zimmasiga yuklatilgan?
20. Gender ko‘rsatkichlari qaydnomasi olib boriladimi?
21. Xotin-qizlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun davlat tomonidan qanday chora-tadbirlar amalga oshirilgan?
22. Davlat xizmatida xotin-qizlar uchun qanday kafolatlar mavjud?

23. O‘zbekistonda gender tengligiga erishish bo‘yicha uzoq muddatli strategik reja mavjudmi?
24. Gender jihatlarni hisobga olgan holda byudjetlashtirish qanday amalga oshiriladi?
25. Gender masalalarini yoritishda ommaviy axborot vositalari qanday rol o‘ynaydi?
26. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati gender tengligini ta‘minlashga ta‘sir qiladimi?
27. Ijtimoiy nazorat deganda nima tushuniladi va u gender tengligini ta‘minlash bilan qanday bog‘liq?
28. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasida davlat organlaridagi vakolatli shaxslarga qanday vakolatlar berilgan?
29. Reproduktiv huquq nimani anglatadi va uning gender normalari bilan qanday aloqasi bor?
30. Raqamlashtirish gender tengligi holatiga qanday ta‘sir qiladi?
31. Nima uchun adliya tizimida gender tengligi zarur?
32. Sudyalar uchun gender masalalari bo‘yicha o‘quv kurslari bormi?
33. Xotin-qizlarning odil sudlovdan foydalanishiga to‘siqlar mavjudmi?
34. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari qanday kafolatlanadi?
35. Mehnat munosabatlarida gender kamsitish nima?
36. Mehnat munosabatlarida nimalar diskriminatsiyaga kirmaydi?
37. Xotin-qizlarga nisbatan zulm va zo‘ravonlik deganda nima tushuniladi, zo‘ravonlikning qanday shakllari mavjud?
38. Tazyiq va zo‘ravonlik qurboni qanday huquqlarga ega va ular qay tarzda ta‘minlanadi?
39. Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun javobgarlik bormi?
40. Jinsiy zo‘ravonlik nimani anglatadi va buning uchun qanday javobgarlik bor?
41. Oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari tengmi?
42. Himoya orderi nima?
43. Himoya orderini berish tartibi qanaqa?
44. Himoya orderi bilan qanday cheklovlar belgilanadi?

45. Himoya orderini sud tomonidan uzaytirish tartibi qanaqa?
46. Shaxsga doir ma'lumotlar va ulardan qanday foydalanish mumkin?
47. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik nimadan iborat?
48. Zo'ravonlik va shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotlarga taqiq bormi?
49. Ommaviy axborot vositalari vakillari gender masalalarini yoritishda qanday talablarga amal qilishi kerak?
50. Gender va gender tengligi tushunchasi tarixi qanday?
51. Xalqaro huquqda gender va gender tengligi masalasi qay tarzda ifodalanadi?
52. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda ishtirok etuvchi davlatlar qanday majburiyatlarni zimmasiga oladi?
53. Xalqaro huquqda gender tengligi hamda milliy urf-odat va an'analar o'rtasidagi munosabatlar haqida nima deyilgan?
54. Xalqaro huquq xotin-qizlar huquqlari va gender tengligi tushunchalarini qanday ifodalaydi?
55. Turli mamlakatlarda gender stereotiplari bir xilmi?
56. Xalqaro amaliyotda gender stereotiplarining qarorlar qabul qilishga ta'siriga misollar bormi?
57. Xalqaro standartlar mentalitetga chuqur singib ketgan stereotiplarni o'zgartira oladimi?
58. Gender tengligini ta'minlash tinchlik va xavfsizlikka qanday ta'sir qiladi?
59. Genderga oid qonun ijodkorligi xalqaro amaliyotda qanday rol o'ynaydi?
60. Xalqaro hamjamiyatda gender ajratish statistikasidan qanday foydalaniladi?
61. Qanday xalqaro gender ko'rsatkichlari mavjud?
62. Xalqaro huquqda vaqtinchalik maxsus choralarga qanday talablar qo'yiladi?
63. Xalqaro huquqda diskriminatsiyaning ta'rifi bormi?
64. Gender kamsitish nimaligi yoki nima emasligi qanday aniqlanadi?
65. Xalqaro hujjatlarda diskriminatsiya turlari haqida nima deyilgan?

66. Xalqaro shartnomalarga muvofiq gender tengligini amalga oshirish uchun kim javobgar?
67. Gender tengligining buzilishi haqida xalqaro organlarga xabar berishdan maqsad nima?
68. Mamlakatlar BMTga gender tengligining amalga oshirilishi haqida hisobot beradimi?
69. Xalqaro hujjatlarda xotin-qizlarning qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqi qanday aks ettirilgan?
70. Saylov kvotalarini belgilashda xalqaro amaliyot mavjudmi?
71. Gender byudjeti xalqaro amaliyotda qanday aks ettirilgan?
72. Ommaviy axborot vositalarining gender tengligini targ'ib qilishdagi ta'siri qanday?
73. Gender tengligini targ'ib qilishda fuqarolik jamiyatining ta'siriga qanday misollar keltirish mumkin?
74. Xalqaro amaliyotda gender tengligining amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik nazorati tushunchasi mavjudmi?
75. Xalqaro hamjamiyatda gender tengligi va xotin-qizlar huquqlari bo'yicha qoidalarni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan qanday maxsus organlar yoki lavozimlar mavjud?
76. Xalqaro miqyosda reproduktiv huquqlarni himoya qilishga oid qanday qoidalar mavjud?
77. Gender tengligi va raqamlashtirish sohasida xorijiy mamlakatlar amaliyoti qanday?
78. Xalqaro huquqda adliya tizimiga gender yondashuvini joriy etish amaliyoti mavjudmi?
79. Dunyoda sudyalarning gender ta'limiga oid qanday misollar mavjud?
80. Xorijiy mamlakatlarda xotin-qizlarning odil sudlovdan foydalanishi bilan bog'liq qanday muammolar mavjud?
81. Xalqaro huquq nogironligi bo'lgan xotin-qizlarning odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini qanday ta'minlaydi?
82. Mehnat munosabatlarida gender tengligini ta'minlashga oid qanday xalqaro standartlar mavjud?
83. Xalqaro hujjatlar xotin-qizlarni ayrim mehnat turlariga qabul qilishni qanday tartibga soladi?

84. Xalqaro huquqda gender zo‘ravonlikning ta‘rifi bormi?
85. Jahon amaliyotida gender zo‘ravonlikdan himoya qilishning qanday vositalari mavjud?
86. Xalqaro hujjatlarda jinsiy zo‘ravonlikning ta‘rifi bormi?
87. Oilaviy munosabatlarda erkaklar va xotin-qizlar o‘rtasidagi tenglikni ta‘minlash bo‘yicha jahon amaliyotida qanday tajribalar bor?
88. Xorijiy mamlakatlarda stalking (ta‘qib)dan himoyalaniş qanday ta‘minlanadi?
89. Jahon amaliyotida himoya orderlarining qanday misollari mavjud?
90. Xorijiy mamlakatlarda oilaviy zo‘ravonlik uchun qanday jazo turlari nazarda tutilgan?
91. Xorijiy mamlakatlarda zo‘ravonlikka qarshi kurashishga ommaviy axborot vositalari qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
92. Gender zo‘ravonlikni ommaviy axborot vositalarida yoritish amaliyoti qanday?
93. Zo‘ravonlik haqidagi ma‘lumotlarning maxfiyligi qay tarzda ta‘minlanadi?
94. Gender zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha jurnalistik surishtiruvlarining eng ilg‘or amaliyoti qanday?
95. Xorijiy mamlakatlarda ommaviy axborot vositalarida shaxsga doir ma‘lumotlarni oshkor qilganlik uchun qanday javobgarlik turlari mavjud?
96. Yoshlarni zo‘ravonliksiz hayotga tayyorlash bo‘yicha eng ilg‘or amaliyotlar qanday?
97. Qaysi mamlakatlarda gender zo‘ravonlik eng kam uchraydi?
98. Migratsiya gender tengsizligiga qanday ta‘sir qiladi?

SO‘ZBOSHI

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘ilishi alohida e‘tirof etilgan bo‘lib, kamsitishning barcha turlari taqiqlanishi belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining xotin-qizlarni kamsitishga barham berish bo‘yicha qo‘mitasi (CEDAW) O‘zbekistonning beshinchi davriy ma‘ruzasi bo‘yicha o‘zining yakuniy mulohazalari chog‘ida hukumatning barcha bo‘g‘inlari, shu jumladan sud hokimiyati ham CEDAW konvensiyasidan yetarli darajada xabardor bo‘lishi uchun bir qator tavsiyalar berdi. Jumladan, qo‘mita O‘zbekiston Respublikasiga sudyalalar, prokurorlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun hujjatlariga rioya etishga alohida e‘tibor qaratishni tavsiya qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi to‘g‘risidagi qat‘iy norma mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 58-moddasiga muvofiq, davlat xotin-qizlar va erkaklarning jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini ta‘minlaydi.

Tenglik tamoyilidan kelib chiqib, keyingi yillarda qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 561-sonli va “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 562-sonli qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, 2020-yil 4-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur hujjat bilan Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta‘minlash va monitoring olib borish to‘g‘risida nizom kuchga kirdi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 7- martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi farmoni bilan 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur qabul qilinib, ushbu dasturni 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi hamda Mehnat resurslari zich bo'lgan qishloq joylarining reyestriga kiritilgan hududlardagi xotin-qizlar bandligini ta'minlagan tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'chmas mulk ijaraga olinganda beriladigan imtiyozlar ro'yxati tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 5-maydagi "Xotin-qizlar va bolalarning huquqlarini ishonchli himoya qilish, ularga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonliklarga oid masalalar haqida"gi qarori bilan mas'ul vazirlik, idora va muassasalar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzildi. Ayollar va bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni inventarizatsiya qilish, ilg'or xalqaro tajribani o'rganish; respublika hududi bo'yicha ayollar va voyaga yetmagan qizlar o'rtasida sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonlik sabablarini o'rganish; qonunchilikni takomillashtirish, amaliyotchi olimlar va fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining takliflarini ko'rib chiqish, umumlashtirilgan tahliliy xulosalar tayyorlash; ayollar, qizlar va bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish bo'yicha kafolatlangan chora-tadbirlarni ta'minlash, tegishli takliflar ishlab chiqish ishchi guruhning vazifalari etib belgilandi.

Gender statistika ma'lumotlari joylangan www.gender.stat.uz saytidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, vazirlik va davlat qo'mitalari tizimida vazirlik (teng) lavozimlarda ishlayotgan ayollarning 2018-yildan 2022-yilgacha, shu jumladan har 1-aprel holatiga qarama-qarshi jins vakillariga nisbatan foiz nisbatida quyidagi koeffitsientni ko'rsatdi, ya'ni 2018-2019-yillar uchun – 2,9 foiz, 2020-2021-yillar uchun – 3 foiz va 2022-yil uchun – 5,7 foizni tashkil qilgan.

2023-yil 11-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 829-sonli qonuni qabul qilindi.

Mazkur hujjat bilan xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o'z huquqlari va manfaatlarini amalga oshirishida qo'llab-quvvatlash masalalarini tartibga

soluvchi milliy qonunchilik xalqaro standartlar asosida takomillashtirildi. Shuningdek, bolalar masalalari bo'yicha komissiya faoliyatining huquqiy asoslari belgilandi.

Ushbu qonun xotin-qizlar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga, oilalarda ma'naviy muhitni yaxshilashga, bolalar va ayollar huquqlari bilan bog'liq xalqaro indekslarda mamlakatimiz mavqeyini yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya faoliyati uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Shu munosabat bilan chop etilgan "Gender tengligi va gender zo'rvonlik 100 savol va javoblarda" qo'llanmasining maqsadi milliy qonunchilik hamda xalqaro huquqning asosiy qoidalarini tushunish va idrok etish yuzasidan soddalashtirilgan shakllarda keng jamoatchilik e'tiboriga havola etilmoqda. Gender-huquqiy munosabatlar sohasidagi xalqaro hujjatlar, shuningdek, zulm va zo'rvonlik qurbonlarini himoya qilish yuzasidan ularga uslubiy yordam ko'rsatish yo'li bilan adolatni ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash, ularni huquqbuzarlarga qarshi huquqiy himoya vositalaridan xabardor qilish va jazolash choralari ko'rishga undashdan iborat.

1. Gender va gender tengligi nima?

Zamonaviy dunyoda gender tushunchasi (inglizcha "gender", lotincha "genus"(zot) so'zidan olingan) xotin-qizlar va erkaklarning jamiyatdagi mavqeyini qonuniylik asosida biologik kelib chiqishdagi farqlarsiz belgilash bilan tavsiflanadi.

Legitimlik (lotincha "legitimus" (qonunlarga muvofiq, qonuniy, to'g'ri) so'zidan olingan) xalqning majburiy qarorlar qabul qilish huquqi ixtiyoriy ravishda hokimiyat qo'lga o'tadi demakdir.

Bundan tashqari, legitimlik siyosiy-huquqiy tushuncha bo'lib, davlat rezidentlari, katta guruhlar, jamoatchilik fikri, shu jumladan chet el vakillarining muayyan davlatda faoliyat yuritayotgan hokimiyat institutlariga ijobiy munosabati, ularning qonuniyligini tan olishini bildiradi.

Shuning uchun "gender" va "jins" tushunchalarini farqlash kerak. Jins faqat insonning biologik kelib chiqishini belgilaydi, unga ko'ra ayollar

va erkaklarga ijtimoiy bo‘linish natijasida xatti-harakatlar, imkoniyatlar, huquqlar va boshqa shakllardagi farqlar “tabiiy mohiyat”ga asoslanadi¹. Agar bu tushunchalarni farqlash biologik determinizmni rad etishga va gender tengligini targ‘ib qilishga xizmat qilsa, “gender” atamasini “jins” so‘zining sinonimi sifatida qo‘llash “gender” tushunchasini tanqidiy siyosiy mazmundan mahrum qiladi va shu bilan gender tengsizligini² oqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, “gender” tushunchasi nafaqat tahliliy, balki siyosiy ahamiyatga ega: u mavjud bo‘lgan tengsizlikning gender munosabatlarini tanqid qilishni o‘z ichiga oladi va ijtimoiy tuzumni o‘zgartirishga hamda gender tengligiga asoslangan yangi ijtimoiy tartibni qurishga³ qaratilgan.

Shunga ko‘ra, gender tengligi - bu xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqiy maqomi va uni amalga oshirish uchun teng imkoniyatlar, jinsidan qat’i nazar, shaxslarga hayotning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida o‘z qobiliyatlaridan erkin foydalanish imkonini beradi⁴. Gender tengligi erkaklar va ayollarning bir xil bo‘lishini anglatmaydi, balki ularning qadr-qimmati va hayotiy imkoniyatlari tengligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasiga ko‘ra, ayollar va erkaklar teng huquqlarga ega. Davlat jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlarini ta’minlaydi⁵.

2. O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlarni ta’minlovchi maxsus qonun bormi?

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 562-sonli qonuni bilan ayollar va erkaklarning teng huquq

1 Zdravomislova Ye., Tyomkina A. Sotsialnoye konstruirovaniye gendera: feministskaya teoriya // Vvedeniye v gendernie issledovaniya. Ch.I: Uchebnoye posobiye / Irina Jerebkina (red.). – Xarkov, SPb.: XTSGI, Aleteyya, 2001. – S. 147-173. – ISBN 5-89329-397-5

2 Gapova Ye. Itogi s‘ezda: yeshyo raz o klassovom projekte postsovetskogo feminizma // Jurnal issledovaniy sotsialnoy politiki. – 2009. – T. 7, № 4. – S. 465 – 484

3 Lorber, Judit. Gendering ijtimoiy qurilishi. – Sage, 1990 – ISBN 978-0-8039-3956-

4 <https://ombudsman.kg>

5 <https://lex.uz>

va imkoniyatlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlar tartibga solingan.

Ko'rib chiqilayotgan qonunda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini kafolatlash tamoyillari mustahkamlangan. Xususan, qonuniylik, demokratiya, ayollar va erkaklar tengligi, gender kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik va oshkoralik.

Shu bilan birga, normalar ishlab chiqish jarayonida va huquqni qo'llash darajasida gender-huquqiy munosabatlarni tushunish uchun zarur bo'lgan tushunchalar aniqlanadi. Xususan:

gender siyosatini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlar – davlat organlari tomonidan gender tengsizlikni bartaraf etish, xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy yoki fundamental tengligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarga erishish bo'yicha ko'riladigan huquqiy va tashkiliy xarakterdagi chora-tadbirlardir;

gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati;

gender statistikasi - davlat statistikasining jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to'g'risida har bir jins bo'yicha alohida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, har xil jinsdagi shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarini va jamiyatdagi munosabatlarni yoritadigan qismi;

gender-huquqiy ekspertiza – qonun hujjatlari va ularning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash tamoyillariga muvofiqligini tahlil qilish;

genderga oid audit — davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi holatini, shuningdek genderga doir kompleks yondashuvni o'rganish va baholash.

Shu bilan birga, qonun boshqa tushunchalarni ham ifodalab, majburiy boshqarish va ijro etish talablarini belgilaydi, ularni buzganlik uchun aybdor shaxslar javobgarlikka tortiladi.

3. Gender masalalari bo'yicha barcha xalqaro shartnomalar O'zbekiston Respublikasida amal qiladimi?

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi 3-qismida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining ajralmas qismi ekanligi belgilangan.

Mazkur konstitutsiyaviy normaning amalda tatbiq etilishi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi 518-sonli qonuniga rioya etish orqali amalga oshiriladi, bu esa O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari maqsadlari bo'yicha munosabatlarni tartibga solishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarning amal qilishini to'xtatib turish va bekor qilish to'g'risidagi qarorni tuzadi.

Shu munosabat bilan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan tartib-qoidalarni tushunish uchun qonunda qo'llaniladigan quyidagi asosiy ta'riflarni bilish muhimdir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi – O'zbekiston Respublikasi tomonidan xorijiy davlat, xalqaro tashkilot yoki xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega bo'lgan boshqa yuridik shaxs bilan yozma shaklda tuziladigan xalqaro shartnoma. U bir hujjatda, ikkita yoki bir nechta o'zaro bog'liq hujjatlarda aks etishi, shuningdek, shartnoma shakli va uning tuzilishidan qat'i nazar (shartnoma, bitim, konvensiya, akt, pakt, protokol, xat yoki nota almashish va boshqa nomlar va usullar).

Ratifikatsiya yorlig'i – xalqaro shartnomalar yoki konvensiyalarni Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanishini ifodalovchi maxsus hujjat.

Denonsatsiya – xalqaro huquqda ikki tomonlama xalqaro shartnoma amal qilishini to'xtatishning yoki ko'p tomonlama xalqaro shartnomadan chiqish, voz kechishning keng tarqalgan usulidir.

O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi faqat xalqaro shartnomalarda, shu jumladan gender masalalari bo'yicha xalqaro shartnomani imzolashda, ratifikatsiya qilishda, tasdiqlashda, qabul qilishda yoki unga qo'shilishda pozitsiyasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan tan olinadigan huquqiy harakatlarda qo'llaniladi.

Binobarin, Konstitutsiyamizning 55-moddasi 4-qismida har kimning O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq barcha mavjud davlat ichki himoya vositalari tugatilgan taqdirda, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro organlarga murojaat qilish huquqi tartibga solinadi.

4. Gender tengligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari milliy urf-odat va an‘analarni buzadimi?

Odat - bu o‘tmishda o‘rnatilgan xulq-atvor namunasiga qat‘iy rioya qilishning namoyon bo‘lishi, shuning uchun ular tabiatan refleksli emas, oqilona mantiqiy asoslashni talab qilmaydi va “o‘ziga xos” uslub sifatida qabul qilinadi. Odat umumiy tushunchadan farqli o‘laroq, o‘tmishda qabul qilingan madaniy qoidaga barqaror va aniq rioya qilishni ifodalaydi⁶.

Ushbu tushuncha huquq⁷, savdo⁸ va hokazo sohalarida qo‘llaniladi.

An‘ana (lotincha “traditio”(an‘ana) so‘zidan olingan) – o‘tmishdan kelajakka ajdodlardan meros qoladigan, avloddan-avlodga o‘tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy hayotning barcha sohalariga va barcha madaniyatlarga xos bo‘lgan, boy tajribaga ega omma tomonidan yaratilgan qoidalar va me‘yorlarni qamrab oladi⁹.

An‘analar ijtimoiy hayot va jamiyatning barcha sohalariga, madaniy qarashlariga xos bo‘lgan ancha katta jarayondir¹⁰.

Shu munosabat bilan milliy urf-odat va an‘analar davlat tomonidan tartibga solinadi, bunda davlat huquq normalari asosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vazifani bajaradi.

6 Obichay / Gofman A.B. // Nikolay Kuzanskiy – Okean. – M.: Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya, 2013. – S.614. – (Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya: [v 35 t.] / gl. red. Yu.S.Osipov: 2004 – 2017, t. 23). – ISBN 978-5-85270-360-6

7 A.Porotikov, R.Zumbulidze. Obichay v prave (sbornik). – Litres, 2017-09-05. – 547 c. – ISBN 9785457942608

8 Strovskiy L.Ye., Kazansev S.K., Parshina Ye.A. i dr. Vneshneekonomicheskaya deyatelnost predpriyatiya / Pod red. prof. L.Ye.Strovskogo – 3-ye izd., pererab. i dop. – M.: YUNITI-DANA, 2004, S.285

9 Filosofiya: Ensiklopedicheskiy slovar / Pod red. A.A.Ivina. – M.: Gardariki, 2004 – ISBN 5-8297-0050-6

10 Gofman A.B. // Niko – Otoliti. – M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1974 – (Bolshaya sovetkaya ensiklopediya: [v 30 t.] / gl. red. A.M.Proxorov: 1969 –1978, t.18)

Chunki oddiy inson tafakkuri uchun zamonaviy davrda “odat” va “an’ana” tushunchalari o‘tmish bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatning yangilanishi va rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigandek, turg‘unlik ramzi bo‘lib, vaziyatni idrok etish va qaror qabul qilish zaruratini yo‘qotadi.

Konstitutsiyaning 1-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston huquqiy va dunyoviy davlatdir. 14-moddasida esa davlat o‘z faoliyatini qonuniylik tamoyili asosida amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan. Shu munosabat bilan Konstitutsiyaning 15-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining so‘zsiz ustunligi e‘tirof etilgan.

Shuni ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi hududida milliy urf-odat va an’analar bevosita qonun normalariga bog‘liq bo‘lib, ular amaldagi gender qonunchiligiga zid bo‘lmasligi hamda mamlakatda istiqomat qilayotgan millat va elatlarning madaniyati xilma-xilligiga hurmatni hisobga olgan holda jamiyatning demokratik rivojlanishiga xizmat qilishi kerak.

5. Gender tengligi inson huquqlari bilan qanday bog‘liq?

Insonning asosiy huquqlaridan biri gender tenglikdir. Biroq insonning huquqlari ko‘pincha uning gender farqiga asoslanib buziladi. Gender identifikatori - bu fiziologiya, xulq-atvor, muloqot tili, kiyinish kodi va boshqalarda namoyon bo‘ladigan shaxsning ichki o‘zligini anglashi demakdir.

Gender tenglikni shakllantirishda biologik va ijtimoiy omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi¹¹.

Gender o‘ziga xoslikning biologik omili inson tanasining tug‘ilish paytida olingan tarkibiy va funksional qobiliyatlari bilan belgilanadi.

Gender o‘ziga xoslikning ijtimoiy omili jamiyatdagi hukmron mafkura va ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi jarayoni ta’sirida bo‘lgan inson xatti-harakati bilan tavsiflanadi.

Umuman olganda, gender tengsizlik asosida kamsitish butun dunyoda keng tarqalgan. Bu birinchi navbatda, ayollarning jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini cheklaydi. Ularni ta’lim, ish bilan ta’minlash, siyosiy va hukumat qarorlarini qabul qilishda to‘liq va teng ishtirok etishlari uchun

11 Fausto-Sterling, A. The problem with sex/gender and nature/nurture // Debating Biology / Bendelow, G., Birke L., Williams, S. – Routledge, 2005. – ISBN 9781134468133

muhim to‘siqlar mavjud.

Shuni tan olish kerakki, inson huquqlari buzilishida ayniqsa xotin-qizlar huquqining poymol etilishi kuzatiladi. Bunga qarshi BMT Bosh assambleyasi 1979-yilda “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyani qabul qilingan bo‘lib, unga O‘zbekiston Respublikasi 1995-yilda qo‘shilgan.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 21-moddasida inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart, har bir shaxs o‘z shaxsiyatini erkin rivojlantirish huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan. Uning roziligisiz hech kimga qonunda belgilanmagan majburiyat yuklanishi mumkin emas.

Shaxsning huquq va erkinliklarini ta‘minlashda boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilmasligi kerak.

Inson huquqlari va erkinliklari konstitutsiyaviy tuzumni, aholi salomatligini, jamoat axloqini, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida faqat qonunga muvofiq va zarur bo‘lgan darajada cheklanishi mumkin.

Konstitutsiyamizning 56-moddasida inson huquqlariga rioya etilishining kafolati sifatida inson huquqlarini himoya qilish milliy institutlari inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakl va vositalarini to‘ldirishi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi belgilab qo‘yilgan.

6. Gender tengligi va ayollar huquqlari tushunchalari bir xilmi?

Xotin-qizlar dunyo aholisining yarmini tashkil qiladi, bu inson salohiyatining yarmiga teng. Ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta‘minlash to‘liq va barqaror ijtimoiy rivojlanish uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlari jihatidan to‘liq tengligiga erishildi, deyishga hali erta.

Gender tengligi ayollar va erkaklarning ta‘lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy resurslardan teng foydalanish hamda fuqarolarning siyosiy soha va jarayonlarda ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi.

Gender tengligi inson huquqlari sohasidagi milliy qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" 562-sonli qonuniga muvofiq xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishi orqali kafolatlangan.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1991-yilda ratifikatsiya qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida "barcha insonlar erkin, qadr-qimmat va huquqlari bo'yicha teng tug'ilishi" va "har bir inson irqi, dini yoki boshqa maqomidan qat'i nazar, ushbu deklaratsiyada bayon etilgan barcha huquq va erkinliklarga ega"ligi e'tirof etilgan.

Ta'kidlash joizki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin imzolagan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat bo'ldi. Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lini tanlagan O'zbekistonda inson huquq va manfaatlar jamiyat taraqqiyoti hamda davlat qurilishi, butun ichki va tashqi siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi.

Aynan ushbu kontekstda ko'rib chiqilayotgan tushunchalarni o'rganish ayollar huquqlarining inson huquqlari bilan nisbiy o'xshashligini ko'rsatadi. Holbuki, jamiyatda gender tengligini samarali shakllantirish davlatda inson huquqlariga hurmat mezoni hisoblanadi.

Gender tengligi va ayollar huquqlari tushunchalari o'rtasida o'xshashlik va bog'liqlik bo'lmaydi. Chunki bu huquqiy hodisalar inson huquqlarini ta'minlashda faqat bir-birini to'ldiradi va ularni bir xil tushunchalar sifatida talqin qilib bo'lmaydi. Tahlil qilinayotgan tushunchalar mazmuniga singdirilgan maqsadlar butunlay boshqacha.

Bizning ayni damdagi yutuqlarimizdan biri xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeyini oshirishga qaratilgan deb hisoblash mumkin. Agar davlat tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali gender tengligiga erishish choralari ko'rilishini kafolatlamasa, ayollarning huquqlari mustahkamlanishi va ijtimoiy hayotdagi o'rni yaxshilanmaydi.

7. Gender stereotiplari nimani anglatadi?

Stereotip (boshqachadan - yunoncha. sérésos “ t hard” + tós “ iz“) - bu shaxs tomonidan ilgari shakllangan, stereotipik xatti-harakatlarda aks etishi mumkin bo‘lgan narsaning aqliy bahosi¹².

Ko‘pincha stereotiplar paydo bo‘lishining sabablari dunyo haqidagi eskirgan g‘oyalardir, ya’ni odamlar keksa avlod vakillaridan olgan bilimlarini qo‘llash orqali muayyan narsalar haqida o‘z g‘oyalari shakllantiradilar. Biroq dunyo o‘zgarishda va bundan bir necha o‘n yillar oldin dolzarb bo‘lgan narsa endi ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin.

Gender stereotiplari - jamiyatning ma’lum bir jins vakillari - ayollar yoki erkaklar qanday bo‘lishi kerakligi yoki aksincha, bo‘lmasligi kerakligi haqidagi barqaror g‘oyalarni aks ettiradi. “Erkak” va “ayol” haqidagi bunday fikrlar ham jamiyatning geografik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga qarab farqlanadi. Nisbatan aytganda, Afrika tub aholisining “ayollik” va “go‘zallik” haqidagi g‘oyalari Yevropa xotin-qizlarining qarashlaridan farq qilishi mumkin¹³.

Gender farqlari uzoq vaqtdan beri turli fan sohalari olimlarining e’tiborini tortdi. Gender farqlarini o‘rganuvchi tadqiqotchilarning asosiy maqsadi gender stereotiplari uchun ilmiy dalillarni topish va shu bilan mavjud gender rollarini ishonchli asoslash edi¹⁴. Biroq bu maqsadga umuman erishilmadi: aksariyat tadqiqotlar erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqlardan ko‘ra ko‘proq o‘xshashliklarni topadi va aniqlangan kichik farqlar ko‘pincha aniq ijtimoiy xususiyatga ega. Masalan, erkaklar o‘zlarining gender rollariga mos keladigan ayollardan farqli o‘laroq, ular o‘zlarini juda empatik deb hisoblamaydi, ammo fiziologik va yuz reaksiyalarining o‘lchovlari shuni ko‘rsatadiki, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi bevosita empatik reaksiyalarda hech qanday farq yo‘q¹⁵. Boshqa tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkaklar ham ayollar kabi tez-tez g‘azab, qayg‘u va qo‘rquvni boshdan kechirishadi, lekin g‘azabni ifodalash va boshqa salbiy his-tuyg‘ularni bostirish ehtimoli ko‘proq, ayollar esa,

12 <https://ru.wikipedia.org/wiki/Стереотип>

13 <https://nv.ua/spec/gender>

14 Bern Sh. Gendernaya psixologiya. – M.: Praym-Yevroznak, 2004

15 Eisenberg, Nancy, Lennon, Randy. Sex differences in empathy and related capacities // Psychological Bulletin. – 1983. – T. 94, №1. – С. 100-131

aksincha, g‘azabni bosadi hamda qayg‘u va qo‘rquvni ifodalaydi¹⁶.

Gender stereotiplari gender tengsizligini oqlash vazifasini bajaradi¹⁷.

8. Gender stereotiplari jamiyat va shaxslarga qanday ta’sir qiladi?

Gender stereotiplari - bu ijtimoiy umumiy tenglik qarashlaridir. Shu sababli inson ijtimoiy jihatdan ustun bo‘lishni xohlab stereotiplarga moslashishga harakat qiladi va o‘zini ijtimoiy jihatdan ustun tarzda namoyon qiladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, ish beruvchi erkaklar va xotin-qizlar bilan suhbatlashish jarayonida ularning jinsiga qarab o‘z xatti-harakatlarini turlicha namoyon qiladilar¹⁸. Shu bilan birga, o‘rnatilgan tartibga nima mos kelishi yoki kelmasligi qoidalarini bilamiz va ularni muhokama qilamiz.

Misol uchun, agar erkak xotining maoshi ancha yuqori bo‘lganligi sababli tug‘ruq ta’tiliga chiqsa, unda bunday xatti-harakatlar jamoatchilik fikrining salbiy reaksiyasini keltirib chiqaradi. Gender rollari bilan belgilanadigan kasblarni tanlash ham ijtimoiy jihatdan qoralanishi mumkin va bu yerda normalar ayollarga qaraganda erkaklar uchun qattiqroqdir. Shu bois gender stereotiplari ijtimoiy nazoratning kuchli dastagidir¹⁹.

Gender stereotiplari xotin-qizlarning intilishlari va hayotdagi yutuqlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. G.Allport xurofot qurboni bo‘lgan odamlar odatda o‘zlarida aynan shu xurofotlarga mos keladigan fazilatlarni rivojlantiradi, degan g‘oyani shakllantirdi. Ko‘pgina tadqiqotchilar G.Allportdan keyin buni “o‘zi amalga oshiradigan bashorat” deb atashdi. Agar xotin-qizlarning xatti-harakati jamiyatda salbiy deb qabul qilinsa, ayol o‘zini muvaffaqiyatsizlikka da’vat qiladi va bu fazilatlarni o‘zida rivojlantiradi²⁰.

Bu bilan ayollar o‘z rolini berishdan azob chekishadi deb o‘ylamaslik kerak. Stereotipik xususiyatlariga, masalan, hukmronlik, maqsadlarga erishish

16 Bern Sh. Ukaz, rabota

17 Bakanic, Von. Prejudice: Attitudes about Race, Class, and Gender. – Pearson/Prentice Hall, 2008. – C. 27-32. – ISBN 9780130453303

18 Lips H.M. Sex and Gender: An Introduction. Radford Univ. press, 1997 – p. 27

19 Ryabova T.B. Gendernie stereotipi i gendernaya stereotipizatsiya: metodologicheskiye podxodi / Tekst nauchnoy stati po spetsialnosti «Sotsiologicheskiye nauki» / <https://cyberleninka.ru>

20 Basow S.A. Gender stereotypes and roles. Pacific Grove, 1992. – p. 11 metodologicheskiye podxodi / Tekst nauchnoy stati po spetsialnosti «Sotsiologicheskiye nauki» / <https://cyberleninka.ru>

istagi va yuqori raqobatbardoshlik kabi xususiyatlarni o‘z ichiga olgan erkak kishi erkaklik stereotipiga muvofiq o‘z xatti-harakatlarini dasturlaydi. Ammo agar ular omadsiz bo‘lsa, erkaklar ayollarga qaraganda ko‘proq stressga tushadi va o‘ziga past baho beradilar²¹.

9. Milliy qonunchilikni takomillashtirish orqali gender stereotiplarini yengish mumkinmi?

Gender stereotiplariga qarshi kurash murakkab jarayon bo‘lib, u ijtimoiy guruhlarning chuqur ildiz otgan an‘analariga zid keladi. Oz navbatida jamiyat hayotini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinarkan, odamlar madaniy e‘tiqodlarga ko‘ra yashashda davom etishini ham yoddan chiqarmaslik kerak.

Shu bilan birga, inson huquqlari to‘g‘risidagi jamoatchilik tushunchasini kengaytirish Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyaning, uning ishtirokchilari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining ham maqsadlaridan biridir. Konvensiya xotin-qizlarning asosiy huquqlaridan foydalanishini cheklashda madaniyat va an‘analarning ta‘sirini rasman tan oladi. Qayd etilishicha, u stereotiplar, urf-odatlar va me‘yorlar ko‘rinishida bo‘lib, xotin-qizlarning yuksalishida ko‘plab huquqiy, siyosiy va iqtisodiy cheklolarga olib keladi. Konvensiya muqaddimasida ushbu munosabatlar bayon qilinib, “erkaklar va xotin-qizlar o‘rtasida to‘liq tenglikka erishish uchun ham erkak, ham ayolning jamiyat va oilada tutgan an‘anaviy o‘rnini o‘zgartirish zarurligi” ta‘kidlangan.

Shu sababli milliy qonunchilikning doimiy va tizimli ravishda takomillashtirilishi inson xatti-harakatlarining ijtimoiy va madaniy shakllarini o‘zgartiradi.

Quyidagi huquqiy munosabatlar ustuvor va samarali tartibga solinishi kerak, xususan:

- gender stereotiplarini bartaraf etish maqsadida ta‘lim muassasalarining o‘quv dasturlarini tuzishda inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlardan foydalanish va hisobga olish;

²¹ Williams K.L. The Glass Escalator: Hidden Advantage for Men in the “Female” Professions. – p. 220

- xotin-qizlar va erkaklar kasblari haqidagi stereotipik g'oyalarni o'zgartirish, ayollarning noan'anaviy kasbiy ta'lim dasturlariga kirishiga yordam berish;

- raqamli media va ijtimoiy tarmoqlar orqali gender tengligini targ'ib qilish;

- ayollarning stereotiplarga qarshi kurashish imkoniyatlarini kengaytirish;

- to'lanmagan mehnatning iqtisodiyotga qo'shgan hissasini o'lchash va boshqalar.

Shu bilan birga, chuqur ildiz otgan ijtimoiy me'yorlarga qarshi kurashish uchun fuqarolik jamiyati institutlari va mahalliy aholi vakillari guruhlari tomonidan olib borilayotgan qonunchilik tashabbuslarini rag'batlantirish zarur²².

10. Gender tengligini ta'minlash orqali nimaga erishish mumkin?

Gender tenglik shunday ijtimoiy mexanizmni ishga tushirib beradiki, unda teng huquq va rivojlanish asosida jamiyatdagi gender stereotiplarini yengib, ham ayol, ham erkaklarning davlat imtiyozlaridan to'liq foydalanish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Shuni tushunish muhimki, gender tengligining rasmiy darajasi va bu borada olib borilayotgan ishlarning haqiqiy holati o'rtasida doimo tafovut mavjud. Muayyan jamiyatda haqiqiy gender tengligi tamoyili insonning shaxsiy hayotini yo'lga qo'yishda katta yordam beradi, chunki u o'z salohiyatini cheklanmagan va o'zini o'zi anglash imkoniyatlari kengaygan holda ko'ra oladi.

Bunday amaldagi gender tenglik holatini jahon reytinglarida yetakchi o'ringa ega bo'lgan Skandinaviya davlatlarida kuzatish mumkin²³.

Ushbu davlatlarning bunday gender tenglikka erishishi ijtimoiy siyosatning sotsial-demokratik modelini (Gosta Esping -Andersen tipologiyasiga²⁴

22 Komissiya po polozheniyu jenshin. 57 sessiya, 4-15 marta 2013 goda. Punkt 3 (a) (ii) povestki dnya / <https://un.org>

23 Global Gender Gap Index Report 2023 / <https://weforum.org>

24 V rabote «The Three Worlds of Welfare Capitalism» (1990) Gosta Esping-Andersen

ko'ra) amalda qo'llash orqali insonlarning moliyaviy holatidan qat'i nazar sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy va ijtimoiy ta'minot kabi asosiy ehtiyojlarini qondirishga to'liq imkoniyatni ochib beradi. Bundan tashqari, ularni nafaqat ta'lim, ish bilan ta'minlash, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish kabi jamiyat hayotidagi, balki shaxsiy hayotda - bolalarga g'amxo'rlik qilishda erkaklar va ayollarning teng ishtiroki gender siyosati asosida amalga oshiriladi. Oilaga munosabat siyosati juda muhim rol o'ynaydi. U oila va ish o'rtasidagi muvozanat g'oyasi atrofida qurilgan hamda mas'uliyatli otalikni qo'llab-quvvatlash fuqarolarning nisbatan ixcham ravishda kasbiy va ota-onalik rollarini taqsimlash vositalarini o'z ichiga oladi²⁵.

11. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning gender-huquqiy ekspertizasi kim tomonidan amalga oshiriladi?

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi 562-sonli qonunining 7-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlarning gender-huquqiy ekspertizasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan faoliyatning tegishli yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladi.

xarakterizuyet videlennie tipi gosudarstva blagosostoyaniya, katorie, sobstvenno, i predstavlyayut osnovnie modeli sovremennoy sotsialnoy politiki, sushestvuyushiye v ekonomicheski razvitix stranax Zapada. Gosta Esping-Andersen (Gosta Esping- Andersen) - kandidat filosofii (Kopengagenskiy universitet, Daniya, 1972), doktor sotsiologii (Universitet Viskonsin-Medison, SSHA, 1978). Spetsializiruyetsya v oblasti politikheskoy sotsiologii, publichnoy politiki, gosudarstva vseobshego blagosostoyaniya, sotsialnogo neravenstva, sotsialnoy stratifikatsii; sravnitel'nogo analiza rabochego dvijeniya i dr. Professor kafedri sotsiologii v Universitete Pompei Fabra (University of Pompeu Fabra) (Barselona, Ispaniya). Osnovnie publikatsii na angl. (posle 1996 g.): 1996 - Welfare States in Transition. Social Security in the New Global Economy. London: Sage; Occupational Welfare in the Social Policy Nexus // Ed. by M. Shalev. The Privatization of Social Policy? London: Macmillan; 1997 - Welfare States at the End of the Century // Family, Market and Community. Paris: OECD; 2000 - Comparative research on welfare policy // International Encyclopedia of the Social and Behavioral Sciences. Elsevier, Holland; The Sustainability of Welfare States into the Twenty- First Century // International Journal of Health Services, 30:1

25 Чернова Ж. Зачем нам гендерное равенство: семь ответов на самые популярные вопросы / <https://forbes.ru/forbes-woman>

Normativ-huquqiy hujjat yoki uning loyihasi ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash tamoyillariga muvofiq emasligi aniqlansa, gender-huquqiy ekspertiza xulosasi ushbu normativ-huquqiy hujjat qonunni ishlab chiqqan yoki qabul qilgan organga ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining gender-huquqiy ekspertizasi quyidagilarga qaratilgan:

- jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitish imkonini yaratadigan normativ-huquqiy hujjatning yoki uning loyihasining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiq emasligini aniqlashga;

- jinsi bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitish imkonini yaratadigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilish oqibatlarini umumiy baholashga;

- normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, kamsitish xususiyatiga ega xavflarni aniqlashga;

- jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga yo'l qo'yadigan, aniqlangan normalarni bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga.

Qonunning mazkur moddasi talablarini samarali amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi 192-son qarori bilan Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Nizom gender-huquqiy ekspertiza tushunchasining mazmunini ochib beradi va huquqni qo'llash sohasidagi asosiy tushunchalarni yanada mustahkamlaydi.

Nizomga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlar normalari va qoidalarini hamda ularning loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, qonunda belgilangan tartibda kuchga kirgan xalqaro shartnomalar hamda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalarini tartibga soluvchi boshqa qonunchilik hujjatlari normalariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan gender tahlildan o'tkaziladi.

Bundan tashqari, atamalarning to'g'ri talqin qilinishini tekshirish ham asosiy talablar biridir.

12. Gender statistikasi nima uchun zarur va u qanday shakllantiriladi?

Gender statistikasi xotin-qizlar va erkaklarning real hayotini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlarni aniqlash, ishlab chiqarish va tarqatishga xizmat qiladi hamda gender siyosatini ishlab chiqishda hisobga olinadi.

Gender statistikasining rivojlanishi statistika ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, gender muammolarini aniqlash va gender yondashuvini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Gender statistikasini ishlab chiqarishning asosiy bosqichlariga quyidagilar kiradi:

- a) tadqiqot savollarini tanlash;
- b) qaysi statistik ma'lumotlar jamiyatdagi gender farqlarini aks ettirishini aniqlash;
- d) erkaklar va ayollarning jamiyatdagi mavqeyidagi farqlarni adekvat aks ettiruvchi tushunchalar va ta'riflarni shakllantirish;
- e) genderga asoslangan qarama-qarshilikni keltirib chiqaradigan stereotiplar, ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga olgan holda ma'lumotlarni yig'ish usullarini ishlab chiqish;
- f) tahlil o'tkazish va ma'lumotlarni siyosatchilar va jamoatchilikka taqdim etish²⁶.

“Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi 562-sonli qonunining 8-moddasiga asosan davlat statistika organlari gender ko'rsatkichlari asosida jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig'ishni, unga ishlov berishni, uni to'plashni, saqlashni, tahlil qilishni va e'lon qilishni amalga oshiradi.

Gender ko'rsatkichlarini shakllantirish quyidagilarga asoslanadi:

- davlat statistika organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat statistik kuzatuvlariga;
- davlat boshqaruvi organlarining ma'muriyatga oid ma'lumotlariga;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladigan statistik kuzatuvlarga.

26 Razrabotka gendernoy statistiki: prakticheskoye posobiye. OON. Jeneva, 2010 / <https://unece.org/DAM/stats>

Gender ko'rsatkichlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining statistik ma'lumotlari asosida ham shakllantirilishi mumkin.

Shunday qilib, gender statistikasi va ularning qanday tuzilganligi ushbu farqlar yoki tengsizliklarni aniqlash uchun jins va boshqa xususiyatlar bo'yicha ma'lumotlarni ajratish, shuningdek, bir jinsga boshqa jinsga qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatadigan yoki ayollar va erkaklar o'rtasidagi gender munosabatlari bilan bog'liq muayyan masalalar bo'yicha ma'lumotlarni to'plashni o'z ichiga oladi.

13. Gender indikatorlari qanday maqsadlarda qo'llaniladi va O'zbekistonda tegishli axborot resursi mavjudmi?

Gender ko'rsatkichlari gender tengsizligini baholash vositasi sifatida ishlatiladi. Gender indikatorlari ma'lumotlarni jins, yosh toifalari va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar bo'yicha ajratadi. Ular ma'lum bir jamiyatda ma'lum bir vaqt oralig'ida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida sodir bo'lgan munosabatlardagi o'zgarishlarni ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Ko'rsatkichlar shuningdek, gender tengligiga erishishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonini baholash vositasini ham taqdim etadi. Bunday yondashuv ijtimoiy adolat, kamsitish va inson huquqlarining buzilishi nuqtayi nazaridan loyiha va dasturlarni samarali monitoring qilish va baholash imkonini beradi. Gender ko'rsatkichlari jamiyatdagi xotin-qizlar va erkaklarning maqomi hamda rolidagi o'zgarishlarni aniqlaydi ²⁷.

O'zbekiston Respublikasida gender.stat.uz rasmiy veb-sayti faoliyat ko'rsatmoqda. Sayt uch tilda – o'zbek, rus va ingliz tillarida foydalanuvchilarga demografiya, sog'liqni saqlash, ta'lim, mehnat, ijtimoiy himoya kabi sohalarda gender jihatlari haqida ma'lumot beradi.

Shuningdek, statistik ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda gender statistikasini amalga oshirish doirasida ishlab chiqilgan ko'rsatkichlarning asosiy ta'riflari keltirilgan. Saytda joylashgan ma'lumotlar barcha foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lib, ro'yxatdan o'tmasdan turib saytga kirish imkoniyati mavjud.

27 Уралова С.В. Международные индикатора в оценке гендерного неравенства / Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес» / <https://cyberleninka.ru/article>

Gender.stat.uz veb-sayti gender aspektidagi ma'lumotlarni yanada takomillashtirish, jinslar bo'yicha ajratilgan ma'lumotlarni muntazam va o'z vaqtida e'lon qilish maqsadida gender statistikasining elektron ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha birinchi urinishdir. Xotin-qizlar va erkaklarning jamiyatdagi holatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi yangi ko'rsatkichlarni tizimlashtirish, joriy etish va ishlab chiqish yo'nalishida xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari inobatga olindi. Bu ish islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni demokratlashtirish tufayli davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi qirralarini aks ettirishga qaratilgan milliy statistikaning barcha tarmoqlarini rivojlantirish doirasida amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, respublikada 1990-yillardan boshlab gender ko'rsatkichlari aks ettirilgan risolalar muntazam chop etilib kelinmoqda. Ularning barchasi ma'muriy manbalarda va so'rov natijalarida mavjud bo'lgan asosiy gender ko'rsatkichlarini taqdim etadi²⁸.

14. Davlat tomonidan gender tengligiga erishish uchun vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlarning qabul qilinishi nimani anglatadi?

Vaqtinchalik maxsus choralar inson huquqlari va asosiy erkinliklarini amalga oshirishda ayollar va erkaklarning amaldagi yoki fundamental tengligiga erishishga qaratilgan davlatning zarur strategiyasining bir qismidir. Xotin-qizlarga nisbatan o'tmishda kamsitish holatlari bo'lganmi yoki bo'lmaganmi? Bunday qat'i nazar, vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlar ko'zlangan natijalarga erishilganda to'xtatilishi va ularni mustahkamlash va ma'lum vaqt davomida saqlab turish mumkin. Bu esa ayollarga nisbatan kamsitishning sabablari va shartlarini yo'q qilishga yordam beradi.

Garchi "maxsus" atamasi inson huquqlari bo'yicha adabiyotlarda qabul qilingan terminologiyaga mos kelsa-da, uning qo'llanilishi ko'pincha jamiyatda xotin-qizlar va kamsitishlarga uchragan boshqa guruhlarni zaif, himoyasiz va ularning ishtiroki yoki raqobatini ta'minlash uchun qo'shimcha yoki "maxsus" choralarga muhtoj jamiyat sifatida tasvirlaydi. Biroq,

28 Юсупов Д.О. Гендерная статистика в Республике Узбекистан / <https://unece.org/fileadmin/DAM/stats>

“maxsus” atamasining haqiqiy ma’nosi shundaki, bu chora-tadbirlar aniq maqsadga erishish uchun mo’ljallangan.

“Choralar” atamasi keng doiradagi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma’muriy va boshqa ijro hujjatlari va amaliyotlarni qamrab oladi. Masalan, tushuntirish yoki qo’llab-quvvatlash dasturlari; resurslarning ajratilishi va (yoki) qayta taqsimlash; imtiyozli rejim; maqsadli ishga olish, ishga olish va lavozimni ko’tarish; vaqt doiralari va kvota tizimlari bilan bog’liq miqdoriy maqsadlar.

Davlat xotin-qizlarning amaldagi va fundamental tengligini o’rnatish jarayonini jadallashtirish bo’yicha vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlarni qo’llagan holda, hayotning barcha jabhalarida, shuningdek, aniq maqsadli sohada ayollarning holatini tahlil qilishi kerak. U o’zining milliy kontekstida muayyan maqsadga nisbatan vaqtinchalik maxsus choralarning ehtimollik ta’sirini baholashi va gender tengligiga erishish uchun eng maqbul deb hisoblagan vaqtinchalik maxsus choralarni qabul qilishi kerak²⁹.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi 562-sonli qonunida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari, shuningdek, mas’ul davlat organlarining vakolatlari belgilangan.

15. Diskriminatsiya nima?

Diskriminatsiya (lotincha “discrimination”(ajralish) so‘zidan olingan) inson huquqlari va erkinliklarini cheklash yoki ma’lum bir belgilardan kelib chiqqan holda insonlarga yoki ijtimoiy guruhlarga turlicha munosabatda bo‘lishdir³⁰.

Diskriminatsiyani taqiqlash insonning barcha huquqlarini ro’yobga chiqarishning asosidir. Qonunlar kamsitishdan himoyalanihning turli

29 Общая рекомендация №25 по п.1 ст.4 Конвенции о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин о временных специальных мерах / <https://un.org/documents>

30 Гаджиев Г.С., Гусов К.Н. // Динамика атмосферы – М.: Большая российская энциклопедия, 2007. – С. 58-59. – (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю.С.Осипов; 2004-2017, т.9) – ISBN 978-5-85270-339-2

darajalariga ega. Inson huquqlari tenglik va kamsitilmaslik huquqini ikki usulda himoya qiladi. Ayrim qonunlarda diskriminatsiyani taqiqlash mustaqil huquq emas, balki ushbu qonunlar bilan himoyalangan boshqa huquq va erkinliklarga ham tegishli. Masalan, davlat shaxsiy va oilaviy hayot huquqini hurmat qilishi kerak. Ba'zi qonunlarda diskriminatsiyani taqiqlash qonun bilan belgilangan boshqa huquqlar bilan bog'liq bo'lmagan mustaqil huquqdir. Misol tariqasida jamoat tashkilotining majlislarida faqat uning a'zolari ishtirok etishini keltirishimiz mumkin.

Diskriminatsiyani taqiqlash davlatlarning ham salbiy, ham ijobiy majburiyatlarini o'z ichiga oladi.

Salbiy majburiyatlar davlatning va aynan davlat organlarining o'zlari diskriminatsiya qilmasligini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, davlat inson qadrini kamsituvchi qonunlar va dasturlarni qabul qilishdan qochishi, davlat idoralari esa qonunlarni kamsituvchi tarzda qo'llamasligi lozim.

Biroq davlat idoralaridan kamsitilmaslik talab etilmasa, tenglikka erishib bo'lmaydi. Shu sababli, kamsitish shaxslarning harakatlarida namoyon bo'lmasligini ta'minlash bo'yicha davlatning ijobiy majburiyatlari ham mavjud. Bunday hollarda hayotning muayyan sohalarini va qayd etilgan himoyalangan xususiyatlarni tartibga soluvchi aniq qonunlarga murojaat qilish kerak³¹.

16. Jins bo'yicha bevosita va bilvosita gender kamsitish nimani anglatadi?

Ijtimoiy hayot va faoliyatning barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda erkinliklarini tan olmaslikka qaratilgan har qanday istisno yoki cheklash, shu jumladan oilaviy ahvoli, homiladorlik, oilaviy majburiyatlarga ko'ra kamsitish, jinsiy zo'ravonlik, turli xil haq to'lash, teng mehnat va malaka, shuningdek, shaxslar sonini kamaytiradigan holatlar yoki mezonlarni yaratish, madaniyat orqali yuksalish yoki muayyan jinsdagi shaxslar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan shartlar yoki talablarni qo'yish gender kamsitish hisoblanadi. Ushbu ta'rifga asoslanib, gender diskriminatsiyasini 2 turga bo'lish mumkin: jinsga asoslangan to'g'ridan-to'g'ri kamsitish va bilvosita kamsitish³².

31 <https://Inimoigustegiid.ee/ru/temy/diskriminatsiya>

32 Комментарий ЛехУЗ к статье 5 Закона Республики Узбекистан от 2 сентября 2019

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 562-sonli qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi 192-sonli qarori tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomda jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitish tushunchalari keltirilgan.

Gender asosidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamsitish - bu xotin-qizlar va erkaklarning jamiyatning barcha jabhalarida huquq va erkinliklarini rad etishga qaratilgan har qanday farq, istisno yoki cheklash, shu jumladan oilaviy ahvoli, homiladorlik, oilaviy majburiyatlarga ko‘ra kamsitish, shuningdek, jinsiy zo‘ravonlik, teng ish va malaka uchun turli xil haq to‘lash.

Gender asosidagi bilvosita kamsitish esa - bir jinsdagi shaxslarni boshqa jins vakillariga nisbatan kamroq qulay holatga keltiradigan vaziyat, holat yoki mezonlarni yaratish, shu jumladan ommaviy axborot vositalari, ta‘lim va madaniyatda gender tengsizlikni targ‘ib qilish, muayyan jinsdagi shaxslar uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan shartlar yoki talablarni belgilashda namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda gender kamsitish deganda, bir kishiga ayol yoki erkak bo‘lgani uchun qarama-qarshi jinsdagi odamga nisbatan yomonroq munosabatda bo‘lish tushuniladi. Garchi jamiyat hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar va erkaklar teng huquq, burch va mas‘uliyatga ega. Shunday ekan, har bir inson jinsidan qat‘i nazar, jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etishi va o‘zini to‘laqonli his qilishi kerak.

17. Jins bo‘yicha kamsitishga nimalar kirmaydi?

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 562-sonli qonunining 5-moddasi 2-qismiga asosan quyidagilar jinsi bo‘yicha kamsitish hisoblanmaydi:

- tug‘ish va ona suti bilan oziqlantirish vazifalari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdagi farqlarni belgilash;

- ushbu qonun asosida gender siyosati amalga oshirilishini ta‘minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘rish;

года №ЗРУ-562 «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» / <https://lex.uz/docs/4494873>

- xotin-qizlar va erkaklar mehnatini muhofaza qilishda ularning reproduktiv salomatligini saqlash xususiyatlari;
- majburiyatlar faqat muayyan jinsdagi shaxslar tomonidan bajarilishi mumkinligiga asoslangan holda kasbiy malakaga doir tavsiyalar berish;
- qamoqda saqlash, jazoni ijro etish joylarida saqlash tartibi va shartlarini hamda huquqiy jihatdan ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini tartibga solishda farqlarni belgilash;
- xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ijobiy choralar.

Gender diskriminatsiyasiga aloqador bo'lmagan holatlarni aniqlash davlatga gender siyosatini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Chunki davlatning gender siyosati barcha sohalarda gender tengligini maksimal darajada ta'minlaydigan yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga imkon beradigan norma va standartlar, rivojlanish doiralari va yo'nalishlari, cheklovlar va erkinliklarni belgilashi kerak³³.

Shu nuqtayi nazardan jamiyatning gender tizimining holati - jinslarning o'rni, maqsadlari va mavqeyiga muvofiq belgilanadigan g'oyalar, norasmiy va rasmiy qoidalar hamda normalarni o'z ichiga olgan erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlar jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Mas'uliyatni taqsimlash, ish yuki, daromadlar, iqtisodiy va intellektual resurslardan foydalanish va siyosiy qarorlar qabul qilish gender tizimining ustun tamoyillari asosida qurilgan³⁴.

Masalan, mehnat munosabatlarida xodimning jinsiga qarab differensial munosabatda bo'lishga faqat ma'lum bir jinsga mansub ish yoki kasbni bajarish uchun obyektiv va asosli shart bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

33 Климашевская О.В., Крутов А.В. Гендерная политика государства: генезис понятия / Текст научной статьи по специальности «Политические науки» / <https://cyberleninka.ru/article>

34 Хирдман И. Женщины – от возможности к проблеме? Конфликт полов в «государстве всеобщего благоденствия» – шведская модель // Северная Европа. М.: АСТ-Пресс, 1995 – С. 38

18. Gender tengligining kafili kim?

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 562-sonli 6-moddasiga muvofiq, davlat xotin-qizlar va erkaklarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarining tengligini kafolatlaydi.

Bu jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash sohasida huquq va imkoniyatlarni teng asosda ta‘minlash, ta‘lim, ilm-fan, madaniyat, mehnat, ijtimoiy va boshqa sohalarda ham ayol, ham erkaklarga teng sharoit yaratish va ko‘maklashishda o‘z aksini topadi.

Shu bilan birga, xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida amalda teng huquqlilikka erishish, ularning jamiyat hayotining barcha jabhalarida ishtirokini kengaytirish, gender asosidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita kamsitishlarga barham berish hamda oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosatini ta‘minlash bo‘yicha vaqtinchalik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ko‘rib chiqilayotgan qonunning 9-moddasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- mazkur sohadagi normativ-huquqiy bazani shakllantirish va takomillashtirish;
- mazkur sohadagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar madaniyatini shakllantirish;
- mehnatga oid va oilaviy majburiyatlarni birga bajarishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash;
- oilani, bolalikni ijtimoiy jihatdan himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash, mas‘uliyatli onalik va otalikni shakllantirish;
- jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishga qaratilgan axborotdan jamiyatni himoya qilish;
- mazkur sohadagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik

jamiyatining boshqa institutlarini jalb etish;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga doir chora-tadbirlarni O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish maqsadida milliy, mintaqaviy va xalqaro darajalarda samarali hamkorlikni rivojlantirish.

19. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasini boshqarish qaysi davlat organi zimmasiga yuklatilgan?

O'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi Vazirlar Mahkamasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, Oila va ayollar masalalari qo'mitasi, shuningdek boshqa davlat organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi 562-sonli qonunining 13-moddasiga asosan ushbu faoliyat sohasini boshqarishda davlat organlari:

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni va axborotni muntazam ravishda yig'ishni hamda tahlil qilishni ta'minlaydi;

- jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularni tiklash bo'yicha choralar ko'radi;

- xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta'minlash masalalari yuzasidan kadrlarning kasbiy tayyorgarligi tizimini takomillashtirish bo'yicha tegishli

choralar ko‘radi hamda bunga ko‘maklashadi;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha fuqarolarning madaniyat darajasini va xabardorligini oshirish yuzasidan tegishli choralar ko‘radi hamda bunga ko‘maklashadi;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni amalga oshirishga faol jalb qilish maqsadida ular bilan hamkorlikni rivojlantiradi va shu kabi chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat organlari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha vakolatli mansabdor shaxsni belgilaydi, uning vazifalari davlat organi rahbarining o‘rinbosarlaridan biriga yuklatiladi.

Davlat organlari rahbarlari tadbirkorlik subyektlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari ishtirokida maslahat organlarini tuzishlari mumkin.

20. Gender ko‘rsatkichlari qaydnomasi olib boriladimi?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi 435-sonli “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida gender ko‘rsatkichlar va boshqa ma‘lumotlar Davlat statistika qo‘mitasi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Markaziy saylov komissiyasi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Oliy sud, Markaziy bank, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi hamda Moliya vazirligi hamkorligida shakllantirilib, stat.uz va gender.uz veb-saytida joylashtirildi. BMTning Statistika komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan minimal gender ko‘rsatkichlari va boshqa ma‘lumotlar doimiy ravishda yangilab boriladi.

Mazkur qarorga asosan hisobot ma‘lumotlari quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha yig‘iladi:

- xotin-qizlar va erkaklar kesimida haq to‘lanmaydigan uy ishlariga sarflangan o‘rtacha soatlar soni;
- ayollar va erkaklar bo‘yicha haq to‘lanadigan va to‘lanmaydigan uy ishlarida birgalikda o‘tkaziladigan o‘rtacha soatlar soni;
- 15 yoshdan 24 yoshgacha, 15 yoshdan katta bo‘lgan (15+) xotin-qizlar va erkaklarning mehnatga jalb etilishi ko‘rsatkichlari;
- xotin-qizlar va erkaklar kesimida band bo‘lganlar umumiy sonida o‘zini-o‘zi band qilganlarning ulushi;
- oilaviy tadbirkorlik uchun daromad keltiruvchi band ishchilarning ayollar va erkaklar kesimidagi ulushi;
- xotin-qizlar va erkaklar kesimida ish beruvchilar tarkibidan band bo‘lganlar ulushi;
- ayollarga tegishli firmalar foizi;
- xodimlarning tarmoqlar bo‘yicha, shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar bo‘yicha foizli taqsimlanishi;
- xotin-qizlar va erkaklar kesimida qishloq xo‘jaligida band bo‘lmaganlar soniga nisbatan norasmiy sektorda band bo‘lganlar foiz hisobida;
- xotin-qizlar va erkaklar kesimida 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar o‘rtasidagi ishsizlar darajasi;
- kredit olish imkoniyatiga ega bo‘lgan aholining ayollar va erkaklar bo‘yicha ulushi;
- xotin-qizlar va erkaklar kesimida yer mulkiga ega bo‘lgan katta yoshli aholi soni va boshqalar.

Umuman olganda, mas’ul vazirlik va idoralar tomonidan Davlat statistika qo‘mitasiga tegishli ma’lumotlarni taqdim etishi kerak bo‘lgan majburiy ko‘rsatkichlar jami 54 ta parametrni tashkil etadi.

21. Xotin-qizlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun davlat tomonidan qanday chora-tadbirlar amalga oshirilgan?

Mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, kadrlar tayyorlash, kasbiy ko‘nikmalarni egallash va bandligini ta’minlashga har tomonlama ko‘maklashish, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, “Ayollar daftarini” shakllantirish, mazkur daftarga kiritilgan xotin-qizlarning muammolari, ehtiyoj

va manfaatlarini tizimli o‘rganish, tahlil qilish va hal etish, shuningdek, «2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 2021-yil 5-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5020-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil etilib, uning asosiy vazifalari, jamg‘arma ijroiya direksiyasi tuzilmasi hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi belgilab berildi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, kasb-hunar o‘rgatish va bandligini ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta‘minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, BMT Global kun tartibidagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish uchun 2022-yil 7-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 87-sonli farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon bilan 2022 — 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda mazkur dasturni 2022-2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ijara to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berildi, bu esa mehnat zichligi yuqori bo‘lgan qishloq hududlari reestriga kiritilgan hududlarda ayollar bandligini ta‘minlaydi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi, shuningdek, Mingyillik rivojlanish maqsadlari xalqaro platformalarda kelishilgan 180 dan ortiq davlatlar turli sohalarda, jumladan, ta‘lim, bandlik va qaror qabul qilishda xotin-qizlar ishtirokida tengsizlikni bartaraf etish bo‘yicha milliy darajada o‘z majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda.

22. Davlat xizmatida xotin-qizlar uchun qanday kafolatlar mavjud?

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi 788-sonli qonuniga asosan davlat organi davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro‘yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma deb e‘tirof etiladi.

Davlat fuqarolik xizmati - u davlat xizmatining bir turi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta‘minlashga doir haq to‘lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi.

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 562-sonli qonunining 16-moddasiga muvofiq, turli jinsdagi shaxslarning jamiyatda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash orqali davlat tomonidan kafolatlanadi.

Davlat xotin-qizlarning xalqaro miqyosda davlat nomidan vakillik qilish, xalqaro tashkilotlar ishida erkaklar bilan teng sharoitlarda va hech qanday kamsitishsiz ishtirok etish imkoniyatini ta‘minlash uchun tegishli choralar ko‘rmoqda.

Davlat xizmatiga qabul qilishda va mehnat faoliyati davomida jinsi bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xotin-qizlar va erkaklarni davlat xizmatiga qabul qilishdagi tenglik malakaga va kasbiy tayyorgarlikka muvofiq ta‘minlanadi.

Davlat xizmatchilari lavozimlarini egallash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish, ularni lavozimga ko‘tarish ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash orqali amalga oshiriladi.

Davlat xizmatida gender siyosatini amalga oshirishni ta‘minlashda bir jinsdagi xodimlar tomonidan lavozimlarni egallash uchun kvota tizimini belgilashni nazarda tutuvchi xodimlarning lavozimlari toifalarini hisobga olgan holda vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlarni qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi. Kvota vaqtinchalik chora sifatida joriy etilgan va davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklarning mutanosib vakilligiga erishilishi qarab bekor qilinishi mumkin.

Davlat organlarining rahbarlari va tegishli mansabdor shaxslar xotin-qizlar va erkaklarni davlat xizmatiga qabul qilishda teng huquqlilikni ularning qobiliyati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq ta‘minlashi shart.

23. O‘zbekistonda gender tengligiga erishishning uzoq muddatli strategik rejasi mavjudmi?

2021-yil 28-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilingan bo‘lib, mazkur hujjat bilan O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi va uning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangan. Shuningdek, mazkur strategiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun har yili hududlar bo‘yicha alohida-alohida kompleks chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlanishi belgilab qo‘yildi.

Gender strategiyasining asosiy maqsadi — irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta’minlashdan iborat.

Strategiyada hal qilinishi kerak bo‘lgan quyidagi vazifalar belgilangan:

- ayollarning yer va mulkka egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish;
- jamiyat hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida, jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, fan va sportda xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishini ta’minlash;
- xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o‘rniga salbiy munosabatni o‘zgartirish;
- bandlik, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar olish sohasida ayollar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq va imkoniyatlar yaratish;
- xotin-qizlar va erkaklarning butun umri davomida o‘qishga bo‘lgan tashabbuslarini rag‘batlantirish, oilani rejalashtirish va reproduktiv salomatlikni mustahkamlashda ularning tibbiy madaniyatini oshirish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish;
- odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaratish, ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini aniqlash va oldini olish;
- oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a‘zolarining mas’uliyatini oshirish, erta nikohlar, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar, erta tug‘ilish va oilaviy ajrimlarning oldini olish;
- gender jihatlarini byudjet jarayonlariga integratsiya qilish, gender

statistikasini yuritishni takomillashtirish va boshqalar.

Belgilangan vazifalardan kelib chiqib, strategiyada amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, kutilayotgan natijalar va bajarilishini monitoring qilish tartibi belgilab berilgan.

24. Gender jihatlarni hisobga olgan holda byudjetlashtirish qanday amalga oshiriladi?

Genderga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish davlat siyosatining innovatsion vositasi bo‘lib, moliyalashtirishdagi gender tafovutlarni har tomonlama tekshirish va ularni bartaraf etish choralarini belgilash imkonini beradi. Shuningdek, u gender tenglikka erishish va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish bo‘yicha milliy majburiyatlarni bajarish uchun yetarli mablag‘ ajratilishini ta‘minlash uchun hukumat byudjetlarini tahlil qilish orqali gender tarafdorlik va kamsitishlarning oldini oladi³⁵.

Oliy Majlis Senatining 2021-yil 28-maydagi 297-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida gender jihatlarni hisobga olgan holda rejalashtirish va byudjetlashtirish sohasi faoliyati qayd etildi.

Unda quyidagilar ko‘rsatilgan:

- ochiq va shaffof byudjet siyosati orqali ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, manzilli davlat xizmatlarini ko‘rsatish, ularning sifati va samaradorligini oshirish;

Xotin-qizlar va erkaklar uchun ajratilgan resurslar hamda xizmatlarni taqsimlashda oldindan belgilangan maqsadlarga muvofiq davlat mablag‘larini oqilona sarflashga ko‘maklashish;

- gender jihatlarni hisobga olgan holda davlat va mahalliy byudjetlar loyihalarini ishlab chiqish, gender ekspertizasini o‘tkazish, genderga yo‘naltirilgan byudjetlashtirishni rejalashtirish va uni byudjet jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish;

- gender tenglikka erishish, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash uchun davlat va mahalliy byudjetlardan ajratiladigan mablag‘larni tahlil qilish;

- davlat, tarmoq va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari

35 <https://eca.unwomen.org>

loyihalarini moliyalashtirishda gender jihatlarni hisobga olish;

- davlat xizmatchilari uchun gender byudjetini shakllantirish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi ta'lim dasturlarini tayyorlashda gender byudjeti masalalarini hisobga olish;

- xotin-qizlar va erkaklarning oilaviy byudjet mablag'laridan, jamiyat hayotining turli sohalaridagi xizmatlardan (ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniy hordiq chiqarish va boshqalar) teng foydalanish borasidagi iqtisodiy bilimlari, huquqiy ongi va savodxonligini oshirish.

25. Gender masalalarini yoritishda ommaviy axborot vositalari qanday rol o'ynaydi?

Ommaviy axborot vositalari dunyoni tushunish va o'z-o'zini anglash vositalaridir. Zamonaviy jamiyatdagi odam ma'lumotlarning ko'pligidan aziyat chekadi. Biroq axborot sanoati ko'pincha milliy mentalitetga yot va ma'naviy-axloqiy an'analardan ajralgan qadriyatlarni targ'ib qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 439-sonli qonuni 3-moddasiga ko'ra, axborot deganda manbalar va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar tushuniladi. Ommaviy axborot - cheklanmagan miqdordagi odamlar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan ma'lumotlar, bosma, audio, audiovizual va boshqa xabarlar va materiallardir.

"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining (yangi tahriri) 4-moddasiga muvofiq, ommaviy axborot vositalari - ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir.

Ommaviy axborot vositalari yordamida dunyoni idrok etishning har xil turlari shakllanadi, bu esa pirovard natijada ham shaxslarning, ham jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarining qadriyatlarini va turmush tarzidagi nomuvofiqliklarni belgilaydi.

Ommaviy axborot vositalarining shaxsning gender o'ziga xosligini shakllantirishga salbiy ta'siri shundaki, masalan, ayollar uchun professional sohada, erkaklar uchun esa oilaviy sohada o'zini o'zi angliy olmaslikka olib kelishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari xotin-qizlar va erkaklar stereotiplarini targ'ib qilishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. OAVda yoritilgan ayollar va erkaklarning tipologiyasi tomoshabinlar ongiga osonroq, mantiqiy va ixcham tarzda muhrlanadi, ular olingan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ko'p harakat talab qilmaydi, bu odatiy hol sifatida qabul qilinadi.

Gender tengligi inson hayotida davom etadigan o'zgaruvchan jarayon bo'lib, ommaviy axborot vositalari ishonchli asosda jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarni aks ettiradi.

26. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati gender tengligini ta'minlashga ta'sir qiladimi?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 23-iyundagi "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 107-sonli qarorida bu masala demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidagi eng muhim vazifa ekanligi qayd etilgan bo'lib, ochiq fuqarolik jamiyati – bu aholining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va xalq orasida chuqur ildiz otgan mustaqil, barqaror, xilma-xil fuqarolik jamiyati institutlarini yaratish va rivojlantirishdir.

Fuqarolik jamiyati instituti — fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahallalar), partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi va uning mazmunini belgilaydi. Ular jamiyat a'zolarining fuqarolik faolligi, milliy o'zligini anglashi, siyosiy madaniyati va yuksak ma'naviyatini yuksaltirishga ko'maklashish, ularda

o‘z qadr-qimmatini, mustaqil fikrlash, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilish va shakllantirishga qaratilgan.

Fuqarolik jamiyati institutlarining eng muhim faoliyati demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Nodavlat va jamoat tashkilotlarning rivojlangan tuzilmasi jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta‘minlaydi va saqlaydi. Jamiyatdagi o‘z nufuzini rivojlantirish va mustahkamlash jarayonida fuqarolik institutlari davlat va hukumat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining eng muhim vositasiga aylanib bormoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari mustaqil, erkin ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda jamoatchilik fikri va ongini nafaqat ifoda etadi, balki shakllantiradi ham. Insonlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlamasdan turib demokratiya o‘z-o‘zidan yoki tashqi sa‘y-harakatlar bilan rivojlanib qolmaydi. Bu ayniqsa, xalq deputatlari tuman Kengashlaridan tortib, oliy qonun chiqaruvchi organgacha bo‘lgan davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois fuqarolik jamiyati institutlarining gender tengligini ta‘minlash borasidagi faoliyati talabdan ko‘ra ko‘proq, chunki ular jamiyatda tinchlik va totuvlikni qaror toptirishda, barqaror rivojlanish asosida inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

27. Ijtimoiy nazorat deganda nima tushuniladi va u gender tengligini ta‘minlash bilan qanday bog‘liq?

Ayni paytda gender tengligini ta‘minlash huquqiy davlat va demokratik jamiyatning majburiy belgisiga aylangani, tabiiyki, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan tizimli jamoatchilik nazorati o‘rnatilishini nazarda tutadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun 2018-yil 12-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi 474-sonli qonuni qabul qilindi, unga ko‘ra jamoatchilik nazorati O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi. Qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat

tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari ham jamoatchilik nazorati subyekti hisoblanadi.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati quyidagilarga nisbatan jamoatchilik nazorati ostiga olinadi:

- qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, qarorlar, shuningdek, davlat, tarmoq va hududlarni rivojlantirish dasturlarida jamiyat manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olish;

- fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini ta'minlash;

- ularga yuklangan ijtimoiy va jamoat manfaatlariga daxldor vazifalar va funksiyalarni bajarish;

- davlat xizmatlarini ko'rsatish;

- ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshirilayotgan bitimlar, shartnomalar, loyiha va dasturlarni amalga oshirish.

Jamoatchilik nazoratining asosiy tamoyillari qonuniylik, fuqarolar huquq va erkinliklarining ustuvorligi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriyligi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning oshkoraligi va ochiqligi, jamoatchilik nazorati subyektlarining xolisligi, jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchliligi hamda jamoatchilik nazorati subyektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga qonunga xilof holda ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligiga asoslanadi.

Davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar, davlat organlarining ochiq kollegial majlislarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamasi, tinglash, monitoring, jamoatchilik fikrini o'rganish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotlarini eshitish jamoatchilik nazorati shakllaridan iborat.

Qonun hujjatlarida jamoatchilik nazoratining boshqa shakllari ham nazarda tutilishi mumkin.

28. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasida davlat organlaridagi vakolatli shaxslarga qanday vakolatlar berilgan?

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 562-sonli qonunining 14-moddasiga asosan davlat organlaridagi mas‘ul shaxsning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi vakolatlari keltirilgan, xususan, vakolatli shaxs:

- faoliyatning tegishli sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta‘minlash prinsiplariga rioya etilishini ta‘minlaydi;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash holatini tahlil qiladi, gender siyosati amalga oshirilishini ta‘minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar qo‘llanilishining maqsadga muvofiqligini o‘rganadi hamda ularni qo‘llash to‘g‘risida takliflar kiritadi;

- jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga barham berish yuzasidan axborot faoliyatini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda doimiy asosda amalga oshiradi;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasida gender ko‘rsatkichlarini tahlil qiladi;

- jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqadi, tahlil qiladi hamda zarur hollarda ular haqida vakolatli organlarga xabar beradi;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha xodimlarning kasbiy darajasini oshirish choralari ko‘radi;

- jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishning namoyon bo‘lish faktlarini bartaraf etish yuzasidan choralar ko‘radi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-sonli qaroriga bu borada davlat organining vakolatli shaxsi:

- o‘zi vakillik qiladigan davlat organi tomonidan strategiyaning amalga oshirilishi ustidan tizimli monitoring olib borish;
- davlat idoralarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini umumiy muvofiqlashtirishni amalga oshirish;
- davlat organi mas‘uliyat sohasini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan yuzaga keladigan muammoli masalalarni tezkorlik bilan ko‘rib chiqish va hal etish;
- ayollarning jamoadagi rolini oshirish choralarini ko‘rish va hokazo.

29. Reproduktiv huquq nimani anglatadi va uning gender normalari bilan qanday aloqasi bor?

Gender normalarini yaratuvchi va tasdiqlovchi jamiyat ortida qator ijtimoiy institutlar, ya‘ni oila, diniy jamoalar, etnik guruhlar, ommaviy axborot vositalari, davlat organlari va boshqalar turadi. Shulardan oila, din va ommaviy axborot vositalari insonning shakllanishi va rivojlanishida katta ta‘sir kuchiga ega. Ushbu omillarning qoidalari o‘zgarmas deb hisoblanadi. Odatda jamiyat a‘zolariga bunday omillarning sabablarini tushuntirish sifatida madaniy va to‘liq o‘rganilmagan diniy g‘oyalar taklif etiladi. Chunki oxirigidagisi, o‘rnatilgan ijtimoiy tendensiyalarga ko‘ra, shubha ostiga olinmaydi.

Biroq davlatlar, jumladan xotin-qizlarning reproduktiv salomatligi bilan bog‘liq huquqlarni hurmat qilish, himoya qilish va amalga oshirish bo‘yicha xalqaro majburiyatlar doirasida o‘z fuqarolarining jismoniy va ruhiy salomatligining sifatli darajasiga erishishga to‘sqinlik qilmasliklari kerak. Shuning uchun davlatlar ushbu sohani tartibga solish uchun tegishli qonunlarni qabul qiladi.

Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ham 2019-yil, 11-martda 528-sonli “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan.

Mazkur qonunning 3-moddasiga ko‘ra, fuqarolarning reproduktiv salomatligi deganda shaxsning reproduktiv tizimi, funksiyalari, bola tug‘ish qobiliyatini belgilovchi hayotiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holati tushuniladi.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- fuqarolarning reproduktiv salomatligi to‘g‘risida ishonchli va to‘liq ma‘lumot olish;
- homiladorlik, tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi davrda homiladorlik va tug‘ilishni asorat va buzilishlarsiz ta‘minlaydigan faoliyat, tartib va xizmatlar;
- reproduktiv tizim kasalliklarining oldini olish va davolash;
- jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklarning oldini olish va davolash;
- reproduktiv tizim disfunktsiyasining ehtimoliy asoratlari va oqibatlarining oldini olishga yordam beradigan homiladorlikni xavfsiz ravishda sun‘iy to‘xtatish;
- kontratsepsiya usullari haqida ma‘lumot olish va ularga kirish.

Davlat fuqarolarga quyidagilarni kafolatlaydi:

- reproduktiv salomatlikni saqlash va ularning reproduktiv huquqlarini amalga oshirish;
- fuqarolarning mustaqil qarorlar qabul qilishga bo‘lgan reproduktiv huquqini amalga oshirish va boshqalar.

30. Raqamlashtirish gender tengligi holatiga qanday ta‘sir qiladi?

Raqamlashtirish zamonaviy jamiyatning asosiy xususiyati va barqaror rivojlanishga erishishning funksional vositasidir. Raqamli vositalar va texnologiyalarga kirish ijtimoiy hamkorlik uchun yangi istiqbollarni ochadi³⁶.

Raqamli texnologiyalar xotin-qizlarning fuqarolik faolligi, muloqoti va harakatchanligining asosiy omillari hisoblanadi. Raqamli qurilmalardan foydalanish ayollar tashkilotlarining gender muammolarini hal qilishda ta‘sirini oshiradi va global Internetda xotin-qizlar kun tartibiga qarashni shakllantiradi. Raqamli faollik va ijtimoiy tarmoqdagi jamoalar tez orada oflayn faollikning o‘rnini bosa olmaydi, lekin ular ayollarning talablarini qo‘llab-quvvatlashi hamda faollarga jamoalar va harakatlarni tashkil qilishda yordam berishi mumkin³⁷. Raqamli texnologiyalar demokratik jarayonlar, o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘ziga yordam berish va o‘zaro ta‘limda

36 Гендерное равенство в цифровизации. Ключевые вопросы при разработке программ / <https://undp.org>

37 С.Тоор, Цифровой активизм: расширение возможностей женщин, достижение перемен и требование соблюдения прав человека, Open Global Rights, 22 сентября

muhim rol o'ynashini dalillar ham tasdiqlaydi. Sifatli raqamli xizmatlar va ma'lumotlarga kengroq kirish imkoniyati sabab ko'proq xotin-qizlar ushbu jarayonlarda ishtirok etishlari mumkin bo'ladi³⁸.

Mobil internet va onlayn platformalar migrant oilalar va hamjamiyatlarning, shu jumladan qochqinlarning ruhiy xotirjamligiga ta'sir qiladi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, mobil texnologiyalar muhojir ayollarga ijtimoiy izolyatsiya bilan bog'liq stressni kamaytirishga, qarindoshlari bilan aloqada bo'lishga, huquqlarini himoya qilish bo'yicha ma'lumot olishga va muhojirlar hamjamiyatlari ichida ma'lumot almashishga yordam beradi³⁹.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, raqamlashtirish va raqamli vositalar nafaqat xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun ulkan istiqbollarni ochibgina qolmay, balki ayni paytda ayollar xavfsizligi va huquqlariga tahdid solmoqda⁴⁰.

31. Nima uchun adliya tizimida gender tengligi zarur?

Gender tengligi va xilma-xillik bilan bog'liq muammolar to'g'ridan-to'g'ri adliya tizimini va shuningdek, butun jamiyat asosini qamrab oladi. Mustaqil, xolis va gender masalalariga odil sud tizimi inson huquqlarini mustahkamlash, gender tengligiga erishish va odil sudlovni amalga oshirishda gender barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2020 г. / <https://openglobalrights.org>

38 Д. Робертсон и М. Айази. Как женщины используют технологии для продвижения гендерного равенства и мира, Институт Мира США, 15 июля, 2019 г. / <https://usip.org>; Л. Хапп. Аборты в изоляции: Наблюдения за активизмом по вопросам абортов в Аргентине во время COVID-19, Лондонская Школа Экономики, 16 декабря 2020 г. / <https://blogs.lse.ac.uk/gender/2020/12/16/>

39 А. Чиб и др. Использование мобильной связи международными рабочими мигрантами для поиска социальной поддержки в Сингапуре, Школа коммуникаций и журналистики Университета в Анненберге, Том 9, Номер 4, Зима 2013, 19-34 / <https://itidjournal.org>; В. Руге и Б. Усманиева. Могут ли смартфоны расширить возможности трудовых мигрантов? Пример мигрантов из Кыргызстана в России, в Центральном Азиатском Обзоре, том 38, выпуск 2 (2019), 165-180 / <https://tandfonline.com>; Офис Верховного Комиссара ООН по делам Беженцев (УВКБ ООН), Женева, 2016 г., Подключение беженцев: Как Интернет и мобильная связь могут улучшить благосостояние беженцев и трансформировать гуманитарную деятельность / <https://unhcr.org>

40 Европейский Институт Гендерного равенства (ЕИГР), 2017 г., Кибернасилие в отношении женщин и девочек / <https://eige.europa.eu/publications-resources/>

Shu munosabat bilan ushbu sohada xotin-qizlarning yetarli darajada vakilligini va sud tizimida gender tengligini ta'minlashga shart-sharoitlar yaratish uchun ishchi kuchi tarkibi va sud tizimi tuzilmasini baholash zarur⁴¹.

Shu bilan birga, odil sudlovni amalga oshiradigan qonunchilik bazasi gender tengligini ta'minlabgina qolmay, balki xavfsizlikni boshqarishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu qonun ustuvorligini, barcha uchun odil sudlovdan teng foydalanishni, xilma-xillik va inklyuzivlikni, davlat institutlarining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlaydi.

Agar adliya tizimi gender tengligini ta'minlamasa yoki genderga befarq bo'lsa, jamiyatning fundamental demokratik institutlari faoliyatiga putur yetkazadi va oxir-oqibatda tinchlik, xavfsizlik va insoniyat taraqqiyotiga xavf tug'diradi. Ushbu dalil 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibida e'tirof etilgan bo'lib, u gender tengligi yo'lidagi taraqqiyotni amalga oshirish va barqarorlashtirish uchun tuzilmalar va imkoniyatlarni taqdim etadi hamda bu sohada davlatlarni javobgarlikka tortadi⁴².

Gender tengligiga erishish va gender istiqbollarini adliya tizimiga kiritish iqtisodiy, mulkiy va boshqa huquqlarni himoya qilishni hamda zo'ravonlik va kamsitishlarga qarshi kurashishni kafolatlaydi. Umuman olganda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda kuch va manbalarning to'g'ri taqsimlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Gender tengligi shaffofligi uchun adliya tizimi qonunni barcha shaxslarga nisbatan qo'llaydi, jinsi asosida kamsitmaydi va gender tengligiga erishish uchun o'zgarishlarni faol ravishda rag'batlantiradi. Bundan tashqari, u adliya xizmatidan foydalanuvchilar hamda adliya xodimlari uchun teng imkoniyat va mulqot yo'lidagi huquqiy, madaniy va boshqa to'siqlarni olib tashlaydi⁴³.

41 Генеральная ассамблея ООН, Доклад специального докладчика по вопросу о независимости судей и адвокатов, A/HRC/17/30, 29 апреля 2011 г., пункты 45, 47 / <https://osce.org/files/f/documents/5/a/425657.pdf>

42 The 2030 Agenda for Sustainable Development, the Security Sector and Gender Equality: Policy Brief, 2020 / <https://osce.org/files/f/documents/9/f/519897.pdf>

43 Women's International League for Peace and Freedom, does gender equality lead to peace? Fact sheet building on the global study on 1325, New York, WILPF, 2019 / <https://osce.org/files/f/documents/9/f/519897.pdf>

32. Sudyalar uchun gender masalalari bo'yicha o'quv kurslari bormi?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-yanvardagi 4096-sonli "Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Odil sudlov muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot markazi negizida Sudyalar oliy maktabi shakllantirilgan.

Mazkur qaror bilan Sudyalar oliy maktabning ustavi tasdiqlanib, unda zamonaviy talablarni inobatga olgan holda malakali sudyalar va sud xodimlarini tayyorlash va yuqori sifatli odil sudlovga erishish maktabning asosiy maqsadlari etib belgilandi.

Oliy maktabning asosiy vazifalaridan biri tinglovchilarni qonunchilikka kiritilgan joriy o'zgartirish va qo'shimchalar, mahalliy va xorijiy huquqni qo'llash amaliyotining holati va tendensiyalari, norma ijodkorligi faoliyati sohasidagi tajriba bilan tanishtirishdan iboratdir.

Shu munosabat bilan oila va xotin qizlarni tizimli qollab quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2022 — 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022 — 2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasining 14-bandini bajarish maqsadida, ya'ni sudyalar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha malakasini oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bilan kelishilgan holda Oliy maktab sudyalari uchun zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha quyidagi o'quv mavzulari yuzasidan qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Jumladan:

- Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya: xalqaro va xorijiy tajriba. Ayollar uchun odil sudlovni amalga oshirishning xalqaro standartlari;

- O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash bo'yicha islohotlar: ayollarni zulm va zo'rvonlikdan himoya qilish mexanizmlari;

- Oilada ayollarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik shakllari: muammolar va yechimlar;

- Oilaviy zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarning sudga murojaat qilishlari uchun rasmiy va norasmiy to‘siqlar.

Sudyalar oliy maktabida sudyalarning qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida milliy qonunchilikdagi yangiliklarni hisobga olgan holda tizimli asosda mashg‘ulotlar olib borilmoqda.

33. Xotin-qizlarning odil sudlovdan foydalanishiga to‘siqlar mavjudmi?

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlarning adolatga erishish yo‘lidagi to‘siqlar qonunchilik doirasidan ancha uzoqda. Milliy adliya tizimlari inson huquqlarini himoya qilishni kafolatlasa-da, ayollar huquqlarining gender bilan bog‘liq eng keng tarqalgan buzilishlarini hal qilishda har doim ham himoyani ta‘minlay olmaydi. Bu huquqbuzarliklarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular jamiyat an‘analari yoki diniy e‘tiqodiga chuqur kirib boradi va unga inson huquqlarining buzilishi sifatida qaralmaydi. Jamiyatning fikriga ko‘ra, ayol erkak va uning oilasiga bo‘ysunadi hamda jamiyat tomonidan nazorat qilinadi. An‘anaviy yoki diniy qadriyatlar tizimi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning oilada ayollarga nisbatan kamsitish harakatlariga munosabatiga ta‘sir qiladi. Ular oilaviy masalalar deb ataladigan muammolarga “aralashishni” xohlamaydi, vaholanki kamsitishlar va zo‘ravonlikning barcha shakllari oilada sodir bo‘ladi. Ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me‘yorlariga qarshi bo‘lgan ayol ko‘pincha iqtisodiy jihatdan erkakka qaram bo‘lganligi sababli ijtimoiy tajovuz uchrashi, oiladan haydaliishi mumkin.

Jamiyatda asosan rasmiy diniy talablar bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin amalda xotin-qizlarga nisbatan kamsituvchi xulq-atvorning qabul qilinishi qurbonlarning o‘z huquqlarini ichki darajada amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladi, bu esa kamsitish haqidagi xalqaro inson huquqlari organlari hisobotlarning juda kam sonini taqdim etdi.

Shu bois xotin-qizlarning adolatga kirishiga to‘sqinlik qiluvchi huquqiy to‘siqlar mavjud.

Xususan:

- qabul qilingan qonun hujjatlari nomukammalligi va xotin-qizlarning ehtiyojlariga javob bermasligi;

- ichki miqyosda inson huquqlari bo‘yicha individual shartnomalar amalga oshirilmaganligi;

- qonun hujjatlarining hayotning barcha jabhalarida ayollar bilan bog‘liq vaziyatga ta’siri monitoringi yo‘qligi;
- mas’ul shaxslarning inson huquqlari va genderga oid qonunchilikdan yetarli darajada xabardorligi;
- yuridik yordam va sud tizimidan foydalanish qiyinligi⁴⁴.

34. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari qanday kafolatlanadi?

2020-yil 15-oktabrda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi 641-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonun nogironlik bo‘yicha kamsitish tushunchasi keltirilgan bo‘lib, bu nogironlik tufayli har qanday ajratish, istisno qilish, cheklash, maqsadi yoki natijasi boshqa huquqlarini siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik yoki boshqa sohalardagi erkinliklarini tan olish yoki amalga oshirishni rad etishdir.

Qonunga ko‘ra, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishda imkoniyatlar tengligi asosida obyektlar va xizmatlardan foydalanish qulayligi nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlashning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi ular uchun obyektlar hamda xizmatlardan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardan barcha bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini berishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish yo‘li bilan ta’minlanadi.

Qonun nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va imkoniyatlari tengligini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ta’minlash, shuningdek, davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining bu boradagi faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash bilan bog‘liq yo‘nalishlarini belgilaydi. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Yana bir muhim jihati, nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat organlari,
⁴⁴ <https://osce.org/files/f/documents/4/1/94436.pdf> независимости судей и адвокатов, A/HRC/17/30, 29 апреля 2011 г., пункты 45, 47 / <https://osce.org/files/f/documents/5/a/425657.pdf>

tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslariga yakka tartibda yoki birgalikda murojaat qilish huquqidir. Shu munosabat bilan davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslari nogironligi bo'lgan shaxslarning murojaatlar (arizalar, shikoyatlar, takliflar) bilan kirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi shart.

Shunisi e'tiborga loyiqlik, nogironligi bo'lgan shaxslarni individual dasturga muvofiq abilitatsiya qilishning qonun bilan joriy etilgan tartibi mavjud bo'lib, u nogiron (tug'ma) va nogironlarni davolashga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, pedagogik, psixologik va boshqa amaliy choralarini ko'rishni nazarda tutadi va (yoki) rivojlanmagan nuqsoni bor insonlarni jamiyatdagi hayotga moslashish funksiyalarini shakllantiradi.

35. Mehnat munosabatlarida gender kamsitish nima?

Mehnat gender diskriminatsiyasi - bu me'yoriy yondashuv nuqtayi nazaridan jinslar o'rtasidagi kamsitilish sifatida baholanadigan munosabatlar. Boshqacha qilib aytganda, etalon - bu milliy va xalqaro qonun hujjatlarida rasmiylashtirilgan rasmiy gender mafkurasi⁴⁵.

Mehnat munosabatlari sohasida gender tengligi g'oyasining mohiyati jinsidan qat'i nazar, shaxslarning intellektual va jismoniy imkoniyatlari tengligi konsepsiyasiga asoslanadi. Bunday yondashuv ayolning fiziologik xususiyatlarini to'liq e'tiborsiz qoldirishni nazarda tutmaydi, bu ularning ish mas'uliyatini vaqtincha cheklashi mumkin. Shuning uchun jinslarning oqilona tengligi tushunchasi mutlaq darajaga ko'tarilgan tenglikni emas, balki yetarli va har tomonlama tenglikni nazarda tutadi. Mehnat munosabatlarini amalga oshirishda jinslarning oqilona tengligini buzish gender kamsitishda namoyon bo'ladi.

Mehnat munosabatlarida gender kamsitishlari salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keladi. Bularga gender ekspluatatsiyasi va iqtidorli ishchi xotin-qizlarning o'zini o'zi anglashini cheklash kiradi. Ish beruvchining ayol xodimlar tomonidan oilaviy majburiyatlarni bajarishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni amalga oshirish ehtimoli ushbu toifadagi ishchilarga

45 Олимпиева И.Б., Ежова Л.В. Механизм формирования гендерного неравенства в трудовых отношениях // Журнал социологии и социальной антропологии. – 2009. – Т. XII. - № 1. / <https://ecsocman.hse.ru/data/2010/04/28/1214162189/>

bo‘lgan talabni kamaytirish omiliga aylanadi va natijada xotin-qizlar mehnati narxining pasayishi kuzatiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat shartnomasining bir qismi sifatida mehnat egasi o‘z mehnatini tovon puliga sotadi. Yakuniy maqsad sifatida mehnat bitimi shaklida amalga oshiriladigan ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar har bir tomon nafaqa olishini o‘z ichiga oladi. Mehnat to‘siqlarining paydo bo‘lishi uchun sharoit yaratadigan va mehnat raqobatini cheklaydigan norasmiy ijtimoiy va madaniy munosabatlarning mavjudligi mehnat bozorida “gender ekspluatatsiyasi” kabi hodisaning paydo bo‘lishiga olib keladi. Gender ekspluatatsiyasi - bu gender tengsizlik tamoyillariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui bo‘lib, ishchi mehnat resurslarining bir qismini uning manfaatlariga zarar yetkazadigan holda iqtisodiy bo‘lmagan asosda egallashga imkon beradi. Shu bilan birga, “mehnat resursining bir qismini o‘zlashtirish” neytral formulasi xotin-qizlar va erkaklar mehnatiga haq to‘lashda namoyon bo‘ladigan ish haqi tengsizligini anglatadi⁴⁶.

36. Mehnat munosabatlarida nimalar diskriminatsiyaga kirmaydi?

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil 30-apreldan xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta‘minlash hamda ularni muvofiqlashtirish asosida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yangi Mehnat kodeksi kuchga kirdi.

Ushbu ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tamoyillaridan biri mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va kasb-hunar sohasida kamsitishlarni taqiqlashdir.

Ushbu tamoyilning qonunchilikdagi izohiga ko‘ra, har kim mehnat huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda teng imkoniyatlarga ega. Ish jarayoni va kasb faoliyatda kamsitish taqiqlanadi. Diskriminatsiya deganda, jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga bo‘lgan munosabati, e‘tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatleri va

46 Шерстнев А.С., Аникин А.В. Гендерная дискриминация в трудовых отношениях: экономический аспект / <https://cyberleninka.ru/article/n/>

mehnati natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg‘ulotlar sohasida biror-bir bevosita yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita imtiyozlar berish tushuniladi.

Ishning muayyan turiga xos bo‘lgan talablar yoki yuqori ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga alohida g‘amxo‘rlik qilish sababli (oila majburiyatlari bilan mashg‘ullar, homilador ayol, nogiron, voyaga yetmaganlar va boshqa) asosli farqlar, mehnat va kasb sohasidagi istisnolar, imtiyozlar mehnat huquqlarini cheklash kamsitish hisoblanmaydi.

Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solish borasidagi asoslangan farqlar xodimning ish beruvchi bilan mehnat aloqasi xususiyatiga, mehnat faoliyati amalga oshiriladigan joyga, xodim mehnatining shart-sharoitlari va xususiyatiga, ish beruvchining huquqiy maqomiga, ba‘zi tarmoqlar va kasblardagi xodimlar mehnatining o‘ziga xos xususiyatlariga, oilaviy vazifalarning mavjudligiga hamda boshqa obyektiv holatlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mehnat va (yoki) kasb-hunar sohasida o‘zini kamsitishlarga duchor bo‘lgan deb hisoblagan shaxs kamsitish fakti ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilishi, shu jumladan kamsitishni bartaraf etish va unga yetkazilgan moddiy zararni qoplash to‘g‘risida sudga murojaat qilishi va ma‘naviy ziyonni undirishi mumkin.

Shu sababli Mehnat kodeksi turli mezonlar, shu jumladan mehnat munosabatlari subyektlari, xususan, xotin-qizlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va boshqalar bo‘yicha malakaga ega bo‘lgan ayrim toifadagi ishchilarning mehnatini tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutadi.

37. Xotin-qizlarga nisbatan zulm va zo‘ravonlik deganda nima tushuniladi, zo‘ravonlikning qanday shakllari mavjud?

Mamlakatda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni zulm va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoyalanih sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Ushbu qonunda zo‘ravonlik tushunchasi va uning shakllari talqinini keltirilgan bo‘lib, xususan, **zo‘ravonlik** — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish

choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)da ifodalanadi.

Jinsiy zo'ravonlik — bu xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli, shuningdek zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlashdir.

Jismoniy zo'ravonlik esa xotin-qizlarga nisbatan ularning hayoti, sog'lig'i, erkinliklari va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa huquq va erkinliklariga tajovuz qilish, badanga turli darajadagi shikast yetkazish, ularni xavf ostiga qo'yish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko'rsatmaslik, zo'ravonlik xarakteridagi boshqa jinoyatlarni sodir etish, boshqa jismoniy majburlash choralarini qo'llash yoki bunday ta'sir o'tkazishning o'zga choralarini qo'llash bilan tahdid qilishda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy zo'ravonlik xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo'ravonlik shakli bo'lib, bu xotin-qizlarning normal yashash va kamol topishi uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishga bo'lgan huquqini, mulk huquqini, ta'lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat yoki harakatsizlikdir.

Psixologik zo'ravonlik esa ayollarni haqorat qilish, ularga tuhmat va tahdid qilish, sha'ni, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek, ularning irodasini ifoda etishni cheklashga qaratilgan boshqa harakatlar, shu jumladan reproduktiv sohada nazoratni amalga oshirish, xatti-harakatlar (harakatsizlik) bilan ifodalangan zo'ravonlik shaklidir. Bunday holatda jabrlangan xotin-qizlarda o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'onadi va uning ruhiy sog'lig'iga zarar yetadi.

38. Tazyiq va zo‘ravonlik qurboni qanday huquqlarga ega va ular qay tarzda ta‘minlanadi?

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasiga muvofiq, zulm va zo‘ravonlik qurboni quyidagi huquqlarga ega:

- o‘ziga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik yoki ularni amalga oshirish tahdidi to‘g‘risida ariza bilan tegishli vakolatli organ va tashkilotlarga yoki sudga murojaat qilish;

- maxsus markazlarda, shuningdek, bepul telefon liniyasi orqali bepul yuridik maslahatlar, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordamlar olish;

- himoya orderi berish to‘g‘risida iltimosnoma bilan ichki ishlar organlariga murojaat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa bu haqda ularni xabardor qilish;

- unga yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini qoplash hamda ta‘qib va zo‘ravonlik natijasida ma‘naviy ziyonni qoplash talabi bilan sudga murojaat qilish.

Tazyiq va zo‘ravonlik qurboni ta‘qibga uchragan taqdirda ushbu huquqlardan foydalanadi. Davlat tomonidan bunday xatti-harakatlarning oldini olish va jabrlanganlarni himoya qilish bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi.

Tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish – xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni keltirib chiqaradigan sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, jamiyatda ayollarning zo‘ravonlikdan xoli bo‘lish huquqlaridan xabardorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimidir.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish - bu xotin-qizlarning hayoti va sog‘lig‘i uchun yuzaga kelgan xavfni bartaraf etish, ularning xavfsizligini ta‘minlash uchun iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik va boshqa xarakterdagi shoshilinch choralar tizimi bo‘lib, shoshilinch choralar ko‘rishni talab qiladigan holatlar, shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlik qurboniga nisbatan tazyiq o‘tkazgan shaxs tomonidan takroriy noqonuniy xatti-harakatlar sodi etilishining oldini olishdir.

39. Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun javobgarlik bormi?

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi 829-sonli “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni bilan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va Jinoyat kodeksi oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bilan to‘ldirildi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 59-2-moddasiga ko‘ra, xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqni amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog‘lig‘ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha‘ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo‘rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, basharti jinoyat alomatlari, shuningdek ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa huquqbuzarliklar alomatlari mavjud bo‘lmasa.

Ma‘muriy javobgarlikni og‘irlashtiruvchi qilmish - xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsni do‘pposlash, ushbu shaxslarga sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish.

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solish yoki o‘n besh sutkagacha ma‘muriy qamoqqa olish tarzidagi ma‘muriy jazoga tortilishi mumkin.

Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 126-1-moddasida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Xuddi shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin, boshqa jinoyat belgilari bo‘lmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126-1-moddasining uchinchi va undan keyingi qismlarida qilmishni og‘irlashtiruvchi holatlar nazarda tutilgani jinoiy javobgarlikning yuzaga

kelishi uchun ma'muriy oqibatning mavjudligini talab qilmaydi.

Jinoyat kodeksining ushbu moddasiga ko'ra, jazolar bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan etmish baravarigacha miqdorda jarima, majburiy jamoat yoki axloq tuzatish ishlari, cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tarzida qo'llaniladi.

40. Jinsiy zo'ravonlik nimani anglatadi va buning uchun qanday javobgarlik bor?

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 41-1-moddasida shahvoniy shilqimlik qilish, ya'ni shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo'lgan hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirleydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni bir marta qo'pol ravishda yoki bir necha marta sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Ushbu qilmishni sodir etganlik bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi belgilanadi.

Bunday harakatlarni bir yil davomida takror sodir etish aybdorga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olish jazosi tayinlanadi.

Shu bilan birga, xorijiy adabiyotlarda jinsiy zo'ravonlik (harassment) ochiq yoki yashirin jinsiy ohanglardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ta'qib turi sifatida tushuniladi, shu jumladan jinsiy xizmatlar evaziga istalmagan va nomaqbul mukofot va'dalaridir⁴⁷.

Jinsiy zo'ravonlik (harassment)ning shakllarini to'rt turga bo'lish mumkin (shartlar shartli):

hujum – to'g'ridan-to'g'ri jismoniy yoki og'zaki tajovuz (shaxsiy daxlsizlikni buzish, ma'lum epitetlarni qo'llash orqali haqorat qilish va boshqalar);

47 Paludi, Michele A. Difinitions and incidence of academic and workplace sexual harassment // Academic and workplace sexual harassment a resource manual / Michele A. Paludi, Richard B. Barickman. – Albany, NY: SUNY Press, 1991. – P. 2-5. – ISBN

majburlash – shantaj va boshqa tahdidlar orqali jinsiy aloqaga majburlash;
foydalanish – huquqbuzarning jinsiy yoki boshqa instinktlerini (ustunlik tuyg‘usi, jabrlanuvchining azobidan zavqlanish va boshqalar) qondirish, uning irodasiga qarshi zo‘ravonlik jabrlanuvchisini uchinchi shaxslar bilan jabrlanuvchi ishtirokida yoki boshqa shaxslar bilan muhokama qilish;

namoyish qilish – jabrlanuvchining jinoyatchi tomonidan qasddan jinoyatchi yoki boshqa shaxslarning jinsiy aloqaga oid xatti-harakatlarini (jinsiy aloqaga taqlid qilish, pornografik materiallarni yuborish va boshqalar) majburiy tomoshabin sifatida ishlatishda ifodalanadi⁴⁸.

41. Oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari tengmi?

O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 607-sonli qonuni bilan Oila kodeksi tasdiqlanib, 1998-yilning 1-sentyabridan kuchga kirgan.

Ushbu kodeksning vazifalari oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a‘zolarining mas‘ulligi hissi asosida qurish, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik, oila a‘zolari o‘z huquqlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta‘minlashdan iboratdir.

Kodeksga muvofiq, oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayol o‘rtasidagi nikohning ixtiyoriyligi, er-xotinning shaxsiy va mulkiy huquqlari tengligi, oila ichidagi muammolarni o‘zaro kelishuv asosida hal etish tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Bolalarni oilaviy tarbiyalashning ustuvorligi, ularning farovonligi va rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmaganlar va mehnatga layoqatsiz oila a‘zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Shu munosabat bilan barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga ega. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va jamoatchiligiga, lavozimiga va boshqa holatlarga qarab huquqlarni

9780791408308; Dziech, Billie Wright; Weiner, Linda. The Lecherous Professor: Sexual Harassment on Campus. Chicago Illinois: University of Illinois Press, 1990. ISBN 978-0-8070-3100-1; Boland, 2002

48 Харитонов М.М. Понятие сексуального домогательства (харассмента) и механизмы противодействия ему в трудовом праве России / <https://cyberleninka.ru/article>

to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklash, nikohda bevosita yoki bilvosita imtiyozlar o'rnatish hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning oilaviy munosabatlardagi huquqlari faqat qonun asosida hamda oilaning boshqa a'zolari va boshqa fuqarolarning axloqi, sha'ni, qadr-qimmatini, sog'lig'i, huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan darajada cheklanishi mumkin.

Bundan tashqari, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligini ta'minlash maqsadida oila qonunchiligi nikoh tuzish, nikohni tugatish va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibini belgilaydi, oila a'zolari: Oila to'g'risidagi qonunchilik nikoh tuzish, nikohni tugatish va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibini belgilaydi, oila a'zolari: er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o'rtasidagi, oila to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va doirada esa qarindoshlar hamda o'zga shaxslar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga olish shakl va qoidalarini, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibini belgilaydi. Oila to'g'risidagi qonunchilik bilan tartibga solinmagan oila a'zolari o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonunchiligi oilaviy munosabatlarning mohiyatiga zid kelmagan taqdirdagina qo'llaniladi.

Oilaviy munosabatlarni tartibga solishda qonun hujjatlarida tegishli normalar mavjud bo'lmagan taqdirdagina O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tamoyillariga zid bo'lmagan mahalliy urf-odatlar va an'analar qo'llaniladi.

42. Himoya orderi nima?

O'zbekiston Respublikasining 561-sonli "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, **himoya orderi** tazyiq va zo'ravonlik qurboni davlat tomonidan himoya qilishni ta'minlovchi hujjatdir. Ayollarga zulm yoki zo'ravonlik qilgan shaxs(shaxslar guruhi)ga nisbatan ushbu qonunda belgilangan tartibda ta'sir choralari ko'riladi.

Himoya orderi xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini

olish bo'yicha individual chora turlaridan biridir.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha yakka tartibdagi chora-tadbirlar deganda, ayollar huquqlarini himoya qiluvchi tegishli vakolatli organlar va tashkilotlarning xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etishga moyil bo'lgan yoki sodir etgan g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo'lgan shaxslarni aniqlash bilan bog'liq faoliyati tushuniladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha individual chora-tadbirlar muayyan shaxs va uning ijtimoiy muhitining o'ziga xos xususiyatlarini, sharoiti va turmush tarzini, uning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini, jinoyatning ijtimoiy xavfilik darajasini, zo'ravonlik qilishga moyilligini, shuningdek, boshqa omillarni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha individual choralarni qo'llash asoslari quyidagilardir:

- tazyiq va zo'ravonlik qurbonining murojaati;
- jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari;
- vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlik yoki ularni sodir etishga urinish faktlarini bevosita aniqlash;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olingan materiallar.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qiluvchi vakolatli organlar va tashkilotlar agar shunday holatlar aniqlansa, bu haqda darhol tegishli ichki ishlar organlariga xabar berishi shart.

Ichki ishlar organlari tazyiq va zo'ravonlik holatlari to'g'risida og'zaki yoki yozma xabar kelib tushganda ushbu xatti-harakatlarning oldini olish bo'yicha zudlik bilan chora ko'rishlari shart.

Tazyiq va zo'ravonlik qurboniga himoya orderi, zo'ravonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga esa uning nusxasi beriladi.

43. Himoya orderini berish tartibi qanaqa?

Himoya orderini berish O'zbekiston Respublikasining 561-sonli "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-son qarori bilan tasdiqlangan Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to'g'risidagi

nizom bilan tartibga solinadi.

Shunday qilib, himoya orderi ichki ishlar organining mas'ul rahbari tomonidan chiqariladi, u tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxsni himoya orderining shartlari va uni bajarmaslik oqibatlari hamda xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturlaridan o'tish zarurligi haqida xabardor qiladi.

Shaxs himoya orderini olganligi to'g'risidagi hujjatni imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ichki ishlar organining himoya orderini taqdim etuvchi mas'ul xodimi xolislar ishtirokida dalolatnoma tuzadi.

Tegishli hududda zo'ravonlik va zo'ravonlikning individual profilaktikasini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tomonidan ta'qib va zo'ravonlik yoki ularni sodir etish tahdidi fakti aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida himoya orderi beriladi. Order ro'yxatga olingan paytdan boshlab kuchga kiradi va o'ttiz kungacha bo'lgan muddatda amal qiladi.

Tazyiq va zo'ravonlik qurboni hamda tazyiq va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoki ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs ishlayotgan yoki o'qiyotgan bo'lsa, ichki ishlar organining mas'ul shaxsi bir ish kuni ichida jabrlanuvchining ish yoki o'qish joyiga, tazyiq va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxs biror tashkilot rahbari bo'lsa yuqori turuvchi organga ular o'rtasidagi bevosita aloqani taqiqlash haqida taqdimnoma yuboradi.

Tazyiq va zo'ravonlik qurboni ishlayotgan yoki ta'lim olayotgan tashkilot rahbari shikoyat kelib tushganidan keyin uch ish kuni ichida jabrlanuvchi bilan tazyiq va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqani bartaraf etishga qaratilgan choralarni ko'radi.

Agar tahdid haligacha bartaraf etilmagan bo'lsa tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko'ra himoya orderining amal qilish muddati jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytiriladi. Himoya orderi talablarining bajarilishi ustidan nazorat ichki ishlar organi tomonidan amalga oshiriladi.

44. Himoya orderi bilan qanday cheklovlar belgilanadi?

Himoya orderi quyidagi cheklovlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- tazyiq va zo'rvonlikni taqiqlash;
- tazyiq va zo'rvonlik qurbonlari bilan uni sodir etgan shaxs tomonidan aloqa qilishni taqiqlash (ish joylarida va ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'rvonlik qurboni bilan tazyiq va zo'rvonlik sodir etgan shaxs o'rtasidagi bilvosita aloqaga yo'l qo'yiladi);
- jabrlanuvchi va zo'rvonlik qilgan shaxsning bilan bir xonada yolg'iz bo'lishini taqiqlash;
- tazyiq va zo'rvonlik sodir etgan shaxsga jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish, tazyiq va zo'rvonlik qurbonlariga yordam ko'rsatish uchun maxsus markazga joylashtirish xarajatlari, yetkazilgan moddiy va zararni ma'naviy zararni qoplash majburiyatini yuklash;
- tazyiq o'tkazgan va zo'rvonlik sodir etgan shaxsning qurolni (bundan xizmat quroli mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderining amal qilishi yoki unda ko'rsatilgan muddat davrida cheklash yoxud taqiqlash, shuningdek qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini taqiqlash.

Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilishda sud belgilangan cheklashlarga qo'shimcha ravishda quyidagilarni qo'llashga haqli:

- tazyiq o'tkazgan va zo'rvonlik sodir etgan shaxsning muayyan joylarga borishini taqiqlash;
- narkologik kasallikdan ambulatoriya yoki statsionar sharoitlarda davolanish kabi majburiyatlardan birini yoki bir nechtasini tazyiq o'tkazgan va zo'rvonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga yuklash;
- tazyiq o'tkazgan va zo'rvonlik sodir etgan shaxsning jabrlanuvchi yashaydigan uy-joy maydonidan yoki uning bir qismidan foydalanish, jabrlanuvchining ish joyiga yoki u joylashgan boshqa joylarga yaqinlashish huquqini vaqtinchalik cheklash.

Himoya orderining amal qilish muddati uzaytirilsa, u tazyiq va zo'rvonlikni sodir etgan shaxsning xulq-atvorini o'zgartirish uchun tuzatish dasturidan o'tishi shartini o'z ichiga olishi kerak.

Agar himoya orderini berish va amal qilish muddatini uzaytirish

to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish chog'ida Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat belgilari aniqlansa, himoya orderini berish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish bilan bir vaqtda ish materiallari jinoiy javobgarlikka tortish masalasini hal qilish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organga yuboriladi.

45. Himoya orderini sud tomonidan uzaytirish tartibi qanaqa?

Tazyiq va zo'ravonlik yoki ularni sodir etish xavfi bartaraf etilmagan taqdirda, tegishli hududda tazyiq va zo'ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko'ra, bir ish kuni ichida himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish bo'yicha materiallar tayyorlanadi hamda himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma rasmiylashtirilgan holda jabrlanuvchining yashash joyidagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga yuboriladi.

Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma materiallar olingan kundan boshlab yigirma to'rt soat ichida yopiq sud majlisida jabrlanuvchi va tazyiq va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxs ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Advokat arizani sudda ko'rib chiqishda ishtirok etishi mumkin.

Sud majlisiga jabrlanuvchining hamda tazyiq va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoxud uni sodir etishga moyil bo'lgan shaxsning kelishi ichki ishlar organi xodimining nazorati ostida amalga oshiriladi.

Tazyiq va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoki bunday qilishga moyil bo'lgan shaxsning uzrsiz sabablarga ko'ra siz sud majlisiga kelmasligi ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi. Agar ushbu shaxsning kelishi majburiy deb topilsa, sud uni majburan olib kelish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

Ish materiallarini ko'rib chiqib, sudya himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish yoki iltimosnomani qanoatlantirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori e'lon qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va ichki ishlar organlari tomonidan darhol ijro etiladi.

Sudya tazyiq va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsga hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish tartibi va muddatini, shuningdek, himoya orderining talablarini hamda unga rioya qilmaslik oqibatlarini tushuntiradi.

Qarorning nusxasi ichki ishlar organining mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxsiga, jabrlanuvchi va javobgar shaxsga topshiriladi.

Agar ular sud majlisiga kelmasa, qarorning nusxasi 24 soat ichida taraflarga pochta orqali yuboriladi.

Sudning qaroridan norozi taraflar 72 soat ichida apellyatsiya tartibida shikoyat qilishi mumkin.

46. Shaxsga doir ma’lumotlar va ulardan qanday foydalanish mumkin?

O‘zbekiston Respublikasining 547-sonli, 2019-yil 2-iyuldagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonunining maqsadi shaxsga doir ma’lumotlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu qonunning amal qilishi shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish va ularni himoya qilish chog‘ida qo‘llaniladigan ishlov berish vositalaridan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan qat’i nazar yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Qonunga ko‘ra, shaxsga doir ma’lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot.

Shaxsga doir ma’lumotlar subyekti – shaxsga doir ma’lumotlar o‘ziga taalluqli bo‘lgan jismoniy shaxs.

Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish deganda, shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish bo‘yicha bir harakatni yoki harakatlar majmuini amalga oshirish tushuniladi.

Shaxsga doir ma’lumotlar bazasining mulkdori - shaxsga doir ma’lumotlar bazasiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan davlat organi, jismoniy va (yoki) yuridik shaxs.

Muayyan tushunchalarni hisobga olgan holda qonun ushbu ma’lumotlarga muvofiq qayta ishlanishi kerak bo‘lgan prinsiplarni belgilaydi.

Jumladan:

- inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etish;
- shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari va usullarining qonuniyligi;
- shaxsga doir ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi;
- shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi va himoya qilinganligi;
- subyektlar, mulkdorlar va operatorlar huquqlarining tengligi;
- shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligi.

Subyektning rozilgisiz shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga, shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash uchun (irqiy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, siyosiy, diniy e'tiqodlari va boshqalar) yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat shaklida subyektning roziligi talab qilinadi. Har qanday holatda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish, agar ushbu ma'lumotlar xavfsizligining zarur darajasi ta'minlangan bo'lsa, subyekt tomonidan ko'rsatilgan maqsadlarni hisobga olish kerak.

47. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik nimadan iborat?

"Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 547-sonli qonuniga muvofiq, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi uning egasi va operator yoki shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs uchun majburiy hisoblanadi. Subyektning rozilgisiz yoki boshqa qonuniy asos mavjud bo'lmasa, ularni oshkor qilish va tarqatishga yo'l qo'yilmaydi.

Mulkdor va (yoki) operator O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet tarmog'ida ishlov berishda ularning hududda joylashgan texnik vositalar bo'yicha shaxsiy ma'lumotlar bazalarida to'planishi, tizimlashtirilishi va saqlanishini ta'minlashi shart. Shaxsga doir ma'lumotlar bazalari Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi 71-son qarori bilan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarini ro'yxatga olish va ro'yxatdan o'tkazish tartibini tartibga soluvchi Shaxsga

doir ma'lumotlar bazalarining davlat reestri to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Qonun hujjatlariga muvofiq, shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash subyektning roziligi bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46-2-moddasida shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda to'plash, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, qo'shib qo'yish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, o'tkazish, egasizlantirish va yo'q qilish uchun javobgarlik belgilangan. Shuningdek, Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik ham javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Ushbu harakatlarni sodir etganlik uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141-2-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni og'irlashtiradigan bevosita harakat uchun asoslar mavjud bo'lmasa, jinoiy javobgarlik yuzaga keladi.

48. Zo'ravonlik va shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotlarga taqiq bormi?

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi 371-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari belgilab berilgan bo'lib, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi quyidagi tushunchalarga alohida e'tibor qaratdi. Ularning ma'nosini tushunmasdan turib samarali huquqni qo'llashni kafolatlash mumkin emas. Jumladan:

- g‘ayriijtimoiy xulq-atvor — shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi;

- huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs — o‘zining g‘ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo‘lgan jismoniy shaxs;

- huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq-tartibotni saqlash va mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo‘yish, shuningdek, sabablarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan umumiy, maxsus, individual va qurbonlik jinoyatlarining oldini olishning huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi.

Shubhasiz, ko‘pincha jinoyat sodir etishga shafqatsizlik va zo‘ravonlik holatlarini o‘z ichiga olgan ma‘lumotlar turtki bo‘ladi.

Shuning uchun bunday hodisaning oldini olish uchun qonunchilikda ma‘muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Shunday qilib, bo‘linga ko‘ra Kodeksda qo‘llanilgan atamalarning huquqiy ma‘nosini beruvchi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining VIII bandida zo‘ravonlik yoki shafqatsizlikka sig‘inishni targ‘ib qiluvchi mahsulotlar ko‘rib chiqiladi. Zo‘ravonlik yoki shafqatsizlikni qo‘zg‘atuvchi tarixiy, ilmiy, badiiy yoki boshqa madaniy qadriyatlarini aks ettirmaydigan materiallar va narsalar shular jumlasidandir.

Tazyiqni, zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, uni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 189-1-moddasida belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ma‘muriy jazo qo‘llanilgandan keyin xuddi shunday qilmishlar sodir etish Jinoyat kodeksining 130-1-moddasida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

49. Ommaviy axborot vositalari vakillari gender masalalarini yoritishda qanday qonun talablarga amal qilishi kerak?

Ayrim qonun hujjatlarining quyidagi qoidalari ommaviy axborot vositalari faoliyatini professional tashkil etishda qo‘l keladi, deb hisoblaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining 561-sonli “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, tazyiq va zo‘ravonlik qurboniga yordam ko‘rsatgan shaxslarga ma‘lum bo‘lgan barcha shaxsiy ma‘lumotlar shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan himoyalanaadi.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining shaxsiga doir ma‘lumotlari ishonib topshirilgan yoki kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bunday ma‘lumotlarga ega bo‘lgan kishilar shaxsga doir ma‘lumotlarni oshkor qilgudek bo‘lsa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasining 400-I-sonli 1997-yil 24-apreldagi “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi qonunida taqdim etilishi mumkin bo‘lmagan axborotlar belgilangan. Ya‘ni davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar davlat yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni o‘z ichiga olgan ma‘lumotlarni taqdim eta olmaydi. Shu bilan birga, qonun ommaviy axborot vositalari zimmasiga e‘lon qilinayotgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish majburiyatini yuklaydi, buning uchun ular axborot manbasi bilan birgalikda uning to‘g‘riligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasining 400-II-sonli 1997-yil 24-apreldagi “Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunida jurnalist kasbiy faoliyatni amalga oshirish chog‘ida aybsizlik prezumpsiyasi tamoyiliga amal qilishi shartligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining raqamli 2021-yil 28-iyuldagi “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunida esa ommaviy axborot vositalari o‘z xabarlarida muayyan ish bo‘yicha sud muhokamasi natijalarini oldindan baholash yoki sudga har qanday holatda ta‘sir ko‘rsatish huquqiga ega emasligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 829-sonli 2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini

ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni bilan Jinoyat kodeksiga shaxs tanasining va (yoki) jinsiy a‘zolarining yalang‘och holdagi foto- va (yoki) videotasvirini o‘z ichiga olgan axborotni uning roziligisiz tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish yoxud bunday axborotni tarqatish bilan qo‘rqitish, uchun javobgarlikni belgilovchi 141-3-modda kiritildi.

50. Gender va gender tengligi tushunchasi tarixi qanday?

Gender va gender tengligi tushunchasi uzoq va murakkab tarixga ega. Turli madaniy qarashlar, xalqlar erkak va ayollar o‘rtasidagi tenglikni har xil tushunadi.

XIX asrda ayollar harakati an’anaviy gender tamoyillariga qarshi chiqq boshladi. Xotin-qizlar saylash va saylanish huquqi uchun kurashdi, shuningdek, mulk huquqi va ta’lim kabi boshqa sohalarda ham muvaffaqiyatga erishdilar. Tarix gender va gender tengligi haqidagi bir qancha muhim voqealarni eslatadi, xususan, 1792-yilda Meri Uolstounkraft o‘zining “Ayol huquqlari himoyasi” kitobini nashrdan chiqardi⁴⁹.

1848-yilda bo‘lib o‘tgan Seneka sharsharasi konferensiyasi xotin-qizlarning saylov huquqi harakatini boshlagan faollarning birinchi yig‘ilishi hisoblanadi.

1970-yillarda gender tushunchasi faol ayollar tomonidan o‘z huquqlarini ommaviy himoya qilish tufayli keng ma’noga ega bo‘ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1975-yilni “Xalqaro xotin-qizlar yili” deb e’lon qildi va Meksikada ayollarning birinchi Butunjahon konferensiyasini tashkil etildi.

BMTning xotin-qizlar huquqlarini qo‘llab-quvvatlashi tashkilot nizomi qabul qilinishi bilan boshlandi. Nizomning 1-moddasida ta’kidlanganidek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadlari sifatida “Xalqaro hamkorlikka erishish... irqi, jinsi, tili va dinidan qat’i nazar, barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishni rag‘batlantirish va

49 <https://www.britannica.com/biography/Mary-Wollstonecraft>

rivojlantirish” masalasi turadi.

Dastlabki yillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi Ayollar maqomi bo'yicha komissiya faoliyatini faqat gender tengligi va xotin-qizlar holatiga bag'ishlangan asosiy global siyosiy muammolar yechimini hal qilishdan boshladi. Komissiyaning birinchi yutuqlaridan biri Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi loyihasiga gender muvozanatni shakllantirish masalasini kiritish bo'ldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ayollar manfaatini ko'zlab e'lon qilgan "76-85" o'n yilligida "Ayollar rivojlanishda" (WID)⁵⁰xotin-qizlarning milliy iqtisodiyotdagi rolini tan olish va rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollar uchun ovoz berish huquqini rivojlantirish harakatini ilgari surdi.

1980-yillarning oxirida jamiyatda gender tengsizlik va stereotiplar mavjudligi xotin-qizlar va erkaklarning imkoniyatlari hamda hayot sharoitlariga ta'sir qilishini tan olgan holda "Gender va rivojlanish" (GAD)⁵¹ yondashuvi ishlab chiqildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, gender tengligi uchun kurashishda so'nggi asrlarda sezilarli yutuqlarga erishildi.

51. Xalqaro huquqda gender va gender tengligi masalasi qay tarzda ifodalanadi?

Gender tengligi insonning asosiy huquqlaridan biri bo'lib, dunyoda tinchlik, farovonlik va barqaror rivojlanishning muhim asosidir. Shuningdek, 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo barcha davlatlar tomonidan qabul qilingan 17 ta banddan iborat bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish zarur.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar gender tengligini targ'ib qiluvchi bir qancha asosiy hujjatlarni qabul qildi. Ular quyidagi jadvalda taqdim etiladi:

50 Reeves, H., and Baden, S. (2000). Gender and Development: Concepts and Definitions. Brighton: Institute of Development Studies.

51 Lourdes, Benería (2014-11-11). Gender, development, and globalization: economics as if all people mattered. Berik, Günseli, Floro, Maria (Second ed.). New York. ISBN 9780415537483. OCLC 903247621.

<p>Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan.</p>	<p>Har bir inson irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki boshqa maqomidan qat'i nazar, ushbu deklaratsiyada bayon etilgan barcha huquq va erkinliklarga ega.</p>
<p>Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida 1979-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 34/180 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan.</p>	<p>«Ayollarga nisbatan kamsitish» — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi huquqlarning tengligi asosida, ularning oilaviy holatidan qat'i nazar, ayollarning tan olinishi, foydalanishi yoki amalga oshirilishini zaiflashtirish yoki bekor qilishga qaratilgan har qanday farqlash, istisno qilish yoki jinsi bo'yicha cheklash, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik yoki boshqa har qanday sohadagi inson huquqlari va asosiy erkinliklari (1-modda). Ishtirokchi davlatlar xotin-qizlarning qonun oldida erkaklar bilan tengligini tan oladilar (15-modda).</p>
<p>Yevropa Kengashining ayollarga nisbatan zo'ravonlik va oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyasi (Istanbul konvensiyasi) 2011-yil 11-mayda qabul qilingan.</p>	<p>“Gender” deganda ma'lum bir jamiyat tomonidan xotin-qizlar va erkaklar uchun mos deb hisoblaydigan ijtimoiy jihatdan belgilangan rollar, xatti-harakatlar, faoliyat va xususiyatlar tushuniladi (3-modda).</p>
<p>Pekin deklaratsiyasi 1995-yil 4-15-sentyabrda Pekin shahrida bo'lib o'tgan. IV Jahon ayollar konferensiyasi tomonidan qabul qilingan.</p>	<p>Xoti-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish hamda erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikka erishish, ayollar va ularning huquqlarini rivojlantirish yo'lidagi barcha to'siqlarni olib tashlash uchun barcha zarur choralarni ko'rish.</p>

<p>Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish to'g'risidagi deklaratsiya <i>BMT Bosh Assambleyasining 1993- yil 20-dekabrda 48/104 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan.</i></p>	<p>Xotin-qizlar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va boshqa barcha sohalarda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini amalga oshirish va himoya qilishda teng huquqlardan foydalanadilar (3-modda).</p>
<p>Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik deklaratsiyasi <i>BMT Bosh Assambleyasining 2000- yil 8-sentyabrda 55/2 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan.</i></p>	<p>Tenglik. Hech bir inson va hech bir davlat taraqqiyotning afzalliklaridan mahrum bo'lmasligi kerak. Erkaklar va ayollarning huquq hamda imkoniyatlari tengligi kafolatlanishi kerak (6-band).0</p>
<p>BMT xavfsizlik kengashining Ayollar, tinchlik va xavfsizlik to'g'risidagi 1325-sonli rezolyutsiyasi (2000) <i>Birlashgan Millatlar Tashkiloti xavfsizlik kengashi tomonidan 2000- yil 31-oktyabrda o'zining 4213-yig'ilishida qabul qilingan.</i></p>	<p>Qurolli mojarolarning barcha tomonlarini ayollar va qizlarning huquqlari va himoyasiga, ayniqsa, tinch aholiga tegishli xalqaro huquq normalariga to'liq rioya qilishga chaqiradi. Qurolli mojarolarning barcha tomonlarini qurolli to'qnashuvni tashkil etuvchi vaziyatlarda gender zo'ravonlikdan, ayniqsa, zo'rlash va jinsiy zo'ravonlikning boshqa shakllaridan va zo'ravonlikning boshqa barcha shakllaridan ayollar va qizlarni himoya qilish uchun maxsus choralar ko'rishga chaqiradi.</p>
<p>1976-yil 9-fevraldagi 76/207/EEC direktivasi shuningdek, mehnat sharoitlariga nisbatan erkaklar va ayollarga teng munosabatda bo'lish tamoyilini amalga oshirish to'g'risida</p>	<p>Quyidagi qoidalarning maqsadlari uchun teng munosabat tamoyili jinsga qarab, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, xususan, oilaviy yoki oilaviy ahvolga ko'ra kamsitish bo'lmasligi kerakligini anglatadi (2-modda).</p>

Ta'lim kamsitishga kurashish konvensiya <i>1960-yil Birlashgan Tashkilotining bo'yicha tashkiloti bosh konferensiyasining birinchi sessiyasida qabul qilingan.</i>	sohasida qarshi to'g'risidagi <i>14-dekabrda Millatlar Ta'lim, fan va madaniyat masalalari</i>	Ushbu konvensiyada “tahqirlash” (haq-huquqini cheklash) iborasi irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy holati va iqtisodiy holati, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, har qanday cheklash, farqlash yoki imtiyoz imkoniyatlaridan mahrum qilish masalalarini o'z ichiga oladi (1-modda).
--	--	--

Bundan tashqari, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarga a'zo davlatlar, erkaklar va xotin-qizlarning barcha iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanishi uchun teng sharoitlarni ta'minlashi shart.

52. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda ishtirok etuvchi davlatlar qanday majburiyatlarni zimmasiga oladi?

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda ishtirok etuvchi davlatlar ushbu hujjatlarda belgilangan inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha majburiyatlarni zimmasiga oladi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarni qabul qilish davlatlar ushbu huquqlarni tan olishini va ushbu hujjatlarda belgilangan standartlarga rioya qilishini anglatadi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda ishtirok etuvchi davlatlarning asosiy majburiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Inson huquqlarini hurmat qilish majburiyati - davlatlar o'z hududi va yurisdiksiyasi doirasidagi barcha fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishlari shart va bu inson huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni amalga oshirishni taqiqlashni anglatadi.

Inson huquqlarini himoya qilish vazifasi deganda, huquqbuzar kim bo'lishidan qat'i nazar, davlatning inson huquqlari buzilishining oldini olish

va ularga javob berish borasidagi choralari tushuniladi.

Odil sudlovga erishishni kafolatlash. Davlatlar huquqlari buzilgan barcha shaxslarning sud himoyasidan foydalanish imkoniyatini ta'minlash majburiyatini bajaradilar. Bu talab shuningdek, inson huquqlari buzilishi haqidagi shikoyatlarni ko'rib chiqishning samarali mexanizmlarini yaratishni ham o'z ichiga oladi.

Qiynoqlar va shafqatsiz munosabatga qarshi kurash. Davlatlar har qanday shaxsga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan qiynoqlar, shafqatsiz yoki g'ayriinsoniy munosabatlarning oldini olish choralari ko'rish kerak.

Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik tamoyili. Davlatlar jinsi, irqi, millati, tili, dini, siyosiy qarashlari va boshqa xususiyatlarga ko'ra kamsitishni istisno qiladigan barcha shaxslar uchun teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlashi shart.

So'z va fikr erkinligi deganda, davlat tomonidan fikr va axborotning erkin almashinuvi, shu jumladan matbuot erkinligi, axborot olish erkinligini ta'minlovchi vositalar tushuniladi.

Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarga g'amxo'rlik - ta'lim, uy-joy, oziq-ovqat, sog'liqni saqlash va mehnat qilish huquqlarining davlat tomonidan ta'minlanishida ifodalanadi.

1969-yil 23-maydagi "Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasi ishtirokchi davlatlar uchun xalqaro shartnomalarning majburiyatini belgilab berdi. Xususan, "Har bir amaldagi shartnoma uning taraflari uchun majburiydir va ular tomonidan vijdonan bajarilishi kerak" (26-modda), "Tomonlar o'z ichki qonunchiligi qoidalarini majburiyatlarini bajarmaslik uchun istisno sifatida ko'rsatishi mumkin emas" (27-modda), "shartnoma har bir ishtirokchi uchun uning butun hududiga nisbatan majburiydir" (29-modda).

Ishtirokchilar uchun xalqaro shartnomalar majburiyatlari kuchga kirishi alohida tartibga solinadi, ya'ni «shartnoma qoidalari shartnoma kuchga kirgan sanadan oldin sodir bo'lgan har qanday harakat yoki faktga nisbatan shartnoma ishtirokchisiga majburiyat yuklamaydi» (28-modda).

Ushbu shartnomalarga qo'shilgan davlatlar nafaqat umuminsoniy huquqlarni hurmat qilish, balki o'z hududida ularning bajarilishini kafolatlaydigan milliy qonunlar va mexanizmlarni yaratish majburiyatini

zimmasiga oladi.

Inson huquqlari bo'yicha shartnoma organlari yoki mustaqil ekspertlardan tashkil topgan qo'mitalar inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnomalarning bajarilishini nazorat qiladi. Ular ishtirokchi-davlatlar tomonidan taqdim etiladigan davriy hisobotlarni olish va ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lib, unda shartnomalar qoidalari milliy darajada qanday amalga oshirilayotgani batafsil tahlil qilinadi⁵².

Agar ushbu majburiyatlar buzilgan bo'lsa, bu davlatlar xalqaro hamjamiyatning tanqidiy munosabatlariga, savdo yoki moliyaviy yordamni taqiqlash kabi xalqaro sanksiyalarga va xalqaro shartnoma ishtirokchisi uchun boshqa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

53. Xalqaro huquqda gender tengligi hamda milliy urf-odat va an'analar o'rtasidagi munosabatlar haqida nima deyilgan?

Gender tengligi hamda milliy urf-odat va an'analar o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, umuminsoniy huquq hamda madaniy xilma-xillik o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qiladi. Bir qator mamlakatlarda xotin-qizlar yoki erkaklarni kamsituvchi ba'zi milliy an'ana va urf-odatlar mavjud. Misol uchun, ba'zi sharq mamlakatlarida erta turmush qurish, ayollarning harakatlanishini cheklash, kelin o'g'irlash⁵³, majburiy nikoh, meros huquqini buzish an'analari mavjud bo'lib, ayrim urf-odatlar qat'iy gender rollari va stereotiplarini o'rnatadi, xotin-qizlar va erkaklarning rolini kamsitadi. Boshqa tomondan, gender tengligini targ'ib qiluvchi milliy urf-odat va an'analar ham mavjud. Masalan, keksa ayollarni hurmat qilish⁵⁴, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish va diniy marosimlarda ayollarning ishtirok etishiga to'sqinlik qilmaslik.

52 <https://unsdg.un.org/ru/2030-agenda/strengthening-international-human-rights/un-treaty-bodies>

53 Тугельбаева Б., Хамзаева А., Хамзаева С.//Исторические предпосылки и современные причины сохранения дискриминирующих женщин обычаев в Кыргызстане// Вопросы российского и международного права// ISSN: 2222-5129

54 Н.М.Латипова//Роль традиций и обычай в судьбе узбекской женщины//2019// https://www.researchgate.net/publication/336073323_Obycai_i_tradicii_v_zizni_zensiny#fullTextFileContent

Xalqaro huquq umuminsoniy huquqlar tizimini o'z ichiga olib, barcha insonlar erkin va teng huquqli tug'ilishini e'tirof etadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar, xususan, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlar inson huquqlari sohasidagi umumjahon huquqlarini belgilovchi hujjatlardir.

Masalan, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (5/2-modda) shuni ko'rsatadiki, ushbu paktida ishtirok etuvchi biror-bir davlatda qonun, konvensiya, qoida yoki urf-odat sifatida tan olingan yoki mavjud bo'lgan asosiy inson huquqlari, mazkur paktida shu huquqlar tan olinmaydi yoki qisman e'tirof etiladi degan bahona bilan biror-bir tarzda cheklanishi yoki kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

CEDAW konvensiyasi (5-modda) ishtirokchi davlatlardan jinslardan birining past yoki ustunligi g'oyasiga asoslangan noto'g'ri qarashlar va urf-odatlarga chek qo'yish uchun xotin-qizlar va erkaklarning ijtimoiy hamda madaniy xatti-harakatlarini o'zgartirish choralarini ko'rishni talab qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, inson huquqlari konsepsiyasining universalligi to'g'risida uzoq vaqtdan beri bahs-munozaralar mavjud bo'lib, bunday qarashlar oila va gender munosabatlari bilan bog'liq madaniy va diniy me'yorlarning potensial buzilishi sifatida qabul qilingan kelishuvlarga taalluqlidir⁵⁵. Garchi hech qanday an'ana yoki madaniyat genderga asoslangan zo'ravonlikni oqlay olmasa ham, gender tengsizlik hali ham keng tarqalgan va ko'plab jamiyatlarning madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq.

Xalqaro huquq madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va rag'batlantirish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, u hech qanday urf-odat va an'analar umuminsoniy huquqlarga zid bo'lmasligi kerakligini tan oladi. Agar urf-odatlar xotin-qizlar huquqlarining buzilishiga va gender tengsizlikning paydo bo'lishiga olib kelsa, ularni tartibga solish va inson huquqlari bo'yicha xalqaro me'yorlarga moslashtirish kerak.

55 Universality, cultural diversity and cultural rights// <https://www.ohchr.org/en/stories/2018/10/universality-cultural-diversity-and-cultural-rights> //24 October 2018

54. Xalqaro huquq xotin-qizlar huquqlari va gender tengligi tushunchalarini qanday ifodalaydi?

Qonun ustuvorligi barcha huquqiy jarayonlar, institutlar va normalar inson huquqlariga, shu jumladan kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik va qonun oldida tenglik asosiy tamoyillariga mos kelishini talab qiladi. Shunday ekan, inson huquqlari va barcha asosiy erkinliklarni himoya qilish uchun milliy va xalqaro miqyosda qonun ustuvorligini mustahkamlash zarur.

Jins bo‘yicha kamsitish inson huquqlari bo‘yicha ko‘plab shartnomalar, jumladan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktlar bilan taqiqlangan bo‘lib, ularning umumiy 3-moddasiga muvofiq barcha huquqlardan foydalanishda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik nazarda tutiladi.

Shuningdek, Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi CEDAW konvensiyasi gender tengligi va ayollar huquqlarini hurmat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Konvensiya barcha jamiyatlarni xotin-qizlar va erkaklar kamsitilmasdan hamda huquqlari bosilmasdan yashashlari mumkin bo‘lgan adolatli va inklyuziv dunyoni yaratish yo‘lida harakat qilishga undaydi.

BMT xavfsizlik kengashi 2000-yilda Ayollar, tinchlik va xavfsizlik to‘g‘risidagi 1325-sonli rezolyutsiyani qabul qildi, u a‘zo davlatlarni BMTning tinchlik va xavfsizlik bo‘yicha barcha sa‘y-harakatlarida xotin-qizlar ishtirokini va gender tamoyillarini, shu jumladan qarorlar qabul qilish va tinchlik jarayonlarida ayollarning ishtirokini, ta‘lim va xavfsizligini saqlashda gender masalalarini hamda BMT hisobot tizimlarida genderni hisobga olishni kuchaytirishga chaqiradi.

Inson huquqlari bo‘yicha shartnomalarga rioya etilishini nazorat qiluvchi xalqaro tuzilmalar ushbu majburiyatlarni bajarish yo‘lidagi eng muhim qadamlardan biri gender tengligi va ayollarga nisbatan kamsitilmaslik tamoyillariga konstitutsiyaviy yoki boshqa qonunchilik choralarini joriy etish orqali ustuvor va majburiy maqom berilishini ta‘minlash ekanligini qayta-qayta ta‘kidlab keladi.

Muhim talablarning birinchi bosqichi odatda tenglikning to‘liq va muvofiq

kafolatlari hamda kamsitishning taqiqlanishi sifatida tavsiflanishi mumkin⁵⁶. Ularning tuzilishi, albatta, CEDAW konvensiyasining quyidagi qoidalarini o‘z ichiga olishi kerak:

- tenglik kafolati (CEDAW konvensiyasining 2-a-moddasi);
- diskriminatsiyaning aniq va qisqa ta’rifi (CEDAW konvensiyasining 28-sonli umumiy tavsiyasi 31-33-b.);
- davlat va xususiy sohalarida kamsitishlarni to‘liq taqiqlash (CEDAW konvensiyasining 28-sonli umumiy tavsiyasi 17, 31-32-b.);
- jinsiy zo‘ravonlik (CEDAW konvensiyasining 19-sonli umumiy tavsiyasi 7-8-b.);
- sohalararo diskriminatsiyani tan olish (CEDAW konvensiyasining 25-sonli umumiy tavsiyasi, 19-sonli umumiy tavsiyaning 18, 26, 31-bandlari).

Muhim komponentlarning ikkinchi toifasiga gender tengligi va xotin-qizlarga nisbatan kamsitmaslikning aniq huquqiy kafolatlarini ta’minlovchi hamda javobgarlik va huquqbuzarliklarni bartaraf etish uchun amalda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan komponentlar kiradi, jumladan:

- mas’uliyat va nazorat mexanizmlarini aniq taqsimlash (16-sonli umumiy sharhlarning 21, 41-bandlari: Erkaklar va ayollarning barcha iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlardan foydalanishga teng huquqi (Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi paktning 3-moddasi), CEDAW konvensiyasining 28-sonli umumiy tavsiyasi 24, 39-bandlari);
- sanksiyalar va jarimalar (CEDAW konvensiyasining 2-b-moddasi, CEDAW konvensiyasining 28-sonli umumiy tavsiyasi 17, 37- bandlari);
- shikoyatlarni berish va ko‘rib chiqish tartiblari (CEDAW konvensiyasining 2-c-moddasi, CEDAW konvensiyasining 28-sonli umumiy tavsiyasi 17, 32-bandlari).

Demak, gender tengligi inson huquqlari va qadriyatlarining asosini tashkil etadi hamda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish barcha davlatlarning mas’uliyati hisoblanadi.

56 International Human Rights Law and Gender Equality and Non-Discrimination Legislation Requirements and Good Practices Briefing paper // April 2014//URL: <https://www.icj.org/wp-content/uploads/2014/05/GEL-BRIEFING-ELECwhole.pdf>

55. Turli mamlakatlarda gender stereotiplari bir xilmi?

Dunyoning turli mamlakatlarida gender stereotiplari bir xil emas. Madaniyatlarda turli idroklarga yordam beruvchi bir qator omillar mavjud.

Iqtisodiy rivojlanish. Iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan mamlakatlarda ayollarga bolalar tarbiyasi va uy ishlarini bajarish kabi an'anaviy gender rollarini qabul qilish uchun bosim kuchayishi mumkin. Xotin-qizlar hamma joyda duch keladigan stereotiplardan biri - bu "shisha shift" bo'lib, bu ularning martaba yoki ijtimoiy zinapoyaga ko'tarilishiga to'sqinlik qiladigan to'siqdir. Aytaylik xotin-qizlarga muhandislik va texnik sohalar, tadbirkorlik sohalari, erkaklarga esa ta'lim va moda sohasi yarashmaydi qabilidagi stereotiplari.

Tarix va madaniyat. Mamlakatlar gender stereotiplarining paydo bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, patriarxal jamiyatlarda xotin-qizlarga an'anaviy gender rollariga moslashish uchun ko'proq bosim bo'lishi mumkin. Ayollar ko'proq hissiyotli, g'amxo'r va zaif bo'lishi kerak, erkaklar esa hukmron va qat'iy bo'lishi lozim degan ma'lum bir e'tiqod mavjud. Shunday qilib, tarix va madaniyat har ikkala jinsning qarashlariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Din. Din gender stereotiplarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Diniy an'analar xotin-qizlar va erkaklarning jamiyat, oila va ish joyidagi roli haqidagi konservativ g'oyalarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Ammo turli mamlakatlarda o'ziga xos amaliyot va talqinlar mavjud bo'lib, ularga ko'ra ba'zi mamlakatlar tenglik va jinslarga hurmatni, boshqalari esa an'anaviy patriarxal rollarni afzal ko'rishini mumkin. Dinning gender jihatlarini talqin qilish jamiyatda ilgari mavjud bo'lgan gender stereotiplarini aks ettirishi va ayni paytda ularga ta'sir qilishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari. OAV gender voqeliklari haqidagi tasavvurlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar ommaviy axborot vositalari ayollarni faqat onalik yoki bola parvarishiga mas'ul kabi muayyan rollarda tasvirlasa, bu xotin-qizlar uchun yagona maqbul rol ekanligi haqidagi fikrni kuchaytirishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari gender stereotiplariga qarshi kurashishda katta rol o'ynashi mumkin.

____ T.Iverson va F.Rozenblutning ta'kidlashicha⁵⁷, jismoniy kuch unchalik

57 Torben Iversen and Frances Rosenbluth // Gender Socialization: How Bargaining Power Shapes Social Norms and Political Attitudes// August 2005// https://wcfia.harvard.edu/sites/projects.iq.harvard.edu/files/wcfia/files/iversen_gendersocialization.pdf

ahamiyatga ega bo‘lmagan postindustrial iqtisodiyotlarda gender me‘yorlari va munosabatlari tengroqdir, chunki bunday jamiyatlardagi oilalar o‘z qizlarini hayotga tayyorlashda ko‘proq gender-neytral usullar bilan ijtimoiylashuvni tanlaydilar.

An’anaviy dehqonchilik usullarining ta’siri, gender mehnat taqsimoti va gender me‘yorlarining evolyutsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar mavjud. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan jamiyatlarning avlodlari bugungi kunda kamroq darajada gender rollariga ega ekanligi aniqlandi. Yevropa va AQShda yashovchi muhojirlarning farzandlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, qishloq xo‘jaligida omochdan an’anaviy foydalanish merosiga ega bo‘lgan bu odamlar orasida gender roli bo‘yicha tengsiz qarash va stereotiplar namoyon bo‘ladi.

Saudiya Arabistonida xotin-qizlar kam vakillik qiladigan mehnat bozorini o‘rganish⁵⁸ shuni ko‘rsatdiki, erkak o‘z xotini ishlashiga rozi bo‘lishi uchun nafaqat unga bu fikr ma’qul kelishi, balki uning bu xatti-harakati mamlakatdagi boshqa erkaklar tomonidan ma’qullanishi kerak. Bu nafaqat uning yaqinlariga, balki bir hududda yashovchi erkak qo‘shnilariga ham tegishli.

Bundan tashqari, odamlar qanchalik zamonaviy va ilg‘or qarashlarga amal qilsa, gender stereotiplari shuncha tez bartaraf qilinadi.

56. Xalqaro amaliyotda gender stereotiplarining qarorlar qabul qilishdagi ta’siriga misollar bormi?

Darhaqiqat, xalqaro amaliyotda gender tarafkashlikning qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’siri haqida yetarlicha misollar mavjud. Quyida ulardan bir nechtasi tahlil qilamiz.

Ayollar vakilligining yo‘qligi qaror qabul qilish darajasida mahalliydan xalqarogacha barcha darajalarda namoyon bo‘lmoqda. Bu ularning ovozlari ko‘pincha inobatga olinmasligini va ularning nuqtayi nazari e’tiborsiz qolishini anglatadi. Taqqoslash uchun, 1946-yildan hozirgi kungacha BMT

58 Leonardo Bursztyan, Alessandra L. Gonzalez, and David Yanagizawa-Drott // Misperceived Social Norms: Female Labor Force Participation in Saudi Arabia // June 2018// https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3202392

xavfsizlik kengashida atigi 26 nafar ayol doimiy vakillik qilgan⁵⁹.

Qaror qabul qilishda gender stereotiplaridan foydalanish xotin-qizlarning qaror qabul qilish jarayonlaridan chetda qolishiga yoki erkaklarga nisbatan kamroq ishtirok etishiga olib keladi.

Ayollarning ehtiyojarini e'tiborsiz qoldirish xotin-qizlarning ehtiyojarini qondirmaydigan siyosat va qarorlarga olib keladi. Misol uchun, 2008-yilgi moliyaviy inqirozga qarshi ko'rilgan ko'plab siyosiy choralarda xotin-qizlarning alohida ehtiyojlari hisobga olinmadi.

Xalqaro mojaralarda va tinchlikparvarlik harakatlarida xotin-qizlar muzokara va qarorlar qabul qilishda kam ishtirok etadi. Natijada nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish jarayonida ularning manfaatlari e'tibordan chetda qoladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining ish beruvchilar bilan ishlovchi byurosi ko'plab kompaniyalarda ayollar yetakchiligidagi asosiy to'siqlar haqida so'rov o'tkazdi. Natijalar "Ayollar biznes va boshqaruvda" global hisobotida e'lon qilindi⁶⁰. Diskriminatsiya va ongsiz gender tarfakashlik bilan bog'liq xotin-qizlar yetakchiligidagi beshta to'siq aniqlangan. Erkaklar va ayollarning ijtimoiy rollari ikkinchi eng ko'p tilga olingan to'siq edi. Respondentlar menejmentlik erkakning ishi ekanligini ham ta'kidladilar. Erkaklarga xos korporativ madaniyat asosiy to'siqlar orasida uchinchi o'rinni egalladi. Shuningdek, respondentlarning javoblarida ishga qabul qilish va lavozimga ko'tarilish jarayonida xotin-qizlarga ta'sir qiladigan stereotiplar va gender tarfakashliklari ham ta'kidlangan. An'anaga ko'ra, biznes rahbarining roli erkak kishiga xos va ⁶¹erkaklar eng yaxshi menejerlik qiladi deb hisoblanadi.

59 Women at the UN Security Council: a sea change in numbers // 21 october 2022 // <https://www.unwomen.org/en/news-stories/feature-story/2022/10/women-at-the-un-security-council-a-sea-change-in-numbers>

60 Breaking barriers: Unconscious gender bias in the workplace // ACT/EMP Research note // August 2017 // https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_dialogue/---act_emp/documents/publication/wcms_601276.pdf

61 Powell, G.N. and Butterfield, D.A. (2015), "The role of androgyny in leader prototypes over four decades", Gender in Management: An International Journal, Vol. 30 No. 1, pp. 69-86 // https://www.researchgate.net/publication/272365406_The_role_of_androgyny_in_leader_prototypes_over_four_decades

Startaplar va dastlabki bosqichdagi kompaniyalarga venchur kapitalini investitsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar⁶² shuni ko'rsatadiki, venchur kapitalistlar xotin-qizlarga nisbatan ishonchsiz munosabatda bo'lishadi va ayollar ariza berish jarayonida bir qator gender tarafkashlikka duch kelishadi.

Yuqoridagi misollar gender tarafkashlik muhim, ba'zan xalqaro qarorlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, xotin-qizlar uchun tengsizlik va adolatsizlikka olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi.

57. Xalqaro standartlar mentalitetga chuqur singib ketgan stereotiplarni o'zgartira oladimi?

Xalqaro standartlar madaniyat va jamiyatlarimizga chuqur singib ketgan stereotiplarni o'zgartirishda rol o'ynashi mumkin.

Inson huquqlari bo'yicha ikkita xalqaro shartnoma zararli va stereotiplarga oid aniq majburiyatlarni o'z ichiga oladi.

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning (CEDAW) 5-moddasi ishtirokchi-davlatlardan noto'g'ri qarashlarni, urf-odatlarini bartaraf etish maqsadida erkaklar va xotin-qizlarning ijtimoiy hamda madaniy xatti-harakatlarini o'zgartirishga qaratilgan choralarni ko'rishni talab qiladi.

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 8-moddasi 1-bandi (b) ishtirokchi-davlatlarni nogironligi bo'lgan shaxslarga, shu jumladan jinsi va yoshiga asoslangan stereotiplar, noto'g'ri qarashlar va zararli amaliyotlarga qarshi kurashish uchun samarali va tegishli choralarni ko'rishga undaydi.

Bundan tashqari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlar jinsi, irqi, millati, dini va boshqalardan qat'i nazar, barcha insonlarning huquqlarini himoya qiladi.

Stereotiplar madaniyatimiz va jamiyatlarimizga chuqur singib ketganki, bu ularni o'zgartirishni qiyinlashtiradi. Biroq xalqaro standartlar stereotiplar va ularning zararli oqibatlaridan xabardorlikni oshirishda muhim vosita

62 Malmström, M., Johansson, J. and Wincent, J. (2017), "Gender stereotypes and venture support decisions: how governmental venture capitalists socially construct entrepreneurs' potential", *Entrepreneurship Theory and Practice*, Vol. 41 No. 5, pp. 833-860 // <https://journals.sagepub.com/doi/abs/10.1111/etap.12275>

bo‘lib xizmat qiladi. Ular stereotiplarga qarshi samarali kurashish va adolatli jamiyatlarni yaratish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Xalqaro standartlar ildiz otgan stereotiplarni quyidagi yo‘llar bilan o‘zgartirishga yordam beradi.

Stereotiplarni yengish uchun asos bo‘lish va stereotip nima ekanligini aniqlab, ularni tadqiq etish hamda stereotiplarga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish.

Stereotiplarga asoslanmagan siyosat va dasturlarni ishlab chiqish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish orqali **yanada adolatli jamiyatlarni yaratishga hissa qo‘shish**. Misol uchun, Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to‘g‘risidagi konvensiyasi gender tengsizlikni taqiqlaydi va a‘zo mamlakatlardan ish joyidagi kamsitishni bartaraf etish choralari ko‘rishni talab qiladi.

Stereotiplarning salbiy oqibatlari haqida xabardorlikni oshirish, shaxslar, guruhlar va jamiyat uchun mumkin bo‘lgan zarar haqida ma‘lumot berish.

Xalqaro standartlar stereotiplarni yengish uchun asos yaratishi mumkin bo‘lsa-da, ular har doim ham samarali qo‘llanilmaydi.

Shu munosabat bilan stereotiplarni bartaraf qilish uchun:

diskriminatsiya va stereotiplarga qarshi kurashishga qaratilgan keng qamrovli siyosatni yuritish;

noxolis qarashlardan voz kechish, shu jumladan aholining yoshligidan xabardorligini oshirishga qaratilgan ta‘lim dasturlarini amalga oshirish;

turli media kampaniyalarini o‘tkazish, ular yordamida stereotiplarni yengish;

avvalgi salbiy qarashlar qutulish uchun aholi o‘rtasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va shu kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

58. Gender tengligini ta‘minlash tinchlik va xavfsizlikka qanday ta‘sir qiladi?

Gender tengligi tinchlikning asosiy omili bo‘lib, ba‘zida milliy boyluk, demokratiya darajasi yoki diniy o‘ziga xoslikdan ham muhimroqdir. Davlatlar inson huquqlari yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish, gender tengligiga sarmoya kiritish va imkoniyatlarni kengaytirishga mas‘uldir. Gender tengligiga erisha

olmaslik beqarorlik va turli darajadagi nizolar xavfini oshiradi.

Mavjud tengsizliklar ko'pincha mojarolar paytida kuchayib borishi sababli EXHT Birlashgan Millatlar Tashkiloti xavfsizlik kengashining (UNSC) 2000-yildagi Ayollar, tinchlik va xavfsizlik to'g'risidagi 1325-sonli rezolyutsiyasini faol qo'llab-quvvatlashini ta'kidlaydi⁶³. Ushbu tarixiy rezolyutsiya xotin-qizlarning tinchlik va xavfsizlikka erishish hamda mustahkamlashda to'liq ishtirok etishi yo'lidagi to'siqlarni olib tashlashga chaqiradi.

Ayollar, tinchlik va xavfsizlik⁶⁴ bo'yicha topilmalar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish va gender tengligi yanada tinch va barqaror natijalar bilan bog'liq. Shu munosabat bilan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

ayollarga nisbatan zo'rvonlik butun jamiyatning nizolarga qanchalik moyilligining ko'rsatkichidir;

gender tafovuti qanchalik katta bo'lsa, mamlakatning davlatlararo va davlatlar ichidagi mojarolarga qo'shib ketishi hamda ziddiyatli vaziyatlarda birinchi chora sifatida zo'rvonlikdan foydalanish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi;

gender asosidagi zo'rvonlikning yuqori darajasi davlatning xalqaro me'yorlarga rioya qilmasligi bilan bog'liq bo'lib, bu xalqaro tizimda sust xatti-harakatlarga olib keladi.

Boshqacha aytganda, gender tengligi dunyoni barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Xotin-qizlarning tinchlik o'rnatish jarayonlarida faol ishtirok etishi barqaror tartib o'rnatish imkoniyatini oshiradi.

59. Genderga oid qonun ijodkorligi xalqaro amaliyotda qanday rol o'ynaydi?

Genderga oid qonun ijodkorligi xotin-qizlar va erkaklarning turli ehtiyojlari, huquqlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olgan holda

63 Connecting Gender Equality to Peace and Security// <https://www.osce.org/stories/connecting-gender-equality-to-peace-and-security> // 8 March 2017

64 Valerie M. Hudson, Bonnie Ballif-Spanvill, Mary Caprioli, and Chad F. Emmett // Sex and World Peace // <https://cup.columbia.edu/book/sex-and-world-peace/9780231131827>

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda qabul qilishning uzluksiz jarayonidir.

Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW), Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi, Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) va boshqa hujjatlar talablari gender masalalarini hisobga olgan holda qonun ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Harakatlar platformasida belgilangan barcha 12 ta muhim sohadagi taraqqiyotni ta'minlovchi mamlakatlar huquqiy islohoti tarmoqlararo ustuvorlikka ega edi.

2020-yilda Harakatlar platformasi qabul qilinganining 25-yilligi munosabati bilan u qayta ko'rib chiqildi. Natijada Ayollar maqomi bo'yicha komissiya tomonidan Ayollar maqomi bo'yicha IV Jahon konferensiyasining 25-yilligiga bag'ishlangan Siyosiy deklaratsiya qabul qilindi⁶⁵. Deklaratsiyaga a'zo davlatlar «barcha kamsituvchi qonunlarni bekor qilish, qonunlar hamda dasturlar barcha xotin-qizlar uchun manfaatli bo'lishini ta'minlash va ular to'liq hamda samarali amalga oshirilishini va ularning samaradorligi tizimli ravishda baholanishini ta'minlash bo'yicha aniq majburiyatlarni oladi» (12-band). Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM) 5.1.1-indikator "Gender tengligi va kamsitmaslikni rag'batlantirish, ta'minlash va monitoring qilish uchun huquqiy va me'yoriy bazaning mavjudligi"⁶⁶ni o'lcaydi.

Qayd etish joizki, 1970-2022-yillarda dunyoda gender tengligini oshirish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi, umuman olganda, mamlakatlarda xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta'minlovchi 2000 dan ortiq qonun qabul qilindi⁶⁷. Biroq faqat 14 ta davlat gender tengligiga erishgan.

65 Политическая декларация по случаю двадцать пятой годовщины четвертой всемирной конференции по положению женщин” <https://www.unwomen.org/sites/default/files/Headquarters/Attachments/Sections/CSW/64/CSW64-Declaration-RU-Fin-WEB.pdf>

66 Система глобальных показателей достижения целей в области устойчивого развития и выполнения задач Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года. С.8 // https://unstats.un.org/sdgs/indicators/Global%20Indicator%20Framework%20after%20refinement_Rus.pdf

67 Группа Всемирного банка, «Женщины, бизнес и закон 2023» // ISBN (electronic): 978-1-4648-1945-2// <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/b60c615b-09e7-46e4-84c1-bd5f4ab88903/content>

Qator mamlakatlar gender va gender masalalariga yondashuvchan qonunchilikni yaratishda muvaffaqiyatga erishdi. Bunday mamlakatlarga Ruandani misol qilib keltirish mumkin⁶⁸, unda gender tengligiga erishish, gender asosidagi zo‘ravonlikka qarshi kurashish va xotin-qizlarning meros huquqi to‘g‘risidagi qonun mavjud. Ruanda parlamentidagi o‘rinlarning 61,3 foizini (2022)⁶⁹ ayollar egallaydi. Hindistonda ham xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirish bo‘yicha qonunchilik choralari ko‘rilmoqda, xususan, teng ish va jinsiy zo‘ravonlik uchun teng haq to‘lash hamda hindlarning merosi to‘g‘risidagi qonunlar⁷⁰.

Kongo Demokratik Respublikasi, Hindiston, Keniya, San-Tome va Prinsipi, Janubiy Afrika, Togo, Efiopiya va Birlashgan Arab Amirliklarida gender tengligiga erishishga qaratilgan tarixiy-huquqiy islohotlar misollari shuni ko‘rsatadiki, xalqaro-huquqiy vakolatlar, xalqaro hamkorlarning texnik yordami va boshqalar muvaffaqiyatli islohotlarni rag‘batlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi omil hisoblanadi⁷¹.

Moody’s Analytics hisobotiga ko‘ra⁷², ishchi kuchi ishtiroki va boshqaruvidagi gender farqini bartaraf etish uchun global iqtisodiyot yillik o‘sishi taxminan 7 trillion dollarni tashkil etadi. Shu sabablarga ko‘ra parlament a‘zolari ichki qonunchilik orqali teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlashlari kerak. Bu ayniqsa, COVID-19 pandemiyasidan keyin muhim ahamiyatga ega, chunki hukumatlar va parlamentlar iqtisodiyotni tiklashga qaratilgan huquqiy, siyosiy chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

68 Женщины в политике: Руанда лидирует в гендерном паритете// <https://www.rwandainsingapore.gov.rw/info/info-details/women-in-politics-rwanda-leads-way-in-gender-parity>

69 <https://genderdata.worldbank.org/indicators/sg-gen-parl-zs>

70 Deininger, Klaus, Songqing Jin, Hari K. Nagarajan, and Fang Xia. 2019. “Inheritance Law Reform, Empowerment, and Human Capital Accumulation: Second-Generation Effects from India.” *Journal of Development Studies* 55 (12): 2549–71.

71 Группа Всемирного банка, «Женщины, бизнес и закон 2023» // ISBN (electronic): 978-1-4648-1945-2// P.6. <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/b60c615b-09e7-46e4-84c1-bd5f4ab88903/content>

72 Close the Gender Gap to Unlock Productivity Gains. March 2023. P.6 // <https://www.moodyanalytics.com/-/media/article/2023/close-the-gender-gap-to-unlock-productivity-gains.pdf>

60. Xalqaro hamjamiyatda gender ajratish statistikasidan qanday foydalaniladi?

Jins, yosh va nogironlik bo'yicha ajratilgan ma'lumotlar (SADDD) erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi ijtimoiy hamda iqtisodiy farqlarni o'lchashga mo'ljallangan⁷³. Ushbu ma'lumotlar juda muhim, chunki u ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarning muvaffaqiyatini baholash, ularning har bir guruhga qanchalik foyda keltirishini aniqlash va turli guruhlarga ta'siridagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. SADDD bo'yicha ma'lumotlarni to'plash gender tahlilini o'tkazish uchun zaruriy shartdir.

Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha eng muvaffaqiyatli dasturlar jins va yosh bo'yicha farqlarni hisobga oladi. Gender bo'yicha ajratilgan statistik ma'lumotlar nafaqat ofatlarning bevosita va bilvosita ta'siri hamda yo'qotishlarini o'lchash, balki gender xavfini hisoblash uchun ham muhimdir. Gender ma'lumotlari mavjud stereotiplarni va ularni keltirib chiqaradigan ijtimoiy hamda madaniy omillarni hisobga oladi.

Shunday qilib, gender ma'lumotlariga quyidagilar kiradi:

to'plangan va jinsi bo'yicha ajratilgan ma'lumotlar;

gender masalalari bo'yicha sifatli ma'lumotlar (masalan, gender rollari, munosabatlar, tengsizlik sabablari, ayollar ishtiroki va yetakchilik);

aholi hayotining barcha jabhalarini aks ettiruvchi ma'lumotlar.

Jinslar bo'yicha ajratilgan ma'lumotlarni to'plash muhimligiga qaramay ko'pgina mamlakatlar (jumladan O'zbekiston) Sendai Monitoring Framework doirasida hatto o'limlar, jarohatlar, to'g'ridan-to'g'ri yo'qotishlar va tabiiy ofatlardan yetkazilgan zararlar to'g'risidagi miqdoriy bo'lingan ma'lumotlarni taqdim etmayapti (SFM)⁷⁴.

Global SDG indikator doirasi ma'lumotlarni taqsimlashning asosiy tamoyilini o'z ichiga oladi: «Barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlari, agar kerak bo'lsa, rasmiy statistikaning asosiy tamoyillariga muvofiq daromad, jins, yosh, irqiy, etnik kelib chiqishi, migratsiya holati, nogironlik

73 Gender data // <https://wrд.unwomen.org/practice/topics/data>

74 (Рамочная программа Сендай по сокращению рисков бедствий на период 2015- 2030) // <https://sendaimonitor.undrr.org/>

va geografik joylashuvi yoki boshqa xususiyatlar bo'yicha ajratilishi kerak»⁷⁵.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish uchun gender bo'yicha ajratilgan statistik ma'lumotlar ustuvorliklarini belgilash, tadbirlarni rejalashtirish va ta'sirni baholash, gender maqsadlariga erishishni kuzatish, tengsizlik va istisno qilingan ayollarga urg'u berish, advokatlik va xotin-qizlar huquqlarini amalga oshirish uchun javobgarlik zarurdir.

61. Qanday xalqaro gender ko'rsatkichlari mavjud?

Indikatorlar - bu faktlar, raqamlar, fikrlar yoki tasavvurlar ko'rinishidagi o'zgarishlarni baholash mumkin bo'lgan mezonlar yoki ko'rsatkichlar⁷⁶. Ular muayyan sharoitlardagi o'zgarishlarni yoki ma'lum maqsadlarga erishishni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Gender ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarni to'playdigan va ushbu sohada tadqiqot olib boradigan tashkilotlar va dasturlar mavjud.

Mingyillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals, MDGs)⁷⁷ kabi bir qator xalqaro ko'rsatkichlar mavjud. Gender tengligi va xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish Mingyillik rivojlanish maqsadlarining har biriga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Gender farqi indeksi (Gender Gap Index, GGI)⁷⁸ gender tengligining hozirgi holati va evolyutsiyasini to'rtta asosiy o'lchov (iqtisodiy ishtirok va imkoniyatlar, ta'lim darajasi, sog'liq va omon qolish, siyosiy huquqlar) bo'yicha baholaydi va ularni gender tenglik darajasida yillik hisobotida aks ettiradi⁷⁹.

Xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari (Gender

75 Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН. 68/261. Основопологающие принципы официальной статистики // <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N13/455/13/PDF/N1345513.pdf?OpenElement>

76 Imp-Act (2005) „Choosing and Using Indicators for Effective Social Performance Management“, Imp-Act Practice Notes No. 5, Brighton: IDS http://www.ids.ac.uk/impact/publications/practice_notes/PN5_Indicators.pdf

77 Цели развития тысячелетия (MDGs)// <https://www.un.org/millenniumgoals/>

78 <https://www.weforum.org/reports/global-gender-gap-report-2022/>

79 Global Gender Gap Report 2023 // https://www3.weforum.org/docs/WEF_GGGR_2023.pdf

Empowerment Measure, GEM)⁸⁰ iqtisodiy va siyosiy hokimiyatda ayollarning vakilligini o'lchashga qaratilgan. Unda siyosiy vakillik, iqtisoddagi kasbiy va boshqaruv lavozimidagi gender farqlari, shuningdek, daromadlardagi gender farqlari hisobga olinadi.

Gender bilan bog'liq rivojlanish indeksi (GDI)⁸¹ Inson taraqqiyoti indeksini (ITI) gender tengsizlikni uch o'lchovda hisobga olish uchun moslashtiradi, ya'ni umr ko'rish davomiyligi, ta'lim va daromad. Shuni ta'kidlash kerakki, Inson taraqqiyoti indeksi gender tengsizlikning o'ziga xos ko'rsatkichi emas.

Kompozit indekslar⁸² GDI va GEMni qisman to'ldiradi va kengaytiradi. Masalan, Social Watch⁸³ tomonidan ishlab chiqilgan Gender Equity Index (GEI) GDI va GEM ko'rsatkichlarini birlashtiradi. Ushbu ko'rsatkichlar xotin-qizlarning iqtisodiyotdagi ishtirokini aniqlash uchun juda muhimdir, chunki ayollar mehnatining muhim qismi norasmiy sektorga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, gender ko'rsatkichlari turli sohalarda xotin-qizlar va erkaklarning nisbiy pozitsiyasini o'lchashga yordam beradi, masalan, resurslardan foydalanish, imkoniyatlarni kengaytirish va gender tengligiga munosabat. Bundan tashqari, ular jamiyatdagi gender zo'ravonlik va salbiy gender stereotiplaridan himoyalanganlik darajasini baholash uchun ishlatilishi mumkin.

Xususan, Jahon banki gender ma'lumotlari genderdata.worldbank.org⁸⁴ interaktiv portalni shakllantirmoqda. Unda xalqaro tashkilotlar va ularning agentliklari, xalqaro reytinglar va boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan gender ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar to'planadi. Portalda salomatlik, ijtimoiy normalar va qarorlar qabul qilish, axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati, gender asosidagi zo'ravonlik va boshqa ko'plab ko'rsatkichlarning barcha ma'lumotlari jamlangan.

80 <https://www.who.int/data/gho/indicator-metadata-registry/imr-details/3671>

81 Индекс гендерного развития (GDI) // <https://hdr.undp.org/gender-development-index#/indicies/GDI>

82 Composite Indicators – A review // <https://www.oecd.org/sti/ind/29398640.pdf> // 3-4 p.

83 Gender equity index (GEI) // <https://www.socialwatch.org/taxonomy/term/527>

84 Gender Data Portal // <https://genderdata.worldbank.org/indicators/?source=International%20Labour%20Organization%20%28ILO%29>

62. Xalqaro huquqda vaqtinchalik maxsus choralarga qanday talablar qo'yiladi?

CEDAW konvensiyasining 4-moddasiga ko'ra "Erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida amalda tenglikka erishishni tezlashtirishga qaratilgan vaqtinchalik maxsus choralar huquqlarni kamsitish deb hisoblanmaydi". Bu shuni anglatadiki, parlamentlarda xotin-qizlar uchun o'rinlar kvotasi, ayollarga subsidiyalar berish yoki boshqa choralar inson huquqlari bo'yicha xalqaro qoidalar bilan ruxsat etilgan. Biroq bu choralar teng bo'lmagan yoki tabaqalashtirilgan standartlarni saqlashga olib kelmasligi va teng munosabatlar maqsadlariga erishilganda bu choralar bekor qilinishi kerak.

25-sonli umumiy tavsiyaning 8-bandida aytilishicha⁸⁵, "Konvensiya qoidalariga muvofiq, xotin-qizlarga teng boshlang'ich imkoniyat va teng natijalarga erishish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali vakolat berilishi kerak... Ba'zi sharoitlarda bunday farqlarni bartaraf etish ayollar va erkaklarga nisbatan bir xil bo'lmagan munosabatni talab qiladi".

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish qo'mitasi ishtirokchi-davlatlar CEDAW konvensiyasining 6-16-moddalariga muvofiq, agar bunday choralar ayollarning haqiqiy yoki asosini belgilovchi tengligiga erishilishini tezlashtirish uchun zarur va maqsadga muvofiq deb tasdiqlansa, vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlarni qabul qilish va amalga oshirish majburiyatini oladi, deb hisoblaydi (25-sonli Umumiy tavsiyaning 2-4-bandi). BMTning Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish qo'mitasi ishtirokchi-davlatlarga davlat bandligi va ta'lim sohalarini qamrab olish uchun ushbu choralarni milliy hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqilgan yoki qabul qilingan qoidalarga asoslanishini tavsiya qiladi.

Bundan tashqari, vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlar bilan bog'liq harakatlar rejalari milliy kontekstni va ular hal qilish uchun mo'ljallangan muammoning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi, amalga oshirilishi va baholanishi kerak.

85 Общая рекомендация № 25 по пункту 1 статьи 4 Конвенции CEDAW // [https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/recommendations/General%20recommendation%2025%20\(Russian\).pdf](https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/recommendations/General%20recommendation%2025%20(Russian).pdf)

Shuningdek, ishtirokchi-davlatlar kredit va qarzlarni, sport, madaniyat, dam olish va huquqiy ta'lim sohalarida vaqtinchalik maxsus choralarni ko'rishlari kerak. Zarur hollarda bunday chora-tadbirlar kamsitishning turli shakllariga duch kelayotgan xotin-qizlarning, shu jumladan qishloq ayollarining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Vaqtinchalik maxsus chorani qo'llash muddati vaqt bilan emas, balki uning natijasi bilan belgilanishi kerak. Vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlar ko'zlangan natijalarga erishilgandan keyin to'xtatilishi lozim va ular ma'lum vaqt davomida birlashtirilishi va saqlanishi mumkin (25-sonli umumiy tavsiyaning 20-bandi).

63. Xalqaro huquqda diskriminatsiyaning ta'rifi bormi?

Ha, xalqaro huquqda diskriminatsiyaning ta'rifi bor. Biroq yagona ta'rif yo'q, chunki kamsitish tushunchasi muayyan huquq sohasi doirasida tartibga solinadi. Quyidagi xalqaro hujjatlar diskriminatsiyaning ta'riflarini beradi yoki uni turli kontekstlarda muhokama qiladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (IHUD): "...Barcha shaxslar har qanday diskriminatsiyadan va bunday kamsitishga undashdan teng himoyalani huquqiga ega" (7-modda). Deklaratsiyada diskriminatsiya «irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulki, tug'ilishi yoki boshqa holati kabi farqlar» deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rif ko'plab boshqa xalqaro shartnomalarga kiritilgan.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (FSHXP): "...har qanday diskriminatsiya qonun bilan taqiqlanadi va qonun barcha shaxslarning irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki har qanday asosda kamsitishdan teng va samarali himoyalani kafolatlaydi" (26-modda).

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW): "... xotin-qizlarning kamsitilishi" tushunchasi, har qanday farq jinsiy belgilariga ko'ra istisno qilish, cheklash, tan olmaslik, yo'qqa chiqarish yoki bo'shashtirishga yo'naltirilgan, ayollar foydalanayotgan yoki amalga oshirayotgan har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy va boshqa sohada oilaviy sharoitidan qati nazar erkak va ayollarga tenglik asosida inson huquqlari va asosiy erkinliklar berilishini anglatadi.(1-modda).

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (BHK): “Ishtirokchi-davlatlar irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, bolaning sog‘lig‘i va tug‘ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vakillari yoki boshqa holatlardan qat‘i nazar, o‘z yurisdiksiyasidagi har bir bolaga ushbu konvensiyada nazarda tutilgan barcha huquqlarni hurmat qiladi va ta‘minlaydi” (2-modda).

Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (NHK): “nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitish” — maqsadi yoki natijasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaro yoki har qanday boshqa sohada boshqalar bilan teng holda insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarining e‘tirof etilishi yoki amalga oshirilishini kamsitadigan yoki rad etadigan har qanday tafovut, istisno yoki cheklashni anglatadi. U kamsitishning barcha shakllarini, shu jumladan oqilona moslashtirishdan voz kechishni qamrab oladi (2-modda).

Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to‘g‘risidagi konvensiya:

“Diskriminatsiya” atamasi irqi, rangi, jinsi, dini, siyosiy qarashlari, xorijda tug‘ilishi yoki ijtimoiy kelib chiqishi asosida amalga oshiriladigan, mehnat yoki kasbda imkoniyat yoki muomala tengligini inkor qilish yoki buzishga olib keladigan har qanday farqni, istisno yoki imtiyozni; manfaatdor a‘zo tomonidan ish beruvchilar va ishchilarning vakillik tashkilotlari bilan kelishilgan holda, agar mavjud bo‘lsa, ish va kasb sohasidagi muomalani o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, ma‘lum bir ish uchun uning o‘ziga xos talablariga asoslangan har qanday farqlash, istisno qilish yoki afzal ko‘rish diskriminatsiya deb hisoblanmaydi (1-modda).

Irqi kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya (IKBSHBBK): “Irqi diskriminatsiya” maqsadi yoki ta‘siri siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki jamiyat hayotining boshqa sohalarida inson huquqlari va asosiy erkinliklarining tan olinishi, ulardan foydalanish yoki teng ravishda amalga oshirilishini rad qilish yoki kamaytirish bo‘lgan, irqi, rangi, kelib chiqishi, milliy yoki etnik kelib chiqishiga asoslangan har qanday farqlash, istisno qilish, cheklash yoki afzal ko‘rishni anglatadi (1/1-modda).

Barcha mehnat muhojirlari va ular oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya: "... jinsi, irqi, rangi, tili, dini yoki e'tiqodi, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, fuqaroligi, yoshi, iqtisodiy, mulkiy, oilaviy va sinfiy mavqeyiga nisbatan yoki boshqa asosda hech qanday farqsiz" (7-modda).

Shuni ham bilish kerakki, kamsitishning ta'rifi mazmuniga qarab farq qilishi va muayyan huquqiy sohalarga taalluqli turli milliy qonunlar va xalqaro shartnomalarda batafsilroq tushuntirilishi mumkin.

64. Gender kamsitish nimaligi yoki nima emasligi qanday aniqlanadi?

Jins bo'yicha kamsitish, shuningdek, gender diskriminatsiyasi sifatida ham tilga olinadigan, odamlarga jinsi yoki o'ziga xosligi sababli boshqacha yoki adolatsiz munosabatda bo'lishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, turli jins vakillariga imtiyozli huquqlar yoki imtiyozlar berish orqali tenglikka erishish uchun qo'llaniladigan choralar kamsitish deb hisoblanmaydi. Ushbu choralar uchun ko'pincha "ijobiy diskriminatsiya" yoki "ijobiy harakatlar" atamaları qo'llaniladi.

CEDAW konvensiyasi ishtirokchi-davlatlar tomonidan erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida tenglikni o'rnatishga qaratilgan vaqtinchalik maxsus choralar, shu jumladan onalikni himoya qilishga qaratilgan maxsus choralarni qabul qilish kamsitish hisoblanmasligini belgilaydi (4-modda).

Bunday choralar u yoki bu jinsning fiziologik xususiyatlari, mehnat xavfsizligi va reproduktiv salomatligi bilan bog'liq farqlarni o'rnatishi mumkin. Shunday qilib, tibbiy davolanishning ayrim turlari ma'lum bir jinsga xosdir va tibbiy zarurat bilan oqlanishi mumkin.

Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi konvensiya (111-sonli konvensiya) "bu ishning o'ziga xos talablaridan kelib chiqqan holda, ma'lum bir ishga nisbatan har qanday farqlash, yo'l qoymaslik yoki ustun qoyish" kamsitish deb hisoblamaydi (1(2)-modda).

Misol uchun, kompaniyaning rahbarlik lavozimlarida ayollar soni bo'yicha ayniqsa STEM⁸⁶ sohalarida maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash yoki

86 Positive Action and Positive Discrimination: What can your company do to lawfully encourage more female applicants? // <https://www.stemwomen.com/positive-action-vs-positive-discrimination-what-can-your-company-do-to-lawfully-encourage-more-female-applicants>

murabbiylik va o'qitish dasturlarini o'rnatish orqali rahbarlik lavozimlarida ayollar sonini ko'paytirishga qaratilgan choralari kamsitish hisoblanmaydi., Shuni ta'kidlash kerakki, ishga qabul qilishda boshqa jinsdagi malakaliroq nomzodni tanlash yoki og'ir yuk ko'tarishni talab qiladigan ishga hatto ayol ham bu vazifani bajara olsa ham, erkakni yollash, kamsitish emasdir.

Mehnat yoki ijtimoiy dasturlar, agar ular gender tengligini targ'ib qiluvchi mamlakat qonunlari va siyosatiga mos kelsa, er-xotinlardan biriga kamsitish hisoblanmasdan imtiyoz yoki nafaqalar berilishi mumkin.

Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi konvensiya turli jinsdagi o'quvchilar uchun alohida ta'lim tizimlari yoki ta'lim muassasalarini yaratish yoki qo'llab-quvvatlashni kamsitish deb hisoblamaydi va ushbu tizimlar yoki muassasalar ta'lim olishdan teng foydalanishni ta'minlansa, maqbul deb hisoblanadi (2-modda).

Turli xil kiyinish qoidalari yoki uniformalarni o'rnatish, agar bunday farqlar professional talablar, xavfsizlik yoki diniy marosimlar kabi aniq va asosli sabablarga asoslangan bo'lsa, kamsitish hisoblanmasligi kerak. Masalan, erkaklar va ayollar uchun turli xil harbiy liboslar gender kamsitishni tashkil etmaydi.

Sport yoki boshqa jismoniy faollikdagi jinslar o'rtasidagi farqni kamsitish deb hisoblash mumkin emas. Xotin-qizlar yoki erkaklar sport assotsiatsiyalarini tashkil etish, har ikki jins vakillari uchun jismoniy tayyorgarlikni tekshirishning turli standartlarini belgilash bunga misol bo'la oladi.

Xotin-qizlarga kiyinish xonalari, boshpana, emizish va dam olish xonalari kabi qulayliklarni shaxsiy daxlsizlik, xavfsizlik yoki madaniy me'yorlar asosida ta'minlash kamsitish emas.

Shaxslarni ozodlikdan mahrum qilish joylarida ushlab turish yoki saqlashda gender munosabatlaridagi tafovutlarning o'rnatilishi oqlanadi, chunki ular jamoat xavfsizligini himoya qilish uchun zarur va ko'zlangan maqsadga mutanosibdir.

Jinsga ko'ra kamsitish alohida holatlarda qabul qilinishi mumkin bo'lsa-da, u qonuniy asosga ega bo'lishi kerak. Shuni esda tutish lozimki, qonun tomonidan ruxsat etilganlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi va yurisdiksiyaga qarab farq qilishi mumkin.

65. Xalqaro hujjatlarda diskriminatsiya turlari haqida nima deyilgan?

Xalqaro hujjatlarda kamsitishning turli ko‘rinishlari bo‘yicha huquqiy normalar mavjud. Ushbu hujjatlar diskriminatsiya taqiqlangan turli toifa va asoslarni belgilaydi, shuningdek, a‘zo davlatlar uchun kamsitishning oldini olish bo‘yicha majburiyatlarni belgilaydi.

Jinsiy kamsitish inson gender yoki imtiyozlari asosida teng bo‘lmagan munosabat yoki cheklovlarga duchor bo‘ladigan diskriminatsiya shakli. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW) va boshqa xalqaro hujjatlar gender kamsitishlarini bartaraf etish uchun barcha tegishli choralarni ko‘rishni nazarda tutadi.

Homiladorlik va emizish bilan bog‘liq kamsitish - bu homiladorlik, tug‘ish, emizish yoki homiladorlik yoki tug‘ish bilan bog‘liq fiziologik holat tufayli ayolga nisbatan noto‘g‘ri qarashni nazarda tutuvchi gender kamsitishning bir ko‘rinishidir. Bundan tashqari, oilaviy ahvol va oilaviy majburiyatlarga ko‘ra kamsitish, jinsiy zo‘ravonlik, teng ish va malaka uchun turli xil haq to‘lash gender kamsitishning turlari hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri kamsitish har qanday farq, istisno yoki cheklashda, shuningdek, shaxslar tomonidan o‘z huquqlarini amalga oshirishda yoki hech qanday obyektiv sabablarsiz shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra ularga nisbatan munosabatda ifodalanadi. Jinsiy zo‘ravonlik yoki ta‘qib qilish to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamsitishning misolidir.

Bilvosita kamsitish - bu neytral va hamma uchun bir xil bo‘lib ko‘rinadigan, ammo boshqa shaxslar bilan solishtirganda teng bo‘lmagan vaziyatni talab qilish yoki yaratish. Masalan, kompaniyaning ish vaqtidan tashqari qo‘shimcha ishlatish siyosati, bilvosita gender kamsitishni tashkil qilishi mumkin, chunki bu erkaklar va xotin-qizlar uchun ularning oilaviy majburiyatlari va majburiyatlaridagi farqlarni hisobga olmasdan teng bo‘lmagan sharoitlarni keltirib chiqaradi.

Nogironlik asosida kamsitish yoki eyblizm (inglizcha “ableism, able” (qobiliyatli, mehnatga layoqatli) so‘zidan olingan) har qanday sohada inson huquqlari va asosiy erkinliklarining qisqarishiga, inkor etilishiga olib keladigan nogironlikka asoslangan har qanday cheklashni anglatadi. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarida nogironligi

bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishga alohida e‘tibor qaratilgan va ularni kamsitish taqiqlangan.

Diniy e‘tiqod asosidagi kamsitish o‘z xohishiga ko‘ra din yoki e‘tiqodga ega bo‘lish yoki qabul qilish hamda o‘z dini yoki e‘tiqodini alohida-alohida yoki boshqalar bilan birgalikda namoyon etish erkinligini cheklaydi yoki istisno qiladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (IHUD) hamda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (FSHXP) din bilan bog‘liq har qanday kamsitishlarni taqiqlaydi.

Irqi kamsitish irqi, etnik kelib chiqishi yoki milliy kelib chiqishiga qarab shaxslarni cheklaydi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (IHUD) va Irqi kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya qoidalari bunday kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaydi va ishtirokchi-davlatlarni o‘z hududlarida bunday xarakterdagi barcha amaliyotlarning oldini olishga, taqiqlashga va bekor qilishga chaqiradi.

Yoshni kamsitish yoki eydjizm⁸⁷ (inglizcha “age” (yosh) so‘zidan olingan) ba’zi yoshga doir guruhlarni boshqalar tomonidan kamsitishni anglatadi. Keksalarning huquqlari amaldagi xalqaro inson huquqlariga oid hujjatlar asosida himoyalangan. Yosh bo‘yicha kamsitishdan himoya qilish umuminsoniy huquqlar, ya‘ni Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (FSHXP) hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (IMHXP) qoidalari bilan tartibga solinadi. Biroq xalqaro hujjatlarda keksalarning huquqlari alohida huquq sifatida hali hisobga olinmagan.

Viktimizasiya kimgadir kamsitish sababli yoki boshqa shaxsga bunday shikoyatni berishga yordam bergani uchun adolatsiz munosabatda bo‘lishni o‘z ichiga oladi. Viktimizasiya natijasida shaxs ishdan bo‘shatilishi, lavozimi pasayishi yoki qasd olish kabi salbiy oqibatlar yoki repressiyaning boshqa shakllariga duchor bo‘lishi unda kamsitishga qarshi shikoyat qilish qo‘rquvini keltirib chiqaradi.

Yuqorida qayd etilgan kamsitishning asosiy turlari xalqaro hujjatlarda nomaqbul deb tan olingan. Ushbu hujjatlarning har biri maqsadlariga qarab

87 А.А.Гудзовская. Явление в отражении. Социально-психологические факторы геронтологического эйджизма// Журнал «Социальные явления». 2018. №2(9) //стр.50

o‘ziga xos xususiyatlarni va kamsitish taqiqlangan qo‘shimcha asoslarni o‘z ichiga olishi mumkin.

66. Xalqaro shartnomalarga muvofiq gender tengligini amalga oshirish uchun kim javobgar?

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1979-yilda qabul qilingan Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida konvensiya (CEDAW) ayollar huquqlari himoyasi bo‘yicha eng muhim hujjatdir. CEDAW qo‘mitasi mazkur konvensiya sohasini mukammal biladigan yuqori ahloqiy sifatlarga va yetuk ma‘lumotlarga ega bo‘lgan 23 nafar mustaqil ekspertdan iborat.

Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish majburiyatlarni oladi va CEDAW qo‘mitasiga bu boradagi chora-tadbirlar haqida muntazam hisobot taqdim etishlari kerak. Qo‘mita o‘zining ochiq yig‘ilishlarida hisobotlarni ko‘rib chiqadi hamda e‘tiroz va tavsiyalarini yakuniy kuzatishlar shaklida ishtirokchi-davlatlarga yetkazadi.

Qo‘mita quyidagi huquqlarga ega:

Konvensiya tomonidan qo‘riqlanadigan huquqlar buzilganligi to‘g‘risida qo‘mitaga shikoyat qilgan shaxslar yoki shaxslar guruhidan xabarlarini qabul qilish;

Xotin-qizlar huquqlarining jiddiy yoki muntazam ravishda buzilishi holatlari bo‘yicha tergov o‘tkazish.

Qo‘mita umumiy muhokama kunlarini ham o‘tkazib, unda umumiy tavsiyalar beradi. Bular konvensiya moddalari yoki mavzulariga taalluqli davlatlarga yo‘naltirilgan takliflar va tushuntirishlar iboratdir.

Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha CEDAW qo‘mitasining faoliyati:

- ishtirokchi-davlatlarning hisobotlarini ko‘rib chiqish va ushbu mamlakatlarda xotin-qizlar huquqlari bilan bog‘liq vaziyatni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berish;
- oiladagi zo‘ravonlik, ta‘lim va kasbdagi gender tengsizlik va odam savdosi kabi xotin-qizlar huquqlarining jiddiy yoki muntazam ravishda buzilishi holatlarini tergov qilish;

- konvensiya mazmunini tushuntiruvchi va ishtirokchi-davlatlarga uni qanday qilib samarali amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beradigan umumiy tavsiyalarni nashr etish.

Shunday qilib, CEDAW qo'mitasining faoliyati butun dunyoda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Qo'mita o'zining mustaqil va tahliliy yondashuvi orqali ishtirokchi-davlatlarga konvensiya bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda yordam beradi va xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlaydi.

67. Gender tengligining buzilishi haqida xalqaro organlarga xabar berishdan maqsad nima?

Tenglik va kamsitilmaslik 1945-yilda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomining asosiy tamoyillari hisoblanadi. Xalqaro organlarga gender tengligining buzilishi haqida xabar berishning ko'plab maqsadlari mavjud. Ulardan ba'zilar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Gender tengligi haqida xabardorlikni oshirish. Ogohlantirishlar gender tengligi va uning oqibatlari haqida xabardorlikni oshirishga yordam beradi. Bu odamlar, tashkilotlar va hukumatlarni mavjud muammonlarni hal qilish uchun choralar ko'rishga undashi mumkin.
- Regulyativ funktsiya. Huquqbuzarliklar haqidagi xabarlar hukumatlar va tashkilotlarda gender tengligini targ'ib qilish choralari ko'rishga ta'sir qilishi mumkin.
- Jinoyat qurbonlariga o'z ichiga yuridik, tibbiy yordam va boshqa xizmatlardan foydalanish imkonini olgan yordam ko'rsatish.
- Muammoga e'tiborni qaratish va aybdor tomonlarga ta'sir choralari qo'llash orqali kelajakda huquqning poymol etilishining oldini olish.

Gender tengligining buzilishi to'g'risidagi hisobotlar (CEDAW) qo'mitasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi (OHCHR) va BMT Inson huquqlari kengashi kabi turli xalqaro organlarga yuborilishi mumkin.

Shikoyatda qoidabuzarlik haqida batafsil dalillar keltirilgan hisobot va barcha tasdiqlovchi hujjatlar bo'lishi kerak. Har bir shikoyat tizimi o'zining afzalliklariga ega, ammo ba'zi mexanizmlar, agar boshqasi muammo bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, shikoyatni qabul qilmaydi, shuning uchun har bir

mexanizm qanday ishlashini tushunish muhimdir.

CEDAW qo‘mitasiga shikoyat faqat gender tengligi buzilishini o‘rganuvchi mas‘ul ishtirokchi-davlat CEDAWga fakultativ protokol deb nomlangan hujjatni ratifikatsiya qilgan yoki unga qo‘shilgan va jabrlanuvchi “ichki himoya vositalarini tugatgan” bo‘lsa qabul qilinadi.

Inson huquqlari kengashining Maxsus tartib-qoidalari⁸⁸ hukumatlar vakolatiga kiruvchi inson huquqlari buzilishi haqidagi aniq da‘volarga bevosita aralashishi mumkin. Qonun va amaliyotda xotin-qizlarga nisbatan kamsitish bo‘yicha vakolat besh nafar mustaqil ekspertdan iborat maxsus tarkiblar bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan nazorat qilinadi.

Har qanday jismoniy shaxs, nodavlat notijorat tashkilot, shaxslar guruhi Ayollar maqomi bo‘yicha komissiyaga (Commission on the Status of Women (CSW))⁸⁹ xabarlar (shikoyatlar/appelyasiyalar/petisiyalar) yuborishi mumkin. Bu faqat gender tengligi va xotin-qizlarning rivojlanishiga ko‘maklashadigan global siyosiy organdir. Komissiya 45 ta a‘zo davlatning har biridan Kengash tomonidan adolatli geografik taqsimot asosida saylanadigan bittadan vakildan iborat. RKQ Aloqa bo‘yicha ishchi guruhi xabarlar va javoblarni ko‘rib chiqadi hamda adolatsizlikning umumiy tendensiyalari va shakllarini aniqlaydigan hisobot tayyorlaydi. Bu odatda Ayollar maqomi bo‘yicha komissiya tomonidan qayd etiladi hamda Iqtisodiy va ijtimoiy kengashning yillik hisobotiga kiritiladi.

68. Mamlakatlar BMTga gender tengligining amalga oshirilishi haqida hisobot beradimi?

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi ishtiroki, ularning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, salomatlik va reproduktiv huquqlari bo‘yicha CEDAW qo‘mitasiga muntazam hisobotlar taqdim etadi. Davlatlar konvensiyani ratifikatsiya qilganidan keyin ikki yil ichida hisobot beradi.

Davlatlar CEDAW qo‘mitasiga konvensiyani amalga oshirishning bosqichlari to‘g‘risida davriy hisobotlarni taqdim etishlari shart. Qo‘mita

88 <https://www.ohchr.org/en/special-procedures-human-rights-council/what-are-communications>

89 <https://www.unwomen.org/en/csw/communications-procedure>

har bir ishtirokchi-davlatning ma'ruzasini ko'rib chiqadi va yakuniy xulosa bildiradi. Yakuniy xulosalar ishtirokchi-davlatlarni CEDAW bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgarlikka tortishda muhim vositadir.

CEDAW qo'mitasiga hisobot berishdan tashqari ishtirokchi-davlatlar Inson huquqlari bo'yicha kengash va Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar idorasi kabi boshqa tizimlar orqali BMTga gender tengligi majburiyatlari haqida ham hisobot berishlari mumkin. Ushbu jarayonlar ishtirokchi-davlatlarga gender tengligi majburiyatlarini bajarish natijalari va erishilgan yutuqlar haqida qimmatli fikr-mulohazalarni ham taqdim qilishi mumkin.

Hisobot har to'rt yilda taqdim etiladi va xotin-qizlar huquqlarining barcha jihatlarini qamrab olishi kerak. Shuningdek, hisobot, statistik va boshqa tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

CEDAW qo'mitasi ishtirokchi-davlatlarga o'z hisobotlarini tayyorlashda yordam berish uchun bu boradagi ko'rsatmalarni ishlab chiqdi. Ushbu ko'rsatmalar hisobotlarga kiritilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni batafsil bayon qiladi.

Qo'mita 2020-yil oktyabr oyidagi o'zining 68-sessiyasida Bosh Assambleya rezolyutsiyasiga muvofiq barcha ishtirokchi-davlatlar tomonidan hisobotlarning shaffofligini oshirish va muntazam hisobot berishni osonlashtirish uchun manbalar yetarliligini hisobga olgan holda hisobotlarni ko'rib chiqishning aniq vaqtini 68/268-sonli rezolyutsiyasida belgilab qo'ydi.

69. Xalqaro hujjatlarda xotin-qizlarning qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqi qanday aks ettirilgan?

Xotin-qizlarning siyosiy va jamoat qarorlarini qabul qilishda teng ishtirok etish huquqi inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda belgilangan huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu huquq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida (IHUD) va boshqa muhim xalqaro shartnomalarda mustahkamlangan tenglik, kamsitilmaslik va barcha huquqlarni amalga oshirish tamoyillariga asoslanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga ko'ra, har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar,

qonun oldida teng himoyalani sh huquqiga ega (2-modda). Bundan tashqari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida har bir shaxs o'z davlatini boshqarishda bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Bu huquq xotin-qizlar va erkaklarning siyosiy hayotda teng ishtiroki hamda vakilligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW) ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan asosiy hujjatlardan biridir. Konvensiyaning 7-moddasida ishtirokchi-davlatlar mamlakatning siyosiy va jamoat hayotida xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish yuzasidan barcha tegishli choralarni ko'rish majburiyatini olishi belgilangan. Shuni ta'kidlash kerakki, CEDAW tarixiy tengsizliklarni bartaraf etish va qarorlar qabul qilishda xotin-qizlarning mohiyatan tengligini ta'minlash uchun vaqtinchalik maxsus choralar kabi ijobiy choralar qo'llashni quvvatlaydi.

Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlarida (BRM) ham xotin-qizlarning siyosiy va iqtisodiy sohalarda qarorlar qabul qilishda teng ishtirok etishi barqaror rivojlanishga erishishning asosiy omili ekanligi e'tirof etilgan. BRMning 5.5-maqsadi davlatlarni qarorlar qabul qilishning barcha bosqichlarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash majburiyatini olishidir.

Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi jamiyatning barcha jabhalarida, jumladan qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va hokimiyatdan foydalanishda tenglik asosida xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirishga chaqiradi.

Bundan tashqari, Yevropa kengashi gender tengligi va qarorlar qabul qilishda ayollarning ishtiroki masalalarida faol hisoblanadi. Xotin-qizlar va erkaklarning siyosat hamda jamoat hayotida teng ishtiroki bo'yicha Rec (2003) 3, gender tengligi standartlari va mexanizmlari haqida Rec (2007) 17 kabi ko'plab tavsiya va rezolyutsiyalar ishlab chiqqan. Shuningdek, Parlament Assambleyasining rezolyutsiyalari asosida a'zo-davlatlar ayollarning siyosiy hayotda teng huquqliligini ta'minlash va gender diskriminatsiyasini bartaraf etish choralarni ko'radi.

Bu hujjat va tashabbuslarning barchasi xotin-qizlarning siyosiy hamda

jamiyat hayotida teng huquqliligi va vakilligini ta'minlashga qaratilgan. Ular davlatlarni tenglikni ta'minlash va tarixiy tengsizliklarni bartaraf etish bo'yicha faol choralar ko'rishga chaqiradi, chunki har bir inson jinsidan qat'i nazar, qarorlar qabul qilish, siyosatni ishlab chiqish va jamiyat taraqqiyotida to'liq ishtirok etish imkoniyatiga egadir.

70. Saylov kvotalarini belgilashda xalqaro amaliyot mavjudmi?

2010-yilda qabul qilingan gender tengligi va xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashish hujjatida "asosan xotin-qizlarga ajratilgan kvotalar va boshqa imkoniyatlar bilan rag'batlantirilishi sharti bilan ayollar siyosiy hokimiyatga bosqichma-bosqich ko'tarilmoqda" deb (BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlarining 3-maqsadi) ta'kidlanadi.

130 dan ortiq mamlakatda saylov jarayoniga qonunchilik darajasida yoki partiyaning ichki faoliyatida joriy etilgan turli xil kvotalar siyosati ta'sir ko'rsatadi. Yevropa kengashiga a'zo davlatlar orasida 75 foiz kvota tizimiga ega bo'lib, u qonun bilan mustahkamlangan yoki ixtiyoriy bo'ladi⁹⁰.

Buyuk Britaniyada 1997-yilda Leyboristlar partiyasi parlament va mahalliy kengash saylovlariga nomzodlarni tanlab olish uchun "Faqat xotin-qizlardan iborat ro'yxat" deb nomlanuvchi vaqtinchalik maxsus chorani joriy qildi. Ushbu siyosatga ko'ra, agar ayol deputat yoki mahalliy kengash a'zosi iste'foga chiqsa yoki erkak Leyboristlar partiyasi g'alaba qozonishi mumkin bo'lgan lavozimdan ketgan bo'lsa, mahalliy partiya a'zolari xotin-qizlar ro'yxatidan nomzod tanlashi kerak edi. Ushbu siyosat natijasida 1997-yilda Jamoatlar palatasiga saylangan ayol deputatlar ulushi 10 foizdan 18 foizgacha ko'tarildi va o'sha vaqtdan beri bu foiz o'sishda davom etib, ayni paytda ko'rsatkich 32 foizni tashkil etadi. 2017-yilgi saylovdan keyin Leyboristlar partiyasi deputatlarining hatto 45 foizi xoti-qizlar edi⁹¹.

Ispaniyada 2007-yilda qabul qilingan qonun (2007 yil 22 martdagi 3-sonli Organik qonun)ga ko'ra, siyosiy partiyalar saylovga taqdim etilgan nomzodlar ro'yxatida har bir jins vakilining kamida 40 foiz, lekin 60 foizdan oshiq bo'lmasligini (proporsional vakillik tizimi doirasida) ta'minlashi shart.

90 Межпарламентский союз 2019, 10; Совет Европы 2017, 28. <https://rm.coe.int/report-balanced-participation-of-women-and-men-in-decision-making-in-t/16809e3c24>

91 Bunyan, Diane, and Doru Petrutu. 2017. Regional Study on Women's Political Representation in the Eastern Partnership Countries. 2nd ed. (Буньян, Диан и Дору Петрути,

Irlandiyaning saylov qonunchiligiga 2012-yilda kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra, “har qanday jins vakillarining ulushi ma’lum bir partiyaga nomzodlar umumiy sonining 30 foizidan kam bo‘lsa” siyosiy partiyalar hukumat tomonidan ajratiladigan mablag‘ning 50 foizidan mahrum bo‘ladi.

Gruziyadagi nomzodlar ro‘yxatiga kamida 30 foiz boshqa jins vakillarini kiritgan siyosiy partiyalar 30 foizga oshirilgan qo‘shimcha mablag‘ olishadi⁹².

Polsha parlamentining ayol a‘zolari parlament hamda jamiyatda erkaklar va xotin-qizlar uchun teng imkoniyatlar g‘oyasini yanada samarali targ‘ib qilish maqsadida Parlament xotin-qizlar guruhini (PGK) tuzdi. Parlamentdagi rasmiy tashkilot maqomiga ko‘ra, PGK turli siyosiy partiyalarning ayol deputatlarini o‘z ichiga oladi va har bir parlament saylovidan keyin uning tarkibini ko‘rib chiqadi. PGK guruhi Saylov kodeksiga qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish, shu jumladan 35 foizlik gender kvotasiga qo‘shimcha ravishda saylovchilar ro‘yxatida erkak va ayol ismlarini almashtirishni nazarda tutuvchi “zanjirsimon” tizimni joriy etish taklifini qo‘llab-quvvatladi.

Moldovada “Gender tengligi platformasi” (nodavlat notijorat tashkilotlari koalitsiyasi) partiya nomzodlari ro‘yxatidagi har bir jins uchun 40 foiz kvotani joriy etishni muvaffaqiyatli qo‘llab-quvvatladi. Bu boradagi yangi qonun 2016-yilda qabul qilindi.

Kvotalarning muvaffaqiyati turli omillarga, jumladan siyosiy tizimning tabiatiga, saylov tizimining turiga, kvota tizimlariga, xotin-qizlarning jamiyatdagi roliga bo‘lgan madaniy munosabatga, parlament muhitining tabiatiga bog‘liq.

2017. Региональное исследование политического представительства женщин в странах Восточного партнерства. 2-е изд. Страсбург: Совет Европы; Браунинг, Стив. «Женщины в парламенте и правительстве». Лондон: Библиотека Палаты Общин, 2019 г.

92 Барбара Жуан Стоунстрит (Barbara Jouan Stonestreet), Working paper – Session 1.3 “Addressing the gender funding gap”, Global Conference on Money in Politics, Mexico City, 3 – 5 September, 2015.

71. Gender byudjeti xalqaro amaliyotda qanday aks ettirilgan?

Gender byudjeti birinchi marta 1980-yillarda Avstraliya hukumati tomonidan joriy etilgan va keyinchalik BMT ko‘magida Kanada, Janubiy Afrika va boshqa bir qancha mamlakatlarda qabul qilingan. Gender byudjeti amaliyoti turli davlatlarda tobora keng tarqalib bordi va xalqaro tashkilotlar tomonidan unga katta e‘tibor qaratilmoqda. Pekin harakatlar platformasi boshqa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda gender byudjetini qabul qilishni rag‘batlantirdi. 2017-yilga kelib yondashuvlar va majburiyatlar turlicha bo‘lsa-da, 80 ga yaqin davlat gender byudjetining bir qancha shakllarini amalga oshirdi.

XVFning ta’kidlashicha⁹³, gender tengligini ta’minlash bo‘yicha byudjetdan mablag‘ ajratish keng tarqalgan, ammo uni amalga oshirish yo‘llari hali ham muammoligicha qolmoqda. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki⁹⁴, G20ga a‘zo barcha mamlakatlar genderga bog‘liq moliyaviy siyosatni amalga oshirgan bo‘lsa-da, bu siyosatni baholash, monitoring qilish va tekshirish uchun fiskal vositalar ancha cheklangan.

Kanada, Meksika, Fransiya, Janubiy Koreya va Yaponiyada gender byudjeti indeksi yuqori baholangan.

2023-yilda AYLMAB “IHTTning gender byudjeti bo‘yicha eng yaxshi amaliyotlari”ni e‘lon qildi⁹⁵.

Gender tengligi bo‘yicha o‘zining maqsadlariga erishish uchun **Shvetsiya Moliya vazirligi** byudjet doiraviy talabining bir qismi sifatida byudjet takliflarining gender tengligiga ta’sirini majburiy baholash tizimini kiritdi. Shunday qilib, siyosat byudjetni rejalashtirishning boshidanoq gender jihatlarni hisobga olishni ta’minladi. Gender ta’sirini baholash natijalari resurslarning yo‘nalishi va taqsimlanishini aniqlash uchun ham qo‘llaniladi.

93 Gender Budgeting Is More Widespread But Implementation Remains a Challenge.


<https://www.imf.org/en/Blogs/Articles/2022/03/08/gender-budgeting-is-more-widespread-but-implementation-remains-a-challenge>

94 Gender Budgeting in G20 Countries, 2021, V.Alonso-Albarra et all.

95 [OECD Best Practices for Gender Budgeting | READ online \(oecd-ilibrary.org\)](#)

Gender budgeting index

Canada, Mexico, France, South Korea, and Japan score the highest in relative terms among the G20 in gender budgeting.



Source: IMF staff calculations.

Note: The GBI scores capture GB initiatives at the federal level only. Therefore, initiatives at a subnational level in the US, Germany and China are beyond the scope of the survey. The Graph includes G20 guests Spain and Austria. Country borders or names do not necessarily reflect the IMF's official position.

IMF

Ispaniya gender byudjeti taqsimoti bo'yicha eng ilg'or davlat bo'lib, bu Yevropa gender tengligi instituti tomonidan tan olingan. 2007-yilda Ispaniyada Ayollar va erkaklarning samarali tengligi to'g'risidagi Organik qonun qabul qilindi, unga ko'ra barcha davlat organlari o'z siyosati va dasturlarida gender ta'sirini baholashni talab qiladi. Inson huquqlari tengligi vazirligi tarkibida boshqa davlat organlariga texnik yordam ko'rsatish uchun mas'ul bo'lgan gender byudjeti bo'limi tashkil etildi.

Gender tengligini targ'ib qilish maqsadida 2008-yildan buyon **Meksika** byudjetiga "Ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash uchun xarajatlar" bo'limini kiritdi. Gender byudjetini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlash uchun Moliya vazirligi gender byudjetini shakllantirish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqdi. Shuningdek, Meksika Milliy Ayollar instituti rejalashtirish, dasturlash va byudjetlashtirish jarayonlarida gender tamoyillarini hisobga olish bo'yicha treninglar o'tkazadi.

72. Ommaviy axborot vositalarining gender tengligini targ‘ib qilishdagi ta‘siri qanday?

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni haqida jamoatchilik fikri va g‘oyalarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni katta. Ayollar va erkaklarning ommaviy axborot vositalarida qanday namoyon bo‘lishidan insonlarning gender masalalariga nisbatan xatti-harakati va munosabatlariga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tasavvur va stereotiplarga ta‘sir qiladi.

Afsuski, xotin-qizlarni stereotipik va cheklangan rollarda tasvirlash tendensiyasi mavjud bo‘lib, bu salbiy taassurotlarni keltirib chiqarishi va jamiyatda ayollar uchun imkoniyatlarni cheklashi mumkin. Ommaviy axborot vositalari ko‘pincha erkaklarni siyosat, biznes va boshqa sohalarda muhim qarorlarni qabul qiluvchi yetakchi sifatida, ayollarni esa odatda uy bekasi yoki ona sifatida tasvirlaydi.

Bunday qarashlar gender tengsizlikni kuchaytirishi va tenglikka erishish uchun to‘siqlar yaratishi, shuningdek, xotin-qizlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ayollar o‘z rollarini tashqi ko‘rinishi yoki ijtimoiy mavqeyi bilan cheklangan deb hisoblasa, bu ularning ishonchini va ulug‘vor maqsadlarga intilish motivatsiyasini kamaytirishi mumkin.

BMTning UN-Woman tashkiloti - ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish va gender tengligini targ‘ib qilish vositasi sifatida ommaviy axborot vositalaridan, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga keng imkoniyat yaratadi. 2011-yilda PR bo‘yicha Eastern Campus korxonasi bilan xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish maqsadida “Zo‘ravonlikka qarshimiz, keling, buni birga bartaraf qilaylik” shiori ostida onlayn kampaniyani boshladi. Bir universitet talabalarini jalb qilish maqsadida boshlangan kampaniya keng quloq yozib, Weibo ijtimoiy tarmog‘ida 49 mingdan ortiq obunachini jalb qildi. EVAW Day kampaniyasida esa kun davomida onlayn va kampusda 3500 nafardan ortiq yoshlar imzolari to‘plandi⁹⁶.

Nepalda haftalik dastur “Sajha Saval” (Umumiy masalalar) voqealarni yoritish formatlari bilan tajriba o‘tkazmoqda. Bunda siyosatchilar jamoat joylariga, qahvaxona va dalalarga - ayollar o‘zlarini ishonchliroq va savol

96 [In Asia, social media changes young minds about violence | UN Women – Headquarters](#)

berishga qulay his qiladigan joylarga olib boriladi⁹⁷. Tanzaniya siyosiy munozara dasturi “Haba Na Haba” (Asta-sekin) xotin-qizlar salomatligi mavzularini siyosiy masalalar sifatida ko‘rib chiqadi⁹⁸.

73. Gender tengligini targ‘ib qilishda fuqarolik jamiyatining ta‘siriga qanday misollar keltirish mumkin?

Fuqarolik jamiyati tashabbuslari maqsadlarga erishish uchun hukumatlarga ta‘sir o‘tkazish, jamoatchilik xabardorligini oshirish uchun zarur yordam resurslarini taqdim etish orqali gender tengligini ta‘minlashga yordam beradi. Misol uchun, BMT “Gender tengligi haqidagi hikoyangizni baham ko‘ring” portalini ishga tushirdi⁹⁹, unda insonlar o‘zlarining gender tengligi haqidagi hikoyalari bilan o‘rtoqlashadilar.

Tarana Berk tashabbusi bilan 2006-yilda boshlangan MeToo harakati juda katta omma e‘tiborini jalb qildi. 2017-yilda mashhur Gollivud prodyuseri Xarvi Vaynshteynga ayollarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik qilish haqidagi bir qator ayblovlar qo‘yilganidan so‘ng #Metoo xeshtegi ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi va siyosatchilarni ushbu muammolarni hal qilish uchun harakat qilishga undadi. Ushbu harakatning asosiy maqsadi shunchaki zo‘ravonlik va jarohat holatlarini aks ettirish emas, balki global gender tengsizlik muammolarini hal etishga ham qaratildi. Bu harakat jinsiy zo‘ravonlik va zo‘ravonlik qurbonlari uchun yordam qo‘llariga aylandi. Shuningdek, ular ijtimoiy va jinoiy odil sudlov tizimidagi tizimli o‘zgarishlar uchun ham kurashadilar.

Kiyinish qoidalarini buzgani uchun Eron axloq politsiyasi tomonidan hibsga olingan 22 yoshli Mahsa Aminiyning vafotidan so‘ng¹⁰⁰ uning o‘limi yuzasidan adolatli tergov o‘tkazish va xotin-qizlarga nisbatan barcha kamsituvchi qonunlarni bekor qilish talabi bilan ommaviy namoyishlar boshlandi. Ko‘pgina xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, Yevropa Ittifoqi va ba‘zi davlatlar Eronda ayolning o‘limi yuzasidan mustaqil tergov o‘tkazishga va aybdorlarni javobgarlikka tortishga chaqirmoqda.

97 [How the media can promote gender equality | Josephine Casserly | The Guardian](#)

98 [Why do a million women still suffer the treatable condition of fistula? | Kate Grant | The Guardian](#)

99 [Истории гендерного равенства гражданского общества | ООН \(un.org\)](#)

100 <https://www.bbc.com/russian/news-62943608>

74. Xalqaro amaliyotda gender tengligining amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik nazorati tushunchasi mavjudmi?

Ha mavjud. Gender tengligi tamoyili ustidan jamoatchilik nazorati - bu nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik institutlari va davlat tashkilotlarining gender tengligi sohasidagi o'z majburiyatlari va harakatlarini bajarishi demakdir.

IHRT tavsiyalaridan biri gender tengligi masalalarini inklyuziv va har tomonlama yoritishni ta'minlash uchun tegishli hukumat va nodavlat manfaatdor tomonlarni jalb qilishdir.

Xalqaro amaliyotda gender tengligiga erishish ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashga yordam beruvchi tashkilotlar va dasturlar ham mavjud. Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkilotida gender tengligi va ayollar empauermenti (xotin-qizlarga o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda yordam beradigan jarayon) bo'yicha maxsus bo'linma mavjud bo'lib, u a'zo davlatlar, nodavlat tashkilotlar va faollar bilan ishlaydi. Xalqaro forum va konferensiyalar fuqarolik jamiyati vakillariga gender tengligi masalalari bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari va tavsiyalarini taqdim etishlari uchun ham platforma yaratadi.

2018-yilda Xalqaro xotin-qizlar kunida Avstraliya kasaba uyushmalari kengashi oiladagi zo'rvonlikka duch kelganlarga pullik ta'til berish kampaniyasini boshladi. Kampaniyaning asosiy maqsadi shundan iborat ediki, oilada zo'rvonlikni boshdan kechirayotgan odamlar o'z daromadlari va ularning xavfsizligi o'rtasida tanlov qilishga majbur qilinmasligi kerak (masalan, agar biror kishi uyini tark etishga majbur bo'lsa, bolalarni boshqa joyga ko'chirish, moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish, tibbiy yoki psixologik yordam so'rash). Xotin-qizlar ishlari vaziri devoni idorasi oldiga "Ayollar o'ldirilmoqda", "Haq to'lanadigan ta'til hayotni saqlab qolishi mumkin" va "Nima uchun hech qanday chora ko'rilmaydi?" mazmunidagi uchta katta reklama taxtasi o'rnatildi. Ular jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari e'tiborini tortdi. Natijada to'rt oydan kamroq vaqt oralig'ida oilaviy zo'rvonlik tufayli haq to'lanadigan o'n kunlik ta'til olish huquqi to'g'risidagi nizom kuchga kirdi¹⁰¹.

2016-yilda Bosniya va Gersegovinaning 10 ta shahrida "Sukunat-oltin

101 Josh Butler, Australian unions call for domestic violence leave with '3 billboards' stunt, Huffington Post, 8 March 2018

emas” shiori yozilgan bilbord va plakatlar o‘rnatildi. Kampaniya xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik keng tarqalganligi va bu haqda hukumatga kamdan-kam xabar berilishini ta’kidlab, jabrlanuvchilarni sukut saqlashga majbur qiladigan ijtimoiy me’yorlarga qarshi chiqildi. Kampaniya davomida 15 mingdan ortiq imzo to‘planib, keng jamoatchilik va siyosiy qo‘llab-quvvatlashga erishildi, natijada Jinoyat kodeksiga o‘zgartirish kiritish tashabbuslari ilgari surildi¹⁰².

75. Xalqaro hamjamiyatda gender tengligi va xotin-qizlar huquqlari bo‘yicha qoidalarni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan qanday maxsus organlar yoki lavozimlar mavjud?

Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish, ularni zo‘ravonlikdan himoya qilish, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa resurslardan foydalanishini ta’minlash maqsadida BMT huzurida quyidagi organlar va lavozimlar tashkil etilgan.

UN Women - bu BMTning gender tengligi hamda xotin-qizlar huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga mo‘ljallangan bo‘linmasidir. 2010-yilning iyul oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi **UN Women** tashkilotiga asos soldi. Tashkilotning ijrochi direktori bir vaqtda BMT Bosh kotibining o‘rinbosari ham hisoblanadi.

CEDAW qo‘mitasi mustaqil ekspertlar organi bo‘lib, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya talablarining bajarilishini nazorat qiladi. Qo‘mita butun dunyodan ayollar huquqlari bo‘yicha 23 nafar ekspertdan iborat.

Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik, uning sabablari va oqibatlari bo‘yicha maxsus ma’ruzachi BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi tomonidan ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni kuzatish va hisobot berish uchun tayinlangan mustaqil ekspert hisoblanadi. Maxsus ma’ruzachining vakolatiga ushbu masala yuzasidan aholining xabardorligini oshirish, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishga ko‘maklashish va zo‘ravonlik qurbonlariga yordam ko‘rsatish kiradi.

Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissar boshqarmasi (OHCHR)

102 USAID, Silence is not golden: Bosnians stand against gender-based violence, Success Stories, News and Information, Washington, DC, USAID, 201

BMTning inson huquqlarini ilgari surish va himoya qilish uchun mas'ul bo'lgan organidir. OHCHR gender tengligi va ayollar huquqlari bo'yicha qator dastur va tashabbuslarga ega.

Xotin-qizlar maqomi bo'yicha komissiya faqat gender tengligini ta'minlash va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirishga bag'ishlangan yetakchi global hukumatlararo organdir.

Gender tengligi bo'yicha mintaqaviy organlar ham mavjud bo'lib, Xotin-qizlar holati va gender masalalari bo'yicha Afrika Ittifoqi komissiyasi, Yevropa gender tengligi instituti (EIGE), Xotin-qizlar, huquq va taraqqiyot bo'yicha Osiyo-Tinch okeani forumi (APWLD), Xalqaro Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha harakat qo'mitasi va boshqalar shular jumlasidandir.

76. Xalqaro miqyosda reproduktiv huquqlarni himoya qilishga oid qanday qoidalar mavjud?

Reproduktiv salomatlik Xalqaro aholi va rivojlanish konferensiyasining harakatlar dasturining 7.2-bandida "Reproduktiv tizim bilan bog'liq barcha masalalarda to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati" sifatida belgilangan.

Insonning turmush darajasi, shu jumladan o'zi va oilasining salomatligi hamda farovonligi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, tibbiy yordam va zarur ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan huquqi (25-modda), voyaga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o'tish va oila qurishga haqli ekanligi (16-modda) **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida** mustahkamlangan.

Xalqaro miqyosda tan olingan inson huquqlariga "har bir insonning jismoniy va ruhiy salomatlikning erishilishi mumkin bo'lgan eng yuqori standartidan foydalanish huquqi" kiradi (**Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 12-moddasi**). Insonning yashash, shaxsiy erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, shaxsiy hayoti va uning sog'lig'i bilan bog'liq boshqa ajralmas huquqlari **Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt** tomonidan himoya qilinadi.

CEDAW konvensiyasi a'zo davlatlardan sog'liqni saqlash sohasida, xususan oilani rejalashtirishda, tibbiy xizmatdan teng foydalanishni

ta'minlashda xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ko'rishni talab qiladi. Bunday talablarga ayollarga homiladorlik, tug'ish va tug'ruqdan keyingi davrda xizmatlar, agar kerak bo'lsa, bepul xizmatlar ko'rsatish, homiladorlik va emizish davrida bepul ovqatlanish sharoitlarini yaratish kiradi (12-modda).

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya ishtirokchi-davlatlarni tug'ruqdan oldingi va keyingi davrda onalarga zaruriy tibbiy xizmatlarni ko'rsatish borasida zarur choralarni ko'rishga chaqiradi (24-modda).

Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) ikkita konvensiyasi onalikni himoya qilish hamda ishlaydigan xotin-qizlar uchun tug'ruq ta'tillari bo'yicha asosiy standartlar va tamoyillarni belgilaydi. Xususan, XMTning 1919-yilda qabul qilingan ilk konvensiyalaridan biri bo'lgan **Xotin-qizlarning tug'ruqdan oldin va tug'ruqdan keyingi mehnati to'g'risidagi konvensiya** ayollarning tug'ruqdan oldin va keyingi salomatligini himoya qilish, shuningdek, ularga tug'ruq vaqtida ta'til berishni ta'minlashga qaratilgan. Boshqa masalalar qatorida konvensiya ayollarga ta'til, tug'ishdan oldin, tug'ishdan keyin va bola parvarishi davrida ta'til berishni, shu jumladan haq to'lanadigan davrlarni ham talab qiladi. Konvensiya ish beruvchilarning homilador va emizikli ayollar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash majburiyatini belgilaydi.

2000-yilda qabul qilingan Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (yangi tahrirda) 1952-yildagi konvensiyaga nisbatan onalik va tug'ruq ta'tiliga nisbatan zamonaviyroq yondashuvni ifodalaydi. Mazkur konvensiya qoidalari xotin-qizlarga kamida 14 haftalik tug'ruq ta'tilini olish, tug'ruqdan oldin, tug'ruq vaqtida va undan keyin tibbiy yordam olish huquqini beradi.

Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari huquqini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya mehnat muhojirlarining ish haqi va boshqa mehnat sharoitlari masalalarida davlat fuqarolariga ishga joylashish uchun qo'llashdan kam bo'lmagan qulay sharoitdan foydalanish huquqini mustahkamlaydi. Bunda qo'shimcha ish vaqti, ish vaqti, haftalik dam olish, to'lanadigan ta'tillar, xavfsizlik, sog'liqni saqlash choralari belgilanadi (25-modda/a).

Yuqoridagi va boshqa bir qator muhim xalqaro hujjatlar xalqaro miqyosda reproduktiv huquqlarni himoya qilish standartlari va tamoyillarini belgilaydi.

77. Gender tengligi va raqamlashtirish sohalarida bog‘liq borasida xorijiy mamlakatlar amaliyoti qanday?

Raqamli texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish gender tengligiga ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar xotin-qizlarga ta‘lim, ish, tovar va xizmatlar bozori hamda jamoat hayotida ishtirok etish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, raqamlashtirish erkaklar va xotin-qizlarning xavfsizligi hamda huquqlariga jiddiy tahdid solmoqda. Raqamli texnologiyalar ko‘pincha ta‘qib (**kiber zo‘ravonlik**), zo‘ravonlik va kamsitishdan himoya qilish uchun kamsituvchi materiallarni tarqatish uchun ishlatiladi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, bugungi kunda raqamlashtirishda gender masalalari neytral emas. Uning potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun gender o‘lchamlarini hisobga olish zarur. Texnologiyalarning xotin-qizlar va erkaklarga ta‘siridagi farqlarni tushunmaslik va hal qilmaslik gender raqamli tafovutni kengaytirishi mumkin. **Raqamli to‘siq** (ingl. Digital divide) zamonaviy aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyatining yo‘qligi sababli ijtimoiy guruhning huquqlarini cheklashda ifodalanadi¹⁰³.

Gender tengligi va inson huquqlari bo‘yicha tajriba va ma‘lumotlar almashish uchun ko‘plab onlayn platformalar, forumlar va ijtimoiy tarmoqlar mavjud. Biroq doimiy raqamli tafovut tufayli xotin-qizlar va erkaklar hozirda ushbu resurslardan foydalanishda teng imkoniyatlarga ega emas. Coursera ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2022-yil holatiga ko‘ra barcha malaka toifalari bo‘yicha (o‘qitish va murabbiylik kurslaridan tashqari) ro‘yxatga olishda nomutanosiblik mavjud. Raqamli savodxonlik (gender tengligi 43,7%) hamda sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar (Big Data) kabi texnologiya ko‘nikmalarida (33,7%), ular eng ko‘p talab qilinadigan malakalar o‘ntaligiga kiradi, gender paritet 50 foizdan kam va bu sohadagi taraqqiyot sekin rivojlanmoqda¹⁰⁴.

Gender tengligiga erishish uchun xotin-qizlar ham texnologiya, raqamli ta‘lim va onlayn xavfsizlikdan teng foydalanishi kerak.

103 Цифровой барьер. <https://ru.wikipedia.org/>

104 Gender Gap Report 2023. p.7// https://www3.weforum.org/docs/WEF_GGGR_2023.pdf

LinkedIn kompaniyasining ish profillari bo'yicha ma'lumotlari¹⁰⁵ shuni ko'rsatadiki, ayollar STEM sohalarida (Science, Technology, Engineering and Mathematics) hali ham sezilarli darajada yetakchi emas. Xotin-qizlar STEM sohasi bo'lmagan kasblardagi jami bandlikning deyarli yarmini (49,3 %), ammo STEM sohasi bo'yicha umumiy ishchilarning atigi 29,2 foizini tashkil qiladi. STEM sohalariga kirayotgan qizlar ulushi ortib borayotgan bo'lsa-da, o'qishni tugatgandan so'ng ayollarning ushbu sohada qolishi sezilarli darajada kamayadi.

Dunyoning rivojlanmagan mamlakatlarida internetga kirish bo'yicha farq 32,9 foizni tashkil etadi¹⁰⁶. Internetdan foydalanish bo'yicha Afrika eng katta bo'shliqqa va mobil telefon egaligi bo'yicha gender raqamli tafovut Janubiy Osiyoda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu yerda xotin-qizlar erkaklarga qaraganda 26 foizga kamroq mobil telefondan foydalanishadi¹⁰⁷.

Gender raqamli tafovut ham mamlakatlarning iqtisodiy o'sish va rivojlanish salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar 3 yil ichida yana 600 million xotin-qiz internetga ulansa, bu global yalpi ichki mahsulotning 13 milliarddan 18 milliard dollargacha oshishiga olib keladi¹⁰⁸.

78. Xalqaro huquqda adliya tizimiga gender yondashuvini joriy etish amaliyoti mavjudmi?

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish hamda ayollarning odil sudlovga kirishi bo'yicha 33-sonli umumiy tavsiyasi odil sudlov sohasi ishlari gender tengligiga nisbatan ijobiy yondashishni hamda odil sudlovga erishish yo'lidagi boshqa to'siqlarni, jumladan stigmatizatsiya va takroriy viktimizatsiya o'z ishlarida xotin-qizlarning sud organlari bilan o'zaro munosabatlarini talab qiladi.

105 Baird, M., N. Gahlawat, R. Hood, P. Ko and S. Lara, "LinkedIn STEM Classification Methodology", LinkedIn Economic Graph Technical Note #1, 2023// <https://economicgraph.linkedin.com/content/dam/me/economicgraph/en-us/PDF/measuringgender-gaps-in-the-us-stem-workforce.pdf>

106 Plan International, Bridging the Digital Divide, 2023, <https://plan-international.org/quality-education/bridging-the-digital-divide/>


107 <https://www.gsma.com/mobilefordevelopment/programme/connected-women/women-continue-left-behind-sizing-mobile-gender-gap-2018/>

108 Plan International, Bridging the Digital Divide, 2023, <https://plan-international.org/quality-education/bridging-the-digital-divide/>

Gender nuqtayi nazarini adliya tizimiga integratsiya qilish adliya tizimining barcha jabhalarida gender istiqbolini hisobga olishni anglatadi. UN Women tashkiloti “gender muammosining tahlili” atamasini quyidagicha izohlaydi: “Bu genderning imkoniyatlar, ijtimoiy rollar va odamlarning o‘zaro munosabatlariga ta’sirini ko‘rish yoki tahlil qilish usulidir. Ushbu istiqbol gender tahlilini o‘tkazish va keyinchalik genderni har qanday taklif qilingan dastur, siyosat yoki tashkilotga kiritish imkonini beradi”¹⁰⁹.

Xalqaro sudyalar uyushmasi raisi Vanessa Ruiz ta’kidlaganidek, sud qarorlari gender stereotiplariga asoslanishi mumkin¹¹⁰. Ba’zi hollarda jabrlanuvchining holati yetarlicha e’tiborga olinmasa, gender tarfakshligi paydo bo‘lishi mumkin. Gender yondashuvi adolatli sud qarorlariga olib keladi, bu esa pirovardida erkaklarga ham, ayollarga ham foyda keltiradi.

“Adolat va gender” nomli to‘rtinchi qo‘llanmada sud tizimining barcha bosqichlarida gender yondashuvini joriy etish tavsiya etiladi. Unda barqaror o‘zgarishlarga erishishning eng katta salohiyati turli ishtirokchilarni birlashtirgan hamda keng ko‘lamli munosabatlarni o‘z ichiga oluvchi integratsiyalashgan va tarmoqlararo yondashuv ekanligi ta’kidlanadi. Ushbu yondashuv gender tengligi sohasida samarali transformatsiyalar uchun sharoit yaratishga yordam beradi¹¹¹.



109 UN Women, Gender equality glossary [Структура «ООН-женщины», Глоссарий гендерного равенства], 2019, <https://trainingcentre.unwomen.org/mod/glossary/view.php>

110 <https://www.unodc.org/dohadeclaration/ru/news/2019/01/the-role-of-women-judges-and-a-gender-perspective-in-ensuring-judicial-independence-and-integrity.html>

111 Элеонор Гордон, 2022, Серия пособий «Гендер и безопасность», Органы правосудия и гендер, стр 35

79. Dunyoda sudyalarning gender ta'limiga oid qanday misollar mavjud?

Ko'pgina mamlakatlar sud tizimida gender tengligi tafovuti bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lib¹¹², bu sudyalarning hayotiy tajribasi va gender stereotiplari ishning natijasiga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

CEDAW qo'mitasi ishtirokchi-davlatlarga adliya tizimining barcha jabhalarida gender stereotiplarini bartaraf etishga va gender sezgirligini oshirishga qaratilgan barcha adliya tizimining xodimlari hamda huquqshunos talabalar uchun o'quv dasturlarini taqdim etishni tavsiya qiladi (33-sonli umumiy tavsiya).

Avstraliyada sudyalarning gender tengligi bo'yicha o'quv seminarlarida ishtirok etishi 1990-yilda "Tenglik va odil sudlovni amalga oshirish: gender, irq va sinf" seminari bilan boshlangan. 1992-yilda Avstraliya Oliy sudi "Odil sudlovni amalga oshirishda gender tarafkashlik" deb nomlangan sud majlisini o'tkazdi. 1994-yilda Oliy sud tomonidan "Sud tarozisi oldida tenglik" kitobi nashr etildi. Ushbu qo'llanmani barcha adliya tizimi xodimlariga tarqatish bilan bir qatorda, sudyalar komissiyasi tomonidan sudlar uchun tashkil etilgan turli seminarlarda va har yili o'tkaziladigan sudyalar konferensiyalarida gender madaniyatini oshirish mavzusi ko'rib chiqiladi.

Argentinada sudlar uchun ikkita asosiy gender ta'lim dasturlari mavjud - "Tenglik huquqshunosligi yo'lida" (1997-2000) va "Argentina sud tizimida gender tengligini ta'minlash rejasi" (2010-yilda boshlangan)¹¹³. Birinchi dasturda 2000 nafardan ortiq sudya ishtirok etgan bo'lsa, ikkinchi dastur mamlakatning barcha sud tarmoqlari uchun majburiy hisoblanadi.

Yevropa kengashi va Yevropa Ittifoqining "Sharqiy hamkorlikning oltita davlatida (Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Moldova Respublikasi, Ukraina va Belarus) xotin-qizlarning odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash" loyihasi doirasida "Sudyalar va prokurorlar uchun xotin-qizlarning odil sudlovga kirishini ta'minlash bo'yicha o'quv qo'llanma"¹¹⁴ kitobi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudida shikoyatlarni hal qilish misollari va keyingi tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan.

112 U Schultz and G Shaw, Gender and judging, 2013, p 3.


113 Beatriz Kohen, Gender training for the judiciary in Argentina, 2014

114 <https://rm.coe.int/training-manual-general-part-women-s-access-to-justice-rus-pdf/16808e9a46>

Sudyalar uchun gender ta'limi kundalik vazifalarni gender omillariga bog'liq holda bajarish ko'nikmalarini o'rgatadi. Gender yondashuvi xotin-qizlar va erkaklarning adliya tizimi bilan o'zaro munosabatlaridagi farqlarni tan oladi. Shuningdek, gender tengligi bo'yicha trening sudga murojaat qiladigan yoki qonuniy himoya vositalariga muhtoj bo'lgan turli jinsdagi insonlarning ehtiyojlaridagi farqlarni tushunishga imkon beradi.

80. Xorijiy mamlakatlarda xotin-qizlarning odil sudlovdan foydalanishi bilan bog'liq qanday muammolar mavjud?

Xalqaro tashkilotlar dunyo aholisining uchdan ikki qismini tashkil etuvchi qariyb 5,1 milliard inson uchun adolat orqali odil sudlovga erishish qiyinligicha qolayotganini qayd etadi. Xotin-qizlar va marginal guruhlar adliya tizimida ayniqsa og'ir sharoitlarga duch kelishmoqda. Ular ko'pincha jins bo'yicha diskriminatsiya, ijtimoiy stigma, o'z huquqlarini bilmaslik, iqtisodiy va ta'limdagi kamchiliklar tufayli odil sudlov asosida adolatga erishishda to'siqlarga duch kelishadi.



Jahon odil sudlov loyihasi (WJP) hisoboti xotin-qizlarning fuqarolik odillik masalalarini qanday hal qilishini aniqlaydi. U ayollar duch keladigan eng keng tarqalgan huquqiy ziddiyatlarni, ularni hal qilish jarayonlarini baholashni, shuningdek, yuridik yordam so‘ramagan yoki o‘z muammolarini hal qila olmagan xotin-qizlar tajribalarini o‘z ichiga oladi.

So‘nggi ikki yil ichida ayollarning 53 foizi huquqiy muammolarga duch kelgan. Biroq faqat ularning 13 foizigina muammoni hal qilishda yordam so‘rab rasmiy idoralarga murojaat qilgan. Iste‘mol va uy-joy masalalari xotin-qizlarning eng ko‘p uchraydigan muammolaridan biridir.

